

**U. JO‘RAYEV**

# **JAHON TARIXI**

*O‘rta asrlar davri*

**7- SINF**

**O‘QITUVCHI METODIK QO‘LLANMASI**

МАЖБУРИЯ  
НУСХАЛАР

*Cho‘lpón nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi*  
*Toshkent – 2005*

ЖАҲОН ТАРРИХИ - МЕТОДИЧНИК

АНКИЯЛАҲИМЗА.

74.266.3

J96

**Taqrizchilar:** *Sh. Otajonov* — Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi.

*F. G'iyosov* — Toshkent viloyati pedagogik xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti katta o'qituvchisi.

*G. Jo'rareya* — Toshkent viloyati Bo'ka tumanidagi 8- o'rta məktəb tarix o'qituvchisi.

10 315 34  
391

„Osiyo Rivojlanish Banki kredit mablag'lari hisobidan  
DARSLIKLAR AYLANMA JAMG'ARMASI (DAJ)  
uchun chop etildi“.

**U. T. Jo'rarev.**

J96 Jahon tarixi. O'rta asrlar davri. 7- sinf: O'qituvchi metodik qo'llanmasi  
U. T. Jo'rarev. - T.: Cho'lon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.  
- 160 b.

BBK 74.266.3

J 4306020600 -37 - 2005  
360 (04) - 2005

ISBN 5-8250-0931-0

© Cho'lon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005-y.

2005  
4578

Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston M

## SO‘ZBOSHI

Sizga ma'lumki, jahon tarixini davrlashtirishda uzoq yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarni asos qilib olish tamoyiliga amal qilib kelindi. Afsuski, O'zbekistonda mustaqillik yillarida ham bu tamoyildan butunlay voz kechilmadi. Xususan, 7- sinfda o'r ganilayotgan „Jahon tarixi“ning o'rta asrlar davrini o'qitishda shu tamoyilga suyanish hamon davom etib kelmoqda<sup>1</sup>. Ya'ni, o'rta asrlar tarixi V asrdan XVII asrning 1- yarmigacha — Angliya burjua inqilobi davrigacha davom etgan, degan qoida asosida o'qitilmoqda.

Ko'p davlatlarda bu tamoyildan allaqachon voz kechilgan bir paytda, bizda eskicha tamoyilga amal qilishning hamon davom etayotganligi achinarli holdir, albatta. Biroq ko'pchilik MDH mamlakatlarida, jumladan, Rossiyada V– XV asrlar davri o'rta asrlar tarixi deb hisoblanadi. Yangi tarix bizdagidek Angliya burjua inqilobidan emas, buyuk geografik kashfiyotlar (XVI asr)dan boshlanadi, degan tamoyilga amal qilinadi<sup>2</sup>. Bu hol tarixni davrlashtirish masalasiga sivilizatsiyali birdan-bir to'g'ri yondashuvdir<sup>3</sup>. Ayrim tarixchi olimlarimiz amalda aynan shu tamoyil tarafdarlaridir. Yaqinda shu tamoyil asosida oliv o'quv yurtlari uchun „Yangi tarix“ darsligining yaratilganligi buning isboti bo'ldi<sup>4</sup>.

<sup>1</sup>Qarang: *T.Salimov va boshq. „Jahon tarixi“*, 7- sinf uchun darslik. T.: „Sharq“ nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyyati. 2002.

<sup>2</sup>Qarang: *A.Я. Юдовская. „Новая история“ (1500 – 1800 гг.). Учебник для 7 класса.* M. 1998.

<sup>3</sup>Qarang: *Ю.В. Яковец. „История цивилизации“*. M. 1997.

<sup>4</sup>Qarang: *Ш.Эргашев. „Янги тарих“ (XVI – XVIII асрлар). Бакалаврлар учун дарслик. F.: „Farg'on“ nashriyoti. 2004.*

Biz yuqorida qayd etganlardan kelib chiqqan holda „Jahon tarixi“ni eskicha davrlashtirish tamoyilidan voz kechdik va V – XV asrlar davri bo‘yicha 7- sinf uchun „Jahon tarixi“ darsligi hamda o‘qituvchilar uchun qo‘lingizdagи metodik qo‘llanmani yaratdik. O‘ylaymizki, bunday yondashuv Sizni ham befarq qoldirmaydi. Qo‘llanmada o‘quvchilarning matn bilan ishlashlariga, turli xil o‘yinlar (o‘nga yaqin) tashkil etishlariga, qisqa konspekt tuza olishlariga imkon beruvchi topshiriqlarning yetarli darajada bo‘lishiga e’tibor qaratildi.

Ma’lumki, bugungi samarali dars o‘quvchilarining o‘quv materialini bevosita dars davomida (uyda emas) o‘zlashtirib olishlarini ta’minlashi kerak bo‘lgan darsdir. Bu vazifani o‘quvchilarни darslik bilan ishlay olishga o‘rgatmasdan turib bajarib bo‘lmaydi. Shuning uchun biz qo‘llanmada bu masalani hal etishga qaratilgan topshiriqlarni ko‘proq, lekin o‘quvchilar yoshiga mos keladigan holda berishga harakat qildik.

O‘qituvchilarning mazkur dars ishlamalariga ijodiy yondashishlari tavsiya etiladi.

# I bo‘lim. Jahon xalqlari o‘rta asrlarning birinchi davrida (V – XI asrlar)

## 1- dars. Kirish. O‘rta asrlar tarixi va jamiyati

### *Darsning maqsadi.*

O‘quvchilarga o‘rta asrlar tarixi qaysi asrlarni o‘z ichiga olishi, o‘rta asrlar jamiyati qanday jamiyat ekanligi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘rta asrlar tarixi manbalari haqida bilim berish. Tarixiy voqeа va hodisalardan xulosa chiqarish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, saboqlardan bugungi kunda foydalanish ruhida tarbiyalash.

### *Darsning jihozlari.*

1. 7- sinf uchun „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Vatman qog‘oz va flamaster.

### *Dars mazmunining tayanch tushunchalari:*

- |                         |                      |
|-------------------------|----------------------|
| – o‘rta asrlar tarixi;  | – feod;              |
| – feodal jamiyati;      | – krepostnoy dehqon; |
| – yer egaligi jamiyati; | – natural xo‘jalik;  |
| – feodal majburiyatlar; | – tarixiy manbalar.  |

## DARS REJASI

| T.r. | Darsning bosqichlari         | Vaqt |
|------|------------------------------|------|
| I.   | Tashkiliy qism.              | 5    |
| II.  | Dars mazmunini tushuntirish. | 13   |
| III. | Aqliy hujum.                 | 8    |
| IV.  | Guruhlarda ishlash.          | 15   |
| V.   | Darsni yakunlash.            | 2    |
| VI.  | Uyga vazifa.                 | 2    |

**I.Tashkiliy qism.** O‘qituvchi o‘quvchilarni darsga jalb etadi. Ularni jahonda ro‘y bergan eng muhim yangiliklardan xabardor

qiladi. So'ng darslikning mualliflari va mundarijasi bilan tanishtiradi. 6-sinfda o'rgangan darslikning nomi so'raladi. Uning qaysi davrlarni o'z ichiga olishi eslatiladi.

## **II. Dars mazmunini tushuntirish.**

O'qituvchi o'quvchilarga dars mazmunini hikoya uslubi asosida tushuntiradi. Tarixiy manbalarga oid 5 – 6- sinflarda olgan bilimlarini yodga tushiradi.

## **III. Aqliy hujum.**

### ***Savollar va javoblar.***

1. O'rta asrlar tarixi qaysi davrlarni o'z ichiga oladi? – *V – XV asrlarni.*
2. Tarixni davrlarga bo'lish qachon rasm bo'lgan? – *XV – XVI asrlarda.*
3. Yevropada o'rta asrlar kishilik jamiyatini qanday ataladi? – *Feodal jamiyati.*
4. Osiyoda o'rta asrlar jamiyatini qanday ataladi? – *Yer egaligi jamiyati.*
5. Feodal nima? – *Ma'lum xizmat evaziga qiroq tomonidan berilgan va meros bo'lib qoladigan yer-mulk.*
6. Yevropada yer egasi qanday nom bilan atalgan? – *Feodal.*
7. Krepostnoy kim edi? – *Feodalga biriktirilib qo'yilgan qaram dehqon.*
8. Feodal jamiyatida qanday xo'jalik ustun bo'lgan? – *Natural xo'jalik.*
9. Feodal tarqoqlik nima? – *Mamlakatning mayda-mayda davlatlarga bo'linib ketishi.*
10. Osiyoda davlat va yer egalari barcha yerlarini dehqonlarga bo'lib berishiga nima sabab bo'lgan? – *Sun'iy sug 'orishsiz dehqonchilik qilib bo'lmasligi.*
11. O'rta asrlarning ikki davrini qayd eting. – a) *V – XI asrlar;* b) *XI – XV asrlar.*

## **IV. Guruhlarda ishslash.**

### ***1- guruhg'a topshiriq.***

Feodal jamiyatining belgilarini aniqlang.

### ***2- guruhg'a topshiriq.***

Yer egaligi jamiyat bilan feodal jamiyat o'rtasidagi farqni, uning sabablarini aniqlang.

### ***3- guruhg'a topshiriq.***

Yevropada va Vatanimizda yer egalari hamda qaram dehqonlarning qanday nomlar bilan atalganligini daftarga qayd etish.

### ***4- guruhg'a topshiriq.***

O'rta asrlar yer egaligi qanday oqibatlarga olib kelganligini aniqlang.


## V. Darsni yakunlash.


Fao'l o'quvchilar bilimini baholash.

## VI. Uyga vazifa.

Darslikning kirish qismini o'qish. O'rta asrlar jamiyatining asosiy belgilarini daftarga yozib kelish.

*O'qituvchi uchun qo'shimcha ma'lumot.*





## I bob. V – XI ASRLARDA YEVROPA XALQLARI

### 2- dars. Xalqlarning buyuk ko'chishi va uning oqibatlari

#### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga xalqlarning buyuk ko'chishi nima ekanligi, uning sabablari va oqibatlari haqida bilim berish. Ularni birovlar yerini egallahsga, bosqinchilik urushlariga qarshi kurash ruhida tarbiyalash.

#### *Darsning jihozlari.*

1. Darslik.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Doska, bo'r.

#### *Tarqatma material.*

Darsda o'rganiladigan asosiy tushuncha va atamalar yozilgan kartochkalar.

#### *Dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- buyuk ko'chish;
- german qabilalari;
- Rim imperiyasi;
- Rim imperiyasining qulashi.

#### DARS REJASI

| T.r. | Darsning bosqichlari               | Vaqt |
|------|------------------------------------|------|
| I.   | Tashkiliy qism.                    | 3    |
| II.  | Yangi dars mavzusini tushuntirish. | 12   |

|      |                                    |    |
|------|------------------------------------|----|
| III. | Guruhlarda ishlash.                | 20 |
| IV.  | Guruhlarda ish yakunini chiqarish. | 5  |
| V.   | Dars yakunini chiqarish.           | 3  |
| VI.  | Uyga vazifa.                       | 2  |

## I.Tashkiliy qism.

O'quvchilarni darsga jalgan etish. Jahonda ro'y bergan eng so'nggi yangiliklar haqida ma'lumot berish.

### Darsning mazmuni:

- Buyuk ko'chish.
- Buyuk ko'chish sabablari.
- Buyuk ko'chish oqibatlari.
- Germanlarning G'arbiy Rim imperiyasi taqdiridagi o'rni.
- Rim imperiyasining qulashi.

## II. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.

„Xalqlarning buyuk ko'chishi“ mavzusini o'qituvchi hikoya-suhbat uslubida tushuntiradi.

## III. Guruhlarda ishlash.

Sinf 4 guruhgaga bo'linadi.

### 1- *guruhgaga topshiriq.*

Xalqlarning buyuk ko'chishi davrini, uning sabablarini aniqlash.

### 2- *guruhgaga topshiriq.*

Buyuk ko'chishning oqibatlarini aniqlash va ularni izohlash.

### 3- *guruhgaga topshiriq.*

German qabilalarining G'arbiy Rim imperiyasi taqdirida o'ynagan rolini aniqlash.

### 4- *guruhgaga topshiriq.*

Turli german qabilalarining egallagan hududlarini aniqlash.

*O'qituvchi mustaqil ish jarayonida o'quvchilarni o'z fikrlarini asoslashga undaydi, ularning faolligini qo'llab-quvvatlaydi.*

## IV. Guruhlarda ish yakunini chiqarish.

Bunda har bir guruhning o'ziga berilgan topshiriqni qanday bajarganligi taqqoslanadi. Yutuq va kamchiliklar ko'rsatiladi. Har bir guruh bajargan ish sifatiga ko'ra rag'batlantiriladi.

## V. Dars yakunini chiqarish.

O'quvchilarga qo'yilgan baholar e'lon qilinadi.

## VI. Uyga vazifa.

1- § mavzusini mazmunini savol va topshiriqlar bo'limida berilgan savollar asosida o'r ganib kelish.

German qabilalarining G'arbiy Yevropa tarixida tutgan o'rni haqida axborot tayyorlash.

### 3- dars. Franklar davlatining tashkil topishi

#### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga Franklar davlatining tashkil topishi, uning asoschisi, qirollik, ijtimoiy hayot, xristian dinining qabul qilinishi haqida bilim berish. O'quvchilarни buyuk davlat qurishga intilib yashash, qonunga itoat qilish va jabr-zulmga qarshi kurash ruhida tarbiyalash.

#### *Darsning jihozlari.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „Merovinglarning Frank davlati“ xaritasi.
4. Doska, bo'r.

#### *Tarqatma materiallar.*

O'quvchilarning o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirib olishlarini aniqlash uchun tarqatma materiallarda quyidagi savollar va topshiriqlar qamrab olinishi maqsadga muvofiqdir:

- 1- *kartochka*: Xalqlarning buyuk ko'chishi nima edi?
- 2- *kartochka*: Xalqlarning buyuk ko'chishiga sabab bo'lgan birinchi omilni qayd eting.
- 3- *kartochka*: Xalqlarning buyuk ko'chishiga sabab bo'lgan ikkinchi omilni qayd eting.
- 4- *kartochka*: Xalqlarning buyuk ko'chishiga sabab bo'lgan uchinchi omilni qayd eting.
- 5- *kartochka*: Buyuk ko'chishning uch asosiy oqibati nimalar edi?

#### *Dars mavzusini mazmunining tayanch tushunchalari:*

- |                     |                    |
|---------------------|--------------------|
| – frank qabilasi;   | – sali franklari;  |
| – Franklar davlati; | – qiro;            |
| – qirollik davlati; | – „Sali haqiqati“; |
| – graf.             |                    |

## DARS REJASI

| <i>Tx.</i> | <i>Darsning bosqichlari</i>                | <i>Vaqt</i> |
|------------|--|-------------|
| I.         | Tashkiliy qism.                            | 3           |
| II.        | O‘rganilgan mavzuni takrorlash.            | 7           |
| III.       | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish. | 10          |
| IV.        | Aqliy hujum.                               | 10          |
| V.         | Guruhlarda ishlash.                        | 10          |
| VI.        | Dars yakunlarini chiqarish.                | 3           |
| VII.       | Uyga vazifa.                               | 2           |

### **I . Tashkiliy qism.**

O‘quvchilarni darsga jalgan etish. Ulardan jahonda ro‘y bergan eng muhim yangiliklarning qaysilarini eshitganliklarini so‘rash. Yangiliklar aytilsa, o‘qituvchi ularni to‘ldiradi. Agar javob bo‘lmasa, o‘qituvchining o‘zi o‘quvchilarni yangiliklardan xabardor etadi.

### **II. O‘rganilgan mavzuni takrorlash.**

O‘tilgan mavzuning qanchalik o‘rganib olinganligi yuqorida qayd etilgan tarqatma materiallar asosida aniqlanadi.

O‘quvchilarga berilgan topshiriq – „German qabilalarining G‘arbiy Yevropa tarixida tutgan o‘rnii“ haqidagi axborotlarning sifati 1 – 2 nafar o‘quvchiga o‘qitib ko‘rish orqali aniqlanadi.

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

#### *Mavzuning mazmuni:*

- franklar. Xlodvig;
- Franklar davlatining tashkil topishi;
- qirollik davlati;
- „Sali haqiqati“;
- xristian dini qabul qilinishining ahamiyati;
- yer egaligining o‘sishi.

O‘qituvchi ikkinchi mavzu mazmunini yoritishga kirishishidan avval davlatning nima ekanligi, dunyoda birinchi bor davlat qachon va qayerda paydo bo‘lganligini hamda 6- sinf „Tarix“ darsligidan o‘rgangan davlatlardan qaysilari eslarida qolganligini o‘quvchilardan so‘rab aniqlaydi.

3- mavzu mazmunini yoritishda esa „Qirollik davlati“ atamasining mazmuniga alohida e’tibor beradi. Bunda qirol Yevropada „korol“ deb

atalishiga va bu atamaning qanday ma'no anglatishiga o'quvchilar e'tiborini jalb etadi.

4- mavzu mazmunining bayonida esa o'quvchilarning xristian diniga oid 6- sifda olgan bilimlarini qisqacha esga tushirish maqsadga muvofiqdir. Qolgan masalalar darslik asosida yoritiladi.

#### **IV. Aqliy hujum.**

##### ***Savollar va javoblar.***

1. Franklar kim? – *German qabilalaridan biri.*
2. „Sali franklari“ atamasining mazmuni. – *Dengiz bo'yi franklari.*
3. Xlodvig kim edi? – *Sali franklari yetakchisi.*
4. Franklar davlati tashkil etilgan sana. – 486- yil.
5. „Sali haqiqati“ nima? – *Franklar qonunlari to'plami.*
6. Xristian dini qabul qilingan sana. – 486 -yil.
7. Barshchina nima? – *Qaram dehqonning feudal yerini ishlab berishi.*
8. Obrok nima? – *Qaram dehqonning chek yerda yetishtirgan hosilidan feodalga to'laydigan soliq.*

#### **V. Guruhlarda ishslash.**

O'quvchilar guruhlarga bo'linadi va ularning har biriga alohida topshiriq beriladi.

##### **1- *guruhgaga topshiriq.***

Franklar haqidagi ma'lumotlar tartibini tuzish.

##### **2- *guruhgaga topshiriq.***

Franklar davlatining asoschisi, bu davlatning qachon va qay tariqa tashkil topganligi, sulola qanday nom bilan atalganligini aniqlang.

##### **3- *guruhgaga topshiriq.***

„Qirollik davlati“ belgilarini aniqlash va „Sali haqiqati“ga baho berish.

##### **4- *guruhgaga topshiriq.***

Franklarda xristian dini qabul qilinishining ahamiyatini aniqlash va unga baho berish.

#### **VI. Dars yakunlarini chiqarish.**

Guruhlardan bajargan ishlarni baholash, topshiriqni yaxshi bajargan guruhni rag'batlantirish.

#### **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu savollariga javob yozish. Bugungi Fransiya haqida qisqacha ma'lumot to'plab kelish.

## QO'SHIMCHA MA'LUMOT

*„Sali haqiqati“ dan.*

Kimki ho'kizni yoki sigirni buzog'i bilan o'g'irlasa, 25 solid (solid – Rim tangasi) to'lashga hukm qilinadi.

Kimki qirolning ho'kizini o'g'irlasa, o'g'irlangan ho'kizning narxidan tashqari 90 solid to'lashga hukm qilinadi.

Kimki g'alla omboriga o't qo'ysa, 65 solid to'lashga hukm qilinadi.

Kimki o'g'irlilik qilish maqsadida birovning bog'iga kirsa, 15 solid to'lashga hukm qilinadi.

Kimki qul, ot yoki ulovga qo'shiladigan hayvonni o'g'irlasa, 30 solid to'lashga hukm qilinadi.

Kimki erkin frankni o'ldirib qo'lga tushsa, 200 solid to'lashga hukm qilinadi.

Kimki qirol xizmatidagi odamni o'ldirsa, 600 solid to'lashga hukm qilinadi.

### 4- dars. Franklar imperiyasi

*Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga franklar imperiyasi qay tariqa tashkil topganligi, uning asoschisi, imperiya olib borgan istilochilik urushlari hamda imperiyaning parchalanishi sabablari haqida bilim berish. O'quvchilarни imperiyachilikka qarshi kurash, mustaqillik ruhida tarbiyalash.

*Darsning jihozlari.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „Buyuk Karl imperiyasi“ xaritasi.
4. „Franklar imperiyasining parchalanib ketishi“ xaritasi.
5. Doska, bo'r.

*Tarqatma materiallar.*

O'tilgan dars mavzusi asosiy masalalari asosida tayyorlangan kartochkalar.

*Dars mavzusini mazmunining tayanch tushunchalari:*

- karolinglar sulolasi; – Buyuk Karl imperiyasi;
- rimliklarning buyuk imperatori; – Verden shartnomasi.

## DARS REJASI

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>     | <b>Vaqt</b> |
|-------------|---------------------------------|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                 | 2           |
| II.         | O'rganilgan mavzuni takrorlash. | 8           |
| III.        | Yangi mavzuni tushuntirish.     | 8           |
| IV.         | Aqliy hujum.                    | 12          |
| V.          | Guruhlarda ishlash.             | 10          |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.        | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                    | 2           |

### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularga jahonda ro'y bergan eng muhim yangiliklar haqida ma'lumot berish.

### **II. O'rganilgan mavzuni takrorlash.**

Bu qism bittadan savol yozilgan quyidagi kartochkalarni o'quvchilarga tarqatish orqali bajariladi:

1- *kartochka*: Davlat nima?

2- *kartochka*: Franklar kimlar va ular qayerda yashaganlar?

3- *kartochka*: Franklar davlati qachon va qay tariqa tashkil topdi, uning asoschisi kim edi?

4- *kartochka*: „Qirollik davlati“ deyilganda nima tushuniladi?

5- *kartochka*: „Sali haqiqati“ nima?

6- *kartochka*: Franklarda xristian dini qachon qabul qilingan va uning ahamiyati nimalardan iborat bo'lgan?

7- *kartochka*: Qachondan boshlab yer franklarda xususiy mulkka aylangan?

8- *kartochka*: Yerning xususiy mulkka aylanishi nimani anglatar edi?

*Shu tariqa kamida 8 nafar o'quvchining baholanishiga erishiladi.*

### **III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

*Mavzuning mazmuni:*

- karolinglar sulolasining hokimiyatni egallashi;

- Buyuk Karl hukmronligi;

- Buyuk Karlning istilochilik urushlari va uning oqibatlari;

- Buyuk Karl imperiyasi. Rimliklar imperatori;

- imperianing zaiflashuvi sabablari;

- Verden shartnomasi.

*Yangi mavzu hikoya-suhbat uslubida tushuntiriladi.*

#### **IV. Aqliy hujum.**

##### **Savollar va javoblar.**

1. 751- yilda Franklar davlati tarixida qanday voqeа yuz berdi? – *Merovinglar sulolasi hukmronligi barham topdi.*

2. Yana qanday voqeа yuz berdi? – *Karolinglar sulolasi hukmronligi o'rnatildi.*

3. Buyuk Karl qachon qirollik taxtini egallagan? – *768- yilda.*

4. Buyuk Karl imperiyasi qachon tashkil topdi? – *800- yilda.*

5. Buyuk Karl kimlarning imperatori deb e'lon qilingan? – *Rimliklarning.*

6. Nega Buyuk Karl franklar imperatori deb e'lon qilinmagan? – *Qadimgi Rim an'analarining IX asrda ham odamlar ongiga katta ta'sir ko'rsatishda davom etganligi uchun.*

7. Yana nima uchun shunday qilingan deb o'ylaysiz? – „Franklar“ iborasidan rimliklar iborasi hammaga tushunarli bo'lganligi uchun.

8. Buyuk Karl imperiyasi parchalanishining asosiy sababi nima edi? – *Natural xo'jalik hukmronligi.*

9. Verden shartnomasi bo'yicha nimaga kelishilgan? – *Imperiyani uch qirollikka bo'lishga kelishilgan.*

10. Verden shartnomasi qachon imzolangan? – *843- yilda.*

11. Bo'lingan imperiya hududida qaysi davlatlar vujudga kelgan? – *Fransiya, Germaniya va Italiya.*

„Aqliy hujum“ da faol ishtirot etgan o'quvchilar rag'batlanтирilади.

#### **V. Guruhlarda ishlash.**

O'quvchilar guruhlarga bo'linadi va ularning har biriga alohida topshiriq beriladi.

##### **1- guruhga topshiriq.**

Merovinglar sulolasi hukmronligining barham topish sabablarini aniqlash.

##### **2- guruhga topshiriq.**

Karolinglar sulolasining hokimiyatni egallashi, sulolaning Rim cherkovi bilan do'stona munosabat o'rmatganligi sabablarini aniqlash.

##### **3- guruhga topshiriq.**

Buyuk Karl amalga oshirgan ishlar, imperiyaning qay tariqa tashkil etilganligini aniqlash.

##### **4- guruhga topshiriq.**

Imperiya parchalanishi sabablarini aniqlash.

### **5- guruhga topshiriq.**

Verden shartnomasining imzolanishi va uning oqibatlarini aniqlash.

### **VI. Dars yakunini chiqarish.**

Guruuhlar ishiga baho berish. G'olib guruuhlarni rag'batlantirish.

### **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu savollariga qisqacha javob yozish. Bugungi Germaniya va Italiya davlatlari haqida ma'lumotlar to'plab kelish.

### **QO'SHIMCHA MA'LUMOT**

*Buyuk Karlning sakslarga qarshi olib borgan urushi to'g'risida*

33 yil davom etgan va har ikki tomon uchun shiddatli bo'lgan, ammo sakslarga ko'proq zarar keltirgan urush ham boshlanib ketdi. Ularning necha marta mag'lubiyatga uchragani va qirolimizning marhamatiga sig'inib taslim bo'lganini aytish qiyin.

Qirol ularning bu xil harakatlarini hech mahal jazosiz qoldirgan emasdi va qilgan xiyonatkorliklari uchun adabini berar, qilmishlariga yarasha jazo chorałari ko'rар yo o'zi lashkar tortar yoki o'z graflari boshchiligidagi askar yuborardi. Nihoyat, qo'zg'olon ko'targanlarning barchasini yakson qilib, Elbaning har ikki qirg'og'ida yashab turgan 10 ming kishini xotin va bola-chaqalari bilan birga ko'chirib, butun Galliya va Germaniya bo'ylab tarqatib yubordi. Ko'p yillarga cho'zilgan bu urush qirol taklif qilgan va ular tan olgan shartlar bilan tugadi.

*Karlning sakslar bilan olib borgan urushlari to'g'risida xronika*

775. Qirol Karl qo'shini bilan Saksoniyada bo'ldi, uni xarob qilib, vayronaga aylantirdi.

783. Qirol janoblari katta qo'shin bilan Saksoniyaga jo'nadi, qo'zg'olon ko'targan sakslar bilan urush boshlanib ketdi, natijada ilgarigidan ham ko'p, minglab saks o'ldirildi.

796. Shu yili Karl ikki o'g'li bilan birgalikda Saksoniyada bo'ldi, u yerkunda o't qo'yib, vayron qildi, behisob erkak, ayol va bolalarni asir qilib olib keldi, shuningdek, hisobsiz o'lja keltirdi.

799. Qirol Karl juda ko'p sakslarni qo'lga kiritdi, ularni o'z davlatining turli viloyatlariga tarqatdi, yerlarini o'z yepiskoplari va graflariga bo'lib berdi.

## 5- dars. Muqaddas Rim imperiyasi

### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga Germaniya imperiyasining tashkil topishi, uning „Muqaddas Rim imperiyasi“ deb atalishi sabablari, hukmron sulolalar, Germaniya imperatorlari va Rim papalari o'rtaidagi kurash haqida bilim berish.

Bugungi Germaniya haqidagi qisqa, zarur ma'lumotlar bilan tanishtirish.

### *Darsning jihozlari.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „IX – XI asrlarda Germaniya va Italiya“ xaritasi.
4. Doska, bo'r.

### *Dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- ritsar; – immunitet huquqi;
- Muqaddas Rim imperiyasi;
- ruhoniylik lavozimiga saylanganlik ramzlari;
- Vorms konkordati; – imperiya hassasi;
- cherkov uzugi va hassasi.

### DARS REJASI

| T.r. | Darsning bosqichlari                       | Vaqt |
|------|--|------|
| I.   | Tashkiliy qism.                            | 2    |
| II.  | O'rganilgan mavzuni takrorlash.            | 6    |
| III. | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish. | 12   |
| IV.  | Aqliy hujum.                               | 9    |
| V.   | Darsni yakunlash.                          | 3    |
| VI.  | Krossvord tuzish.                          | 11   |
| VII. | Uyga vazifa.                               | 2    |

### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb qilish. Ularga jahonda ro'y bergan eng muhim yangiliklar haqida ma'lumot berish.

### **II. O'rganilgan mavzuni takrorlash.**

Bunda o'qituvchi o'tgan dars mavzusini o'quvchilar qanchalik

o‘rganib olganliklarini aniqlash uchun kartochkalar yoki testdan foydalanadi.

**A. Kartochkadan foydalanganda:**

- har bir kartochkaga bittadan savol yoziladi;
- kartochkalarda quyidagi savollar o‘z ifodasini topgan bo‘lishi maqsadga muvofiq:

1- *kartochka*: Merovinglar sulolasi hokimiyatini zaiflashtirgan ikki omil.

2- *kartochka*: – Rim Papasining ko‘rsatmasi bilan Pipinni qirol deb tan olish marosimining o‘tkazilganligi nimani anglatar edi?

3- *kartochka*: Buyuk Karl qachon taxtga o‘tirgan va nega unga „Buyuk“ laqabi berilgan?

4- *kartochka*: Franklar imperiyasi qachon tashkil topdi?

5- *kartochka*: Buyuk Karlga imperatorlik tojini kim kiygizgan?

6- *kartochka*: Buyuk Karl nega rimliklar imperatori deb e’lon qilingan?

7- *kartochka*: Franklar imperiyasiga zamondosh bo‘lgan imperiyalarni qayd eting.

8- *kartochka*: Franklar imperiyasi parchalanishining asosiy sababi nima edi?

9- *kartochka*: Verden shartnomasida nima ko‘zda tutilgan edi?

**B. Testdan foydalanganda:**

**1. Merovinglar sulolasi hokimiyatini zaiflashtirgan omillar.**

- A. Qirollarning uquvsizligi va davlat amaldorlari.
- B. Katta yer egaligining kuchayishi va o‘zaro urushlar.
- D. Ko‘chmanchilarning hujumi va istilosи.

**2. Franklar davlatida karolinglar sulolasi hukmronligiga kim asos solgan?**

- A. Xlodvig.
- B. Merovey.
- D. Pipin.

**3. Rim Papasining ko‘rsatmasi bilan Pipinni qirol deb tan olish marosimining o‘tkazilganligi nimani anglatar edi?**

- A. Rim Papasining qudratini, hukmdorlar ham uning vassali ekanligini.
- B. Papa bilan Pipin o‘rtasida do‘stona munosabat mavjudligini.
- D. O’sha davrlarda shunday odat mavjud bo‘lganligini.

**4. Franklar imperiyasini kim va qachon tashkil etdi?**

- A. Buyuk Karl 800- yilda.
- B. Pipin 768- yilda
- C. Rim Papasi, 800- yilda.

**5. Buyuk Karl imperatorligini tan olgan jahonning boshqa qudratli imperiyalari:**

- A. Turk xoqonligi va Attila davlati.
- B. Vizantiya va Eron.
- C. Arab xalifaligi va Vizantiya.

**6. Franklar imperiyasida imperator hokimiyati zaiflashuvining sabablari.**

- A. Vizantiya imperiyasi bergen o'nglanmas zarba.
- B. Yirik feodallarning markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka intilganligi.
- C. Taxt vorislarning hokimiyat uchun avj olgan kurashi.
- D. E. B va D.

**7. Verden shartnomasi qachon va kimlar tomonidan imzolangan?**

- A. 843- yilda Buyuk Karlning uch nafar o'g'li tomonidan.
- B. 987- yilda Buyuk Karlning uch nafar nabirasi tomonidan.
- C. 843- yilda Buyuk Karlning uch nafar nabirasi tomonidan.

**8. Verden shartnomasining oqibati:**

- A. Franklar davlati butunlay barham topdi.
- B. Imperiya uch davlatga bo'linib ketdi.
- C. Imperiya o'nga yaqin mayda-mayda davlatlarga bo'linib ketdi.

**III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

*Mavzuning mazmuni:*

– Germaniyada karolinglar va saksoniyaliklar hukmronligi davri;

– Otto I hukmronligi davri;

– Otto I ning Rim Papasi bilan munosabatlari;

– Germaniya imperiyasining tashkil topishi va uning Muqaddas Rim imperiyasi deb atalishi;

– Frankoniya sulolasи hukmronligining o'matilishi;

– Imperatorlar va Rim papalari o'rtaсидagi kurash sabablari;

– Bu kurashning oqibatlari.

*Yangi dars mavzusi mazmuni suhbat usulida tushuntiriladi. Darsning asosiy tayanch tushuncha va atamalari doskaga yoziladi.*

#### **IV. Aqliy hujum.**

*Savollar va javoblar.*

1. Genrix I hukmonligi davrida nimalarga erishdi? – *Qirol hokimiyatini kuchaytirish hamda qirollik hududlarini kengaytirishga.*
2. Kim Germaniya imperiyasiga asos soldi? – *Otton I.*
3. Otton I Rim Papasiga qanday xizmat ko'rsatgan? – *Otton I Rim Papasini papalik taxtiga o'tqazgan.*
4. Rim Papasi Ioann XII Otton I ga qanday himmat ko'rsatgan? – *Otton I ga imperatorlik tojini kiygizgan.*
5. Germaniya imperiyasi qachon tashkil topgan? – *962- yilda.*
6. Nega keyingi imperatorlar va papalar o'rtasida nizo kelib chiqqan? – *Imperatorlarning cherkov ham o'zlariga itoatda bo'lishini istaganligi uchun.*
7. Yana nima uchun? – *Rim papalari imperatorlarni hamon vassal holatda tutishga intilganlari uchun.*
8. Papa Grigoriy VII qanday tartib o'rnatgan? – *Papaning faqat ruhoniylar tomonidan saylanishi tartibini o'rnatgan.*
9. Ruhoniylilik lavozimiga saylanganlarga qanday ramzlar berilgan? – *Yorliq, uzuk va hassa.*
10. Vorms konkordati qachon imzolandi? – *1122- yilda.*
11. Shartnomaga ko'ra Germaniya imperatori nimaga erishdi? – *Germaniyaning o'zidagina yepiskop saylashda qatnashish, yepiskoplilikka saylangan ruhoniya imperiya hassasini taqdim etishga.*
12. Rim Papasi nimaga erishdi? – *Yepiskoplilikka saylangan ruhoniya cherkov uzugi va hassasini taqdim etishga.*

#### **V. Darsni yakunlash.**

„Aqliy hujum“da faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantirish va baholash.

#### **VI. Krossvord tuzish.**

Sinf o'quvchilari 6 guruhga bo'linadi va ularning har biriga bittadan krossvord tuzish topshiriladi.

#### **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu savollariga qisqacha javob yozish. Keyingi mavzu bilan tanishib kelish.

## 6- dars. V – XI asrlarda Angliya

### **Darsning maqsadi.**

O‘quvchilarga Angliyaning birlashtirilishi shart-sharoitlari, yagona Angliya davlatining vujudga kelishi, Angliyada davlat boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida bilim berish. Bugungi rivojlangan Angliya o‘tmishiga xayolan sayohat uyushtirish. O‘quvchilarni davalatchilikni mustahkamlash, yagona, jipslashgan jamiyatni rivojlantirish ruhida tarbiyalash.

### **Darsning jihozlari.**

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „VII asrda Angliya“ xaritasi.
4. Doska, bo‘r, vatman qog‘oz va flamasterlar.

### **Dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- germanlarning Britaniyaga kirib kelishi;
- angl-saks sulolasi;                    – „Donolar kengashi“;
- erl, gayda, sherif, lord.

### DARS REJASI

| T.r. | Darsning bosqichlari                         | Vaqt |
|------|--|------|
| I.   | Tashkiliy qismi.                             | 2    |
| II.  | O‘tilgan mavzuni takrorlash.                 | 6    |
| III. | Yangi dars mavzusi mazmuni ustida ishlash.   | 10   |
| IV.  | Guruhlarda ishlash.                          | 10   |
| V.   | Mustaqil ish (tarixiy faktlarni taqqoslash). | 12   |
| VI.  | Dars yakunlarini chiqarish.                  | 3    |
| VII. | Uyga vazifa.                                 | 2    |

### **I.Tashkiliy qismi.**

O‘quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro‘y bergan eng so‘nggi yangiliklardan xabardor qilish.

### **II. O‘tilgan mavzuni takrorlash.**

Darsning bu qismida „Zukkolar o‘yini“ amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilar 4 guruhgaga bo‘linadi va ular oldiga doskaga yozilgan quyidagi topshiriqlar qo‘yiladi:

***1- topshiriq.***

843, 919, 1024, 1125 sanalarini sharhlang.

***2- topshiriq.***

936, 961, 962 sanalarini sharhlang.

***3- topshiriq.***

„Germaniya imperatorlari ruhoniylar saylovida qatnashish tartibini joriy etgan edilar“. „Cherkov Rim Papasini faqat ruhoniylar saylashga haqli deb hisoblardi“. Bu ikki gapning tub mazmunida qanday maqsadlar yotganligiga izoh bering.

***4- topshiriq.***

„Cherkov uzugi va hassasi“; „Imperator hassasi“.

Bu tushunchalar nimalarni anglatishini, ularning tub mazmuni, o‘zida qanday maqsadlarni aks ettirganligini sharhlang.

*O‘quvchilarning topshirlarlarni qanday bajarganligi aniqlanadi va guruuhlar bajargan ish sifatiga qarab baholanadi.*

***III. Yangi dars mavzusi mazmuni ustida ishlash.***

Yangi dars mavzusi suhbat uslubida yoritiladi. O‘quvchilarning mavzuni mustaqil o‘rganishlari jarayonida egallagan bilimlari quyidagi savollar asosida aniqlanadi:

1. Angliya bugungi kunda yana qanday nom bilan ataladi?
2. Qaysi german qabilalari Britaniya oroliga bostirib kirganlar?
3. Qachon va kim Angliyani yagona davlatga birlashtirgan?
4. Qaysi qirollik Angliyaga eng ko‘p xavf solgan edi?
5. 1066- yilda Angliya taxtini kim egallab olgan?

***IV. Guruhlarda ishlash.***

O‘quvchilar 5 guruhgaga bo‘linadi va ularning har biriga alohida topshiriq beriladi.

***1- topshiriq.***

Bugungi Angliya haqida nimalarni bilasiz?

***2- topshiriq.***

„Shimoliy davlat“ni kim tuzgan, uning tarkibiga qaysi davlatlar kiritilgan va u nega parchalanib ketgan?

***3- topshiriq.***

Normandlar qay tariqa Angliya taxtini egallab olganlar?

***4- topshiriq.***

Erl, gayda, sherif va lord atamalariga izoh bering. Angliya qirolining 930- yilda chiqargan farmonida qanday maqsad ko‘zda tutilgan?

### 5- topshiriq.

„Donolar kengashi“ huquqlarini aniqlang va ularni tartib bilan yozing.

### V. Mustaqil ish.

*Mustaqil ish uchun mavzu:* „Fransiya, Germaniya va Angliya tarixining muhim jihatlarini taqqoslash“ ishini o‘quvchilar uch guruhga bo‘linib bajaradilar. Har bir guruh uchtdan topshiriq oladi. Buning uchun o‘qituvchi doskaga avvaldan tayyorlab qo‘ygan mustaqil ish yozilgan jadvalni ilib qo‘yadi.

| Davlatlar. | Qirollikni germanlarning qaysi qabilalari tashkil etgan edi? | Qirollik asoschilarini. | Qirolliklar tashkil topgan yillar. | Qirolliklarning imperiyaga aylanishini qachon va kimlar amalga osishganlar? | Qirollik va imperiyalar zaiflashuvining sabablarini. | Qirollik va imperiyalarning taqdiri. | Uchala davlat uchun umumiy bo‘gan xususiyat. | Uchala davlatning bugungi poytaxtlari. |
|------------|--|-------------------------|------------------------------------|---|--|--------------------------------------|--|--|
| 1          | 2  | 3                       | 4                                  | 5   | 6  | 7                                    | 8  | 9                                      |
| Fransiya.  |  |                         |                                    |   |  |                                      |  |  |
| Germaniya. |  |                         |                                    |   |  |                                      |  |  |
| Angliya.   |  |                         |                                    |   |  |                                      |  |  |

O‘quvchilarning ishlari baholanadi.

### VI. Dars yakunlarini chiqarish.

Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar bilimi baholanadi.

### VII. Uyga vazifa.

Darslikda berilgan savollarga javob topish. Fransiya, Germaniya va Angliya haqida bugungi ommaviy axborot vositalaridan ma'lumotlar to‘plib kelish.

### 7- dars. VI – XI asrlarda Vizantiya imperiyasi

#### Darsning maqsadi.

O‘quvchilarning Vizantiya imperiyasi tashkil topishi haqida 6-sinfda olgan bilimlarini esga tushirish. Imperiya taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyati, imperiyaning zaiflashuvi sabablari haqida ma'lumot berish. O‘quvchilarni imperiyachilikka qarshi,

separatizm – davlat birligini buzuvchi kuch ekanligi va mansab talashishga qarshi ruhda tarbiyalash.

### **Darsning jihozlari.**

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „Yustinian davrida Vizantiya imperiyasi“ xaritasi.
4. Doska, bo‘r.

### **Tarqatma material.**

Kartochkalarda avvalgi darsda o‘rganilgan atamalar yozilgan bo‘ladi.

### **Dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- qadimgi Rim imperiyasi; – G‘arbiy Rim imperiyasi;
- Sharqiyl Rim (Vizantiya) imperiyasi;
- Vizantiya va slavyanlar; – „Zeb-ziynat ustaxonasi“;
- Foma Slavyan qo‘zg‘oloni; – separatchilik.

## DARS REJASI

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>                    | <b>Vaqt</b> |
|-------------|--|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                                | 2           |
| II.         | O‘tilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni takrorlash. | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.     | 8           |
| IV.         | Aqliy hujum.                                   | 7           |
| V.          | Guruhlarda ishlash.                            | 15          |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.                       | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                                   | 2           |

### **I. Tashkiliy qism.**

O‘quvchilarni darsga tayyorlash. Ularni dunyoda ro‘y bergen eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

### **II. O‘tilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni takrorlash.**

Bu vazifa tarqatma materiallar yordamida amalga oshiriladi. Bunda quyidagi savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi:

1- *kartochka*: V asrgacha Britaniya oroli qaysi davlatga qaram bo‘lgan?

2- *kartochka*: Britaniyaga bostirib kirgan german qabilalarining nomlarini qayd eting.

3- *kartochka*: IX asrda birlashgan angl-saks qirolligining asosiy dushmani bo‘lgan davlatni qayd eting va dunyo siyosiy xaritasidan bu davlatni ko‘rsating.

4- *kartochka*: 879- yilda imzolangan Angliya – Daniya shartnomasining Angliya uchun oqibati nimadan iborat bo‘lgan?

5- *kartochka*: Angliya Daniyaga qaramlikdan qay tariqa qutulgan?

6- *kartochka*: Yuzboshilar majlisi nima edi?

7- *kartochka*: X asrdan boshlab Angliya ijtimoiy hayotida qanday chuqur o‘zgarish yuz bergan?

8- *kartochka*: Qirol Etelstanning 930- yilda chiqargan farmonida qanday maqsad ko‘zda tutilgan edi?

*Tarqatma materiallardagi savollar o‘quvchilarning o‘tilgan mavzuni qanchalik puxta o‘zlashtirib olganliklarini aniqlashga imkon beradi.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

Bu ishni amalga oshirishda suhbat usulidan foydalilaniladi.

*Mavzuning mazmuni.*

Vizantiya imperiyasining vujudga kelishi qay tariqa yuz bergan?

Imperiya taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyati.

Konstantinopol shahrining imperiyada tutgan o‘rni.

Imperianing zaiflashuvi sabablari.

Slavyanlar va Vizantiya.

Saljuq turklari va Vizantiya.

### **IV. Aqliy hujum.**

*Savollar va javoblar.*

1. 395- yilda qadimgi Rim imperiyasi tarixida qanday voqeа yuz bergan edi? – *Imperiya ikki qismga bo‘linib ketgan.*

2. Imperiya hududi jahoning nechta qit’asi bo‘ylab tarqalgan edi? – *Ikkita.*

3. Vizantiya G‘arbiy Rim imperiyasidan qaysi jihatlari bilan farq qilgan?  
– A) *Qulchilik munosabatlari bo‘lmagan.* B) *G‘arbiy Rimga nisbatan mustahkam davlat edi.*

4. Poytaxt Konstantinopol shahriga nisbatan qanday o‘xshatma qo‘llanilgan? – „*G‘oyat katta zeb-ziynat ustaxonasi*“ o‘xshatmasi.

5. Vizantiyaning oltin puli qanday ahamiyatga ega bo'lgan? – *Xalqaro savdo puli vazifasini o'tagan.*
6. Imperiyani zaiflashtirgan omillarni sanang.

1- *o'quvchi:* – Mehnatkash aholining jabr-zulmiga qarshi qo'zg'oloni.

2- *o'quvchi:* – Itoat ettirilgan xalqlarning o'z mustaqilligi uchun kurashining kuchayganligi.

3- *o'quvchi:* – Imperiyaning Arab xalifaligi hujumiga uchraganligi.

4- *o'quvchi:* – Separatchilik harakatining kuchayishi.

7. Imperiyani XI asrda og'ir ahvolga solib qo'ygan turkiy davlat.  
– *Saljuqlar davlati.*

*O'qituvchi „Aqliy hujum“da faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantiradi.*

## V. Guruhlarda ishlash.

O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi va quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

### 1- *guruhga topshiriq.*

Rim imperiyasining ikki qismiga bo'linib ketishi tarixi haqida qisqacha axborot tayyorlash. (Bu vazifani bajarish uchun guruuhga 6-sinf „Tarix“ darsligidan foydalanishga ruxsat etiladi).

### 2- *guruhga topshiriq.*

Xaritadan Vizantiya imperiyasi tarkibiga kiruvchi hududlarni aniqlash.

### 3- *guruhga topshiriq.*

Vizantiya imperiyasi taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini tartib bilan daftarga qayd etish.

### 4- *guruhga topshiriq.*

Vizantiya imperiyasining zaiflashuviga sabab bo'lgan omillarni aniqlash va ularni franklar imperiyasining zaiflashuviga olib kelgan omillar bilan taqoslash.

## VI. Dars yakunini chiqarish.

O'qituvchi darsda nimalarga erishilganligini ta'kidlaydi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchi va guruhlar rag'batlantiriladi.

## VII. Uyga vazifa.

Mavzu yuzasidan berilgan savollarga qisqacha konspekt tuzish. Kelgusi mavzu mazmuni bilan tanishib kelish.

## 8- dars. Slavyan davlatlarining tashkil topishi

### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga slavyan xalqlari, slavyan davlatlarining tashkil topishi haqida bilim berish. Bugungi Chexiya, Polsha va Bolgariya davlatlari bilan O'zbekistonning aloqlari to'g'risida qisqacha ma'lumot berish. O'quvchilarni baynalminallik va xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalash.

### *Darsning jahozi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. „VI – VIII asrlarda janubiy slavyanlar“ xaritasi.
3. „VI – X asrlarda Bolgariya“ xaritasi.
4. Dunyo siyosiy xaritasi.
5. Doska, bo'r.

Bu darsda o'tilgan dars so'ralmaydi, shu tufayli o'tilgan dars mavzusi mazmuni yuzasidan tarqatma material yoki test topshirig'i tayyorlanmaydi.

„VI – XI asrlarda Vizantiya imperiyasi“ mavzusi bo'yicha o'quvchilar olgan bilim darajasi keyingi dars (Kiyev Rus davlati)da aniqlanadi.

### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- slavyanlar;
- janubiy Chexiya davlati;
- veche;
- Polsha davlati;
- bogomillik.
- g'arbiy slavyanlar;
- sharqiyl slavyanlar;
- Chexiya davlati;
- Bolgariya davlati;

### DARS REJASI

| T.r. | Darsning bosqichlari                           | Vaqt |
|------|--|------|
| I.   | Tashkiliy qism.                                | 2    |
| II.  | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.     | 10   |
| III. | O'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish. | 17   |
| IV.  | «Tarixiy shaxslar xizmatini aniqlash» o'yini.  | 8    |
| V.   | Darsni yakunlash.                              | 3    |
| VI.  | Uyga vazifa.                                   | 2    |

## I. Tashkiliy qism.

O'quvchilarni darsga tayyorlash. Ularga bugungi Polsha, Chexiya va Bolgariya davlatlari, ularning O'zbekiston bilan aloqalari haqida ma'lumot berish.

## II. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.

O'qituvchi quyidagi reja asosida bu vazifani bajaradi:

1. Slavyan xalqlari.
2. Chexiya davlatining tashkil topishi.
3. Polsha davlatining tashkil topishi.
4. Bolgariya podsholigi.
5. Bogomillik.

## III. O'quvchilarni matn ustida ishslashga o'rnatish.

O'qituvchi matn ustida ishslash nima ekanligini, uning tarkibiy qismlarini tushuntiradi. O'quvchilarni 5 guruhga bo'lib, ularning har biri oldiga alohida vazifa qo'yadi.

### *1- guruhga topshiriq.*

Matnni o'qish va tushunarsiz so'zlarni topish.

### *2- guruhga topshiriq.*

Matndan eng muhim voqealar va sanalarni ajratish, ularga izoh berish, faktlarni taqqoslash.

### *3- guruhga topshiriq.*

Eng muhim sana va hodisalar jadvalini tuzish.

### *4- guruhga topshiriq.*

Matn mundarijasini tuzish.

### *5- guruhga topshiriq.*

Matn rejasini tuzish.

### *1- guruhning javobi.*

1. Markaziy va Sharqiy Yevropa. 2. Veche. 3. Vassal. 4. Knyaz. 5. Katolik mazhabi. 6. Unvon. 7. Bolqon yarim oroli. 8. Bogomillik.

*O'qituvchi bu atamalardan qaysi biriga „Atamalar mazmunini bilib oling“ bo'limida izoh berilganligiga o'quvchilar e'tiborini qaratadi. Markaziy va Sharqiy Yevropa, Bolqon yarim orolini „Dunyo siyosiy xaritasi“ dan ko'rsatadi. „Atamalar“ bo'limiga kirmagan so'zlarga izoh beradi.*

### *2- guruhning javobi.*

VII asr; IX asr; X asr. 883 – 927- yy., 992 – 1025- yy., 1018- yil.

VII asr – a) slavyan xalqlari uch qismga bo'lingan;

b) Bolgariya podsholigi tashkil topgan.

IX asr – a) boshqa slavyan xalqlarida ham davlat tashkil topishi jarayoni boshlandi.

b) Bolgariya podsholigi juda katta davlatga aylandi.

X asr – Chexiya va Polsha davlatlari tashkil topdi.

883 – 927- yillar – Buyuk Simon podsholigi davri.

992 – 1025- yillar – Polshada Boleslav I hukmronligi yillari.

1018- yil – Vizantiya imperiyasi Bolgariyani bo'ysundirdi.

**Faktlarni taqqoslash xulosasi:** *Chexiya, Polsha va Bolgariya qirollik edi.*

*Bolalar topshiriqni mana shunday izchillikda bajarishga o'rghanishlari kerak.*

| Tarixiy sanalar                     | Ro'y bergan voqealar  | Mashhur hukmdorlar           |
|-------------------------------------|---|------------------------------|
| VII asr                             | 1. Slavyanlar uch guruhga bo'linib ketgan.<br>2. Bolgariya davlati vujudga keldi. |                              |
| IX asr 883 – 927- yy.               | Bolgariya juda katta davlatga aylandi.  | Buyuk Simon.                 |
| X asr                               | Chexiya va Polsha davlatlari tashkil topdi.                                       | Bratislav II.<br>Boleslav I. |
| 992 – 1025- yy.<br>1061 – 1092- yy. | Polshada Boleslav I hukmronligi.<br>Chexiyada Bratislav II hukmronligi.           |                              |
| 1018- yil.                          | Vizantiya Bolgariyani bosib oldi.   |                              |

### 3- guruhning javobi.

### 4- guruhning javobi.

*Mavzu:* Slavyan davlatlarining tashkil topishi.

1- §. Slavyan xalqlari.

2- §. Bolgariya davlati.

3- §. Chexiya davlati.

4- §. Polsha davlati.

5- §. Bogomillik harakati.

6- §. Vizantiyaning Bolgariyani bosib olishi.

*Bolalarning vazifani ana shunday tartibda bajarishiga erishish muhim.*

### **5-guruhnинг жавоби.**

„Slavyan xalqlari haqida“ matnining rejasi.

1. Slavyanlar yashagan geografik hududlar.
2. G‘arbiy slavyanlar.
3. Janubiy slavyanlar.
4. Sharqiy slavyanlar.

5. IX asrgacha sharqiy slavyanlar hayoti:

*O‘quvchilar javoblari umumlashtiriladi, kamchiliklari to‘g‘rilanadi va baholanadi.*

### **IV. „Tarixiy shaxslar xizmatini aniqlash“ o‘yini.**

1. Odoakr – 476- y. 2. Pipin – 751- y. 3. Buyuk Karl – 772 – 804- yy. 4. Lotar, Lyudovik, Karl – 843- yil. 5. Genrix I – 919- yil. 6. Ekbert – 829- y. 7. Grigoriy VII – 1076- y. 8. Genrix V – 1122- y.

*O‘quvchilar javobi quyidagicha bo‘lishi kerak:*

1. 476- yilda Odoakr boshliq germanlar Rimni ishg‘ol qildi.
2. Pipin 751- yilda Franklar davlatida karolinglar sulolasiga asos soldi.
3. Buyuk Karl sakslarni bo‘ysundirish uchun 32 yil kurash olib bordi.
4. Buyuk Karlning uch nabirasi 843-yilda Verden shartnomasini imzoladi. Unga ko‘ra imperiya uch davlatga bo‘lindi.
5. Genrix I 919- yilda Germaniyada saksoniyaliklar sulolasini hukmronligiga asos soldi.
6. Ekbert 829- yilda Angliyani yagona davlatga birlashtirdi.
7. Rim Papasi Grigoriy VII 1076- yilda Germaniya hukmdori Genrix IVni taxtdan tushirilgan deb e’lon qildi.
8. Germaniya hukmdori Genrix V 1122- yilda Vorms konkordatini imzoladi.

Albatta, bu topshiriqni bajarish oson emas. Shu tufayli o‘qituvchi bunday o‘yinni tashkil etishdan bir necha kun avval o‘quvchilarga uyda o‘tilgan mavzular yuzasidan tarixiy shaxslar va ular bilan bog‘liq sanalarga oid ma‘lumotlarni takrorlab kelishni tayinlashi lozim. Ayni paytda dastlabki bosqichlarda darslikdan foydalanishga ruxsat etiladi.

### **V. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimalarga erishilganligi ta’kidlanadi. Faol o‘quvchilar rag‘batlanтирлади.

### **VI. Uyga vazifa.**

– „VI – XI asrlarda Vizantiya imperiyasi“ mavzusini takrorlab kelish.

## 9- dars. Kiyev Rus davlati

### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga Kiyev Rus davlati tashkil topishi haqida, Rusdagi ijtimoiy munosabatlar, Rusni mustahkamlash yo'lida olib borilgan kurash haqida bilim berish. O'quvchilarni baynalminallik, Vatanni qo'riqlash, mardlik ruhida tarbiyalash.

### *Darsning jihozlari.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Doska, bo'r, flamaster, vatman qog'oz.

### *Dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- |                           |                                      |
|---------------------------|--------------------------------------|
| – knyazlik;               | – knyaz;                             |
| – Novgorod knyazligi;     | – Kiyev Rus davlati;                 |
| – pechenglар, qipchoqlar; | – votchina;                          |
| – „Russkaya Pravda“;      | – xristian dinining qabul qilinishi. |

### DARS REJASI

| T.r. | Darsning bosqichlari                           | Vaqt |
|------|--|------|
| I.   | Tashkiliy qism.                                | 2    |
| II.  | Bir dars avval o'rganilgan mavzuni takrorlash. | 8    |
| III. | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.     | 12   |
| IV.  | Guruhlarda ishslash.                           | 12   |
| V.   | O'yin-musobaqa o'tkazish.                      | 6    |
| VI.  | Dars yakunini chiqarish.                       | 3    |
| VII. | Uyga vazifa.                                   | 2    |

### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni jahonda ro'y bergan eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

### **II. Bir dars avval o'rganilgan mavzuni takrorlash.**

Bu vazifa tarqatma material asosida amalga oshiriladi. Shu tufayli kartochkalarda quyidagi savol va topshiriqlar o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq:

*1- kartochka:* 395- yilda Rim imperiyasida qanday voqeal yuz bergen?

2- *kartochka*: 395- yilda Rim imperiyasida yuz bergan voqeaning sabablari.

3- *kartochka*: Vizantiya imperiyasi tarkibiga kirgan o'lkalarni ayting.

4- *kartochka*: Vizantiya imperiyasi xo'jaligining asosiy turlarini qayd eting.

5- *kartochka*: Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya)ning G'arbiy Rim imperiyasidan salkam 1000 yil uzoq yashaganligining sabablarini aniqlang.

6- *kartochka*: Imperator Yustinian hukmronligi davrida Osiyoning Oltoy va Janubiy Sibir qismida qanday tarixiy voqeа yuz bergan edi?

7- *kartochka*: Foma Slavyan boshchiligidagi qo'zg'olon qanday qo'zg'olon edi? Qo'zg'olon qachon va qayerda bo'lib o'tgan?

8- *kartochka*: Vizantiya poytaxti Konstantinopol shahri kimning nomiga qo'yilgan?

9- *kartochka*: 1071- yil Vizantiya tarixida qanday voqeа yuz bergan edi?

*O'quvchilarning javoblari xulosalanadi. Faol o'quvchilar esa rag'batlaniriladi.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

Dars mavzusi mazmunini yoritishda hikoya-suhbat uslubidan foydalilanildi.

O'qituvchi sharqiy slavyan yerlarining kichik-kichik knyazliklarga bo'linib ketganligi, ulardan biri Novgorod knyazligi ekanligi, shu knyazlik sharqiy slavyanlar yerlarini yagona davlatga birlashtirganligi va bu davlat „Kiyev Rus davlati“ deb atalganligi, Novgorod knyazı Oleg bu davlatning asoschisi ekanligi, knyazlarning Rusni mustahkamlash yo'lidagi kurashlari, Rusning xristian dinini qabul qilishi va uning ahamiyati kabi masalalar haqida qisqacha hikoya qilib beradi.

### **IV. Guruhlarda ishlash.**

O'quvchilar guruhlarga bo'linadi va har bir guruh oldiga quyidagi topshiriqlar qo'yiladi:

#### **1- *guruhgа topshiriq*.**

Kiyev Rus davlati qanday tashkil topganligini aniqlang.

#### **2- *guruhgа topshiriq*.**

*Eslang:* Kiyev Rus davlati tashkil topgan 882- yilda Mova-rounnahrda qaysi sulola hukmronlik qilardi?

**3- *guruhgə topshiriq.***

Kiyev Rus davlatiga xavf solgan asosiy tashqi kuchlarni aniqlang.

**4- *guruhgə topshiriq.***

Kiyev Rusi knyazlari davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qanday ishlarni amalga oshirgan?

**5- *guruhgə topshiriq.***

Kiyev Rus davlati ijtimoiy hayotining o'ziga xos belgilarini aniqlang.

*O'qituvchi har bir guruhgə berilgan topshiriq qanday bajarilganligini aniqlaydi. Topshiriqnı to'liq bajarganlar rag'batlan-tililadi.*

**V. O'yin-musobaqa („Kim tez topadi?“ o'yinini) o'tkazish.**

Darsning bu qismida o'quvchi xotirasidagi bilimlariga tayanib, vazifani yozma ravishda bajaradi. Asosiy maqsad – o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, ularda vazifani tez va aniq bajara olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'yin-musobaqa o'tkazilishidan avval o'quvchilar uch jamoaga bo'linadilar.

Ullarning har biri o'ziga nom tanlaydi. So'ng o'qituvchi oldindan tayyorlab kelgan va konvertlarga solingan topshiriqlarni jamoalarga tarqatadi.

Har bir topshiriqda uchtadan savol bo'ladi.

**1- *topshiriq.***

1. ...lar sharqiy slavyanlarni tashkil etgan.

2. Novgorod, Oleg va 882- yil yozuvlari nimalarni anglatadi?

3. Kiyev Rusi nima?

**2- *topshiriq.***

1. „Pecheneglar“, „qipchoqlar“ atamalari nimani anglatadi?

2. „Qizil quyosh“ atamasi qay tariqa paydo bo'lган?

3. „Bu hodisa Rusni Yevropaning boshqa davlatlari bilan yaqinlashtirdi“ gapidagi „bu hodisa“ jumlasida qanday hodisa nazarda tutilmoxda?

**3- *topshiriq.***

1. „Vladimir“, „998- yil“, „xristian dini“. Bu yozuvlar o'rtasidagi aloqadorlikka izoh yozing.

2. „Monarx“, „votchina“, „boyar“, „zakup“ atamalari birqalikda nimani anglatadi?

3. 1072- yilda Rusda qabul qilingan qonun ... deb ataladi.

*Qaysi guruh topshiriqni oldin bajarganligiga qarab javob varaqalari yig'ib olinadi. O'qituvchi ularni izohlaydi va baholaydi. O'yin-musobaqa g'olibi bo'lgan jamoa rag'batlantiriladi.*

### **VI. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimalarga erishilganligi qayd etiladi. Faol o'quvchilar alohida ta'kidlanadi.

### **VII. Uyga vazifa.**

Darslikdagi savollar asosida mavzuni takrorlab kelish. Sharqiy slavyanlarning bugungi vatanlari – Rossiya, Ukraina va Belorus haqida qisqacha ma'lumot to'plab kelish.

## **10- dars. V – XI asrlarda Yevropa xalqlari madaniyati**

### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga Yevropa xalqlari madaniyati, uning sohalari, Vizantiya bu davrda Yevropa madaniyatining markazi bo'lganligi haqida bilim berish. O'quvchilarning boshqa xalqlar mada niyatiga hurmat bilan qarash hislarini shakllantirish. Ma'naviy-estetik ruhda tarbiyalash.

### *Darsning jihizi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. O'rta asrlar tarixidan albom.
4. Madaniyat yodgorliklaridan namunalar.
5. Doska, bo'r.

### *Test topshiriqlari.*

Test topshiriqlari o'tilgan dars bo'yicha o'quvchilar bilimini aniqlash maqsadida tuziladi.

### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- |                               |                         |
|-------------------------------|-------------------------|
| – madaniyat;                  | – Vizantiya madaniyati; |
| – oliv o'quv yurtlari;        | – „Grek olovi“;         |
| – Avliyo Sofiya ibodatxonasi. |                         |

## DARS REJASI

| <i>T.r.</i> | <i>Darsning bosqichlari</i>                 | <i>Vaqt</i> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism                              | 2           |
| II.         | O'tilgan dars mavzusi yuzasidan takrorlash. | 10          |
| III.        | O'qituvchining sinf bilan ishlashi.         | 18          |
| IV.         | Guruhi bilan ishlash.                       | 9           |
| V.          | Darsni yakunlash.                           | 4           |
| VI.         | Uyga vazifa.                                | 2           |

### **I.Tashkiliy qism.**

O'quvchilarни darsga jalg etish. Ularni dunyoda ro'y bergan eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

#### *Darsning mazmuni.*

1. Vizantiya – Yevropa madaniyati markazi.
2. Me'morchilik.
3. Vizantiya madaniyatining slavyan xalqlari madaniyatiga ko'r-satgan ta'siri.
4. G'arbiy Yevropada madaniyat.
5. Monastirlarning madaniyatda tutgan o'rni.

### **II. O'tilgan dars mavzusi yuzasidan takrorlash.**

#### *O'tilgan mavzu: Kiyev Rus davlati.*

O'quvchilar bilimi quyidagi test topshiriqlari orqali aniqlanadi:

#### *1. Kiyev Rus davlatini tashkil etgan tarixiy shaxs.*

- A. Knyaz Vladimir.
- B. Knyaz Svyatoslav.
- C. Knyaz Oleg.
- D. Knyaz Nevskiy.
- E. Knyaz Igor.

#### *2. Kiyev Rus davlati tashkil etilgan sanani aniqlang.*

- A. 992- yil.
- B. 998- yil.
- C. 882- yil.
- D. 800- yil.
- E. 982- yil.

#### *3. Kiyev Rus davlati qaysi qardosh xalqlarning umumiy davlati bo'lgan?*

- A. Chex, xorvat, polyak.
- B. Bolgar, polyak, chex.
- D. Serb, chex, slovak.
- E. Rus, ukrain, belorus.
- F. Bolgar, rus, belorus.

**4. Kiyev Rus davlati knyazi Svyatoslavning Vizantiyaga qarshi harbiy yurishi sabablari.**

- A. Vizantiyaning turli ko‘chmanchi qabilalarni Rusga qarshi gij-gijlashi.
- B. O‘z qudratini dunyoga namoyish etish.
- D. Vizantiyaning Kiyev Rus davlatini Qora dengizga chiqarmaslikka uringanligi.
- E. Vizantiyaning boy o‘lkalarni bosib olishi.
- F. A va D.

**5. Knyaz Vladimir qanday xizmatlari evaziga Kiyevning Buyuk knyazi unvoniga sazovor bo‘lgan?**

- A. Vizantiya qo‘sishinini tor-mor etgani uchun.
- B. Volga Bulg‘oriyasini Rusga qo’shib olganligi uchun.
- D. Xazor podsholigini tugatganligi uchun.
- E. Barcha sharqiy slavyanlarni Kiyev Rus davlatiga birlashtirgani uchun.
- F. Xristian dinini qabul qilganligi uchun.

**6. Xristian dini Rus davlatida qachon joriy etilgan edi?**

- A. 998- yil.
- B. 899- yil.
- D. 989- yil.
- E. 972- yil.
- F. 882- yil.

**7. Kiyev Rus davlatining so‘nggi Buyuk knyazini aniqlang.**

- A. Vladimir Qizil Quyosh.
- B. Yaroslav Mudriy.
- D. Vladimir Monamax.
- E. Oleg Svyatoslavich.
- F. Vladimir Svyatoslavich.

**8. Monarx kim edi?**

- A. Ruhoniy.
- B. Meros mulk.
- D. Yer-mulk.

E. In'om etilgan yer-mulk.

F. Davlatning yakka oliv hukmdori.

### **9. Votchina nima edi?**

A. Knyaz tomonidan in'om etilgan yer.

B. Feodal tabaqalarning meros mulki.

D. Bosib olingan yerlar.

E. Davlatning viloyatlarga bo'lib boshqarilishi.

F. Knyaz yorlig'i.

### **10. „Russkaya Pravda“ nima edi?**

A. Dastlabki gazeta.

B. Kiyev Rus davlati qonuni.

D. Cherkov hujati.

E. Birinchi bor nashr etilgan kitobning nomi.

F. Harbiy xizmat qonun-qoidalari.

### **III. O'qituvchining sinf bilan ishlashi.**

Mavzu matni o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi. So'ng o'qituvchi o'quvchilar yangi dars mavzusini qanchalik o'zlashtirib olganliklarini aniqlash maqsadida savol-javoblar o'tkazadi.

#### **O'quvchilarga beriladigan savollar.**

1. Nega Vizantiya madaniyati Yevropaning boshqa davlatlari madaniyatidan ustun bo'lgan?
2. Vizantiya shaharlarida mavjud bo'lgan uch turdag'i maktablar qanday nomlangan?
3. Yevropada birinchi oliy o'quv yurti qaysi shaharda ochilgan?
4. „Grek olovi“ nima edi?
5. Vizantiya olimlari tomonidan yozilgan tarixiy kitob nomlarini qayd eting.
6. Avliyo Sofiya ibodatxonasi haqida nimalarни bilib oldingiz?
7. Vizantiya madaniyatining slavyan xalqlariga ko'rsatgan katta ta'siriga misollar keltiring.
8. Nega G'arbiy Yevropa mamlakatlarida madaniyat bu davrda sust rivojlangan edi?
9. Monastirlar madaniy hayotda qanday o'rinn tutgan?

### **IV. Guruhlarda ishlash.**

O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi va ularning har biriga quyidagi topshiriqlar beriladi:

#### **1- guruhg'a topshiriq.**

Vizantiya madaniyatiga oid ma'lumot ro'yxatini tuzish.

**2- *guruhgə topshiriq.***

G'arbiy Yevropa madaniyatiga oid ma'lumotlar ro'yxatini tuzish.

**3- *guruhgə topshiriq.***

Vizantiya va G'arbiy Yevropa madaniyati haqidagi ma'lumotlarni taqqoslash.

**4- *guruhgə topshiriq.***

V – XI asrlar Yevropa madaniyatini shu davr yurtimiz madaniyati bilan taqqoslash.

*Topshiriqlarni bajarish uchun berilgan vaqt tugagach, guruh a'zolaridan biri axborot beradi. Boshqa guruh a'zolari 1-guruh javoblarini to'ldiradi yoki baho beradi. Qolganlarga ham shu tartib qo'llanadi.*

**V. Darsni yakunlash.**

Faol o'quvchilar, topshiriqni yaxshi bajargan guruh rag'batlantiriladi.

O'qituvchi eng yaxshi bajarilgan topshiriqni qayd etadi. Guruh topshiriqning bajarilish sifatiga qarab baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.**

Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

V – XI asrlar Yevropa madaniyatini shu davr yurtimiz madaniyati bilan taqqoslash asosida xulosalar yozib kelish.

**O'qituvchi uchun qo'shimcha ma'lumot.**

*IX va X asr boshlariga oid „Grammatika“ darsligidan parcha.*

Harf nima? – Tarix posboni.

So'z nima? – Jon xoini.

So'zni nima yaratadi? – Til.

Til nima? – Havo qamchisi.

Havo nima? – Baxtlilar uchun xursandchilik, baxtsizlar uchun g'am-alam.

## **II bob. VI – XI asrlarda Osiyo xalqlari**

### **11- dars. Islom dinining vujudga kelishi**

***Darsning maqsadi.***

O'quvchilarga islom dini, uning vujudga kelish shart-sharoitlari, islom dinining asoslari, Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarlik faoliyati, arab qabilalarining yagona davlatga birlashtirilishi haqida bilim berish. O'quvchilarning islom va boshqa dinlarga hurmat bilan qarash hislarini rivojlantirish. Imon-e'tiqodli, vatanparvar qilib tarbiyalash.

### *Darsning jihatasi.*

1. „Jahon tarix“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Muqaddas Makka va Madina shaharlari rasmlari tushirilgan plakatlar.
4. Doska, bo‘r.

### *Tarqatma materiallar.*

O‘tilgan dars mavzusi bo‘yicha savollar yozilgan kartochkalar.

### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- din; – Arabiston yarim oroli;
- johiliya davri. Islom dini. Qur’oni Karim;
- Umma. Payg‘ambar. Vahiy. Laylat ul-qadr. Islom dini asoslari.

## DARS REJASI

| <i>T.r.</i> | <i>Darsning bosqichlari</i>                 | <i>Vaqt</i> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qismi.                            | 2           |
| II.         | O‘tilgan dars mavzusi yuzasidan takrorlash. | 6           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.  | 12          |
| IV.         | Guruhlarda ishlash.                         | 15          |
| V.          | Zukkolar („Tortinchisi ortiqcha“) o‘yini.   | 6           |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.                    | 2           |
| VII.        | Uyga vazifa.                                | 2           |

### **I. Tashkiliy qismi.**

O‘quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro‘y bergan eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

### **II. O‘tilgan dars mavzusi yuzasidan takrorlash.**

Dastlab V – XI asrlar Yevropa madaniyatini shu davr yurtimiz madaniyati bilan taqqoslash asosida xulosa yozib kelish vazifasi qanday bajarilganligi aniqlanadi, so‘ng o‘tilgan dars mavzusi mazmuni yuzasidan tayyorlangan quyidagi kartochkalar tarqatiladi:

1- *kartochka*: Vizantiya nega Yevropa madaniyati markaziga aylangan edi?

2- *kartochka*: Konstantinopol shahrida ochilgan o‘quv yurtlarining nomlarini qayd eting.

*3- kartochka:* Vizantiya madaniyati Yevropaning boshqa xalqlari madaniyatiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

*4- kartochka:* Nega G'arbiy Yevropa madaniy hayotida asosan monastirlar katta o'rinn tutgan edi?

*5- kartochka:* Yevropa me'morchiligining yorqin namunalarini qayd eting.

*O'quvchilarning javoblari xulosalanadi.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

Dars rejasি doskaga yoziladi.

1. Arab qabilalari hayoti.

2. Islom dini nima?

3. Islom dinining vujudga kelishi shart-sharoitlari.

4. Islom dinining 5 asosi.

5. Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarlik faoliyati.

6. Arab qabilalarining yagona davlatga birlashtirilishi.

*O'qituvchi dars mavzusi mazmunini yuqoridaagi reja asosida tushuntirib beradi.*

### **IV. Guruhlarda ishslash.**

Bu vazifa guruhlar oldiga qator tayanch tushuncha va atamalarni qo'yish hamda ular asosida matn tuzish usulida bajariladi.

#### ***1- guruhga topshiriq.***

Arabiston yarim oroli. Arab qabilalari. Cho'l va sahrolar. Tuya.

#### ***2- guruhga topshiriq.***

Qabilalararo urushlar. Xun. Go'dak qizlar. Sudxo'rlik. Johiliya davri.

#### ***3- guruhga topshiriq.***

VII asr. Muhammad (s.a.v.). Payg'ambar. Vahiy. Laylat ul-qadr. Islom dini.

#### ***4- guruhga topshiriq.***

Yagona davlat. Tashqi tajovuz. Jahon maydoniga chiqish. Yagona xudo. Alloh. Johiliya.

#### ***5- guruhga topshiriq.***

Din. Besh asos. Ka'ba. Kalimai shahodat. Namoz. Ro'za. Zakot. Haj.

#### ***6- guruhga topshiriq.***

Qur'on. Makka. Madina. Umma. 630- yil. 632- yil.

#### ***7- guruhga topshiriq.***

Musulmon. Ilohiy qonun. Farishta. Hukmron din. Ro'yobga chiqarildi.

Ajratilgan vaqt tugagach har bir guruhning javobi eshitiladi.  
 Bir guruh javobini boshqa guruhlar to‘ldirishlari mumkin.  
 O‘qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan dastlabki uch guruhniga rag‘batlantiradi.

#### V. „To‘rtinchisi ortiqcha“ o‘yini.

O‘qituvchi har bir partaga 4 tadan tushuncha, atama, sana, ism yozilgan quyidagi kartochkalarni tarqatadi.

Bu 4 ta tushuncha, atama, sana, ismlardan bittasi shu topshiriq mazmuniga bog‘liq bo‘lmaydi. O‘quvchilar ana shu ortiqcha so‘zni topishlari kerak: topshiriq aynan shu bugun o‘tilgan dars mavzusi mazmuniga mos bo‘lishi shart.

- 1- *kartochka*: Arabiston yarim oroli. Sahroyi Kabir. Tuya. Xun.
- 2- *kartochka*: Payg‘ambar. Go‘dak qizlar. Farishta. Vahiy.
- 3- *kartochka*: Din. Xun. Sudxo‘rlik. Johiliya.
- 4- *kartochka*: Ramazon oyi. Zakot. Vahiy. Laylat ul-qadr.
- 5- *kartochka*: Haj. Madina. Payg‘ambar. Ka‘ba.
- 6- *kartochka*: Din. Islom. VII asr. Namoz.
- 7- *kartochka*: 610- yil, 23 yil. Ka‘ba. Payg‘ambar.
- 8- *kartochka*: Makka. Madina. Umma. Zakot.
- 9- *kartochka*: 630+ yil. Laylat ul-qadr. Makka. Muhammad (s.a.v.) hokimiyyati.
- 10- *kartochka*: Kalimai shahodat. Namoz. Ro‘za. Laylat ul-qadr.
- 11- *kartochka*: Alloh. Qur‘oni Karim. Haj. Farishta.
- 12- *kartochka*: Haj. Zakot. Islom. Ka‘ba.
- 13- *kartochka*: Shukronalik ramzi. Ehson. Ziyorat qilish. Uzlat.
- 14- *kartochka*: Islom. Musulmon. Arabiston. Alloh.
- 15- *kartochka*: Ka‘ba. Madina. Alloh. Makka.
- 16- *kartochka*: Qui‘on. Alloh. Sura. Vahiy.
- 17- *kartochka*: Qiroat. Qur‘on. Sura. laylat ul-qadr.
- 18- *kartochka*: Quyosh chiqishi va botishi. Yemoq. Ichmoq. Namoz o‘qimoq.
- 19- *kartochka*: Ko‘p xudolik. Yakka xudolik. Alloh. 23 yil.
- 20- *kartochka*: Diniy kitob. Vahiy. Payg‘ambar. Alloh.

*O‘qituvchi har bir topshiriq qanday bajarilganligini o‘qish orqali aniqlaydi. Topshiriqni to‘g‘ri bajarganlar rag‘batlantiriladi.*

#### VI. Darsni yakunlash.

## **VI. Darsni yakunlash.**

## **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu yuzasidan savollarga javob topib kelish. Masjid, muazzin, azon, xatib, mutavalli, juma namozi atamalarining mazmunini bilib kelish.

### **QO'SHIMCHA MA'LUMOT**

*Muhammad (s.a.v.) tarjimai holidan.*


Muhammad (s.a.v.) Ahmad ibn Abdulloh (570/571 – 632) – islom dini payg‘ambari va musulmonlarning birinchi jamoasi asoschisi.

Musulmonlar e’tiqodiga ko‘ra, Allohning oxirgi payg‘ambari va uning elchisi. Ul zot orqali odamlarga Qur'on nozil qilingan. Islom ta’limotiga ko‘ra, Muhammad nomlarini aytgan yoki eshitgan kishi „sallallohu alayhi vasallam“ (s.a.v.) – „unga Allohning rahmat va salomi bo‘lsin“ yoki „alayhissalom“ – „unga salomlar bo‘lsin“ deb salavot aytib qo‘yishi vojib hisoblanadi. Quraysh qabilasining hoshimiylar urug‘iga mansub bo‘lib, Makkada uncha boy bo‘limgan, lekin Makka zodagonlariga yaqin oilada tug‘ilganlar. Muhammad (s.a.v.) go‘dakliklaridayoq yetim qolganlar; otalari Abdulloh – Muhammad (s.a.v.) tug‘ilmaslaridan avval, olti yoshliklarida esa onalari – Omina vafot etgan. So‘ng Muhammad (s.a.v.)ni o‘z tarbiyasiga olgan bobolari Abdul Muttalib ham ko‘p o‘tmay olamdan o‘tadi. Yetim bolani tarbiya qilishni amakilari Abu Tolib o‘z zimmasiga oladi.

12 yoshlarida Muhammad (s.a.v.) bir muddat Abu Tolibning podasini boqadilar, keyin tijorat ishlariiga jalb qilinganlar. 21 yoshlarida Abu Tolib Muhammad (s.a.v.) ni Huvaylid ibn As‘adning qizi, badavlat beva ayol Xadicha xonadoniga dastyorlikka beradi. Xadichaning savdo ishlari bilan shug‘ulangan Muhammad (s.a.v.) Suriyaga safar qilganlar, xususan, Halab va Damashq shaharlariga boradilar. Muhammad (s.a.v.) 595- yil Xadichaga uylanganlar. Muhammad (s.a.v.) dan Xadicha uch o‘g‘il (Qosim, Tohir, Tayyib) va to‘rt qiz (Ruqiya, Zaynab, Ummu Kulsum, Fotima) ko‘rgan. O‘g‘illari go‘dakligidayoq vafot etgan. Qizlaridan Fotimagina Muhammad (s.a.v.) avlodlarini davom ettirgan. 622- yildan boshlab Muhammad (s.a.v.) jamoating oddiy da‘vatchisidan siyosi yetakchisiga aylanganlar. Mak-

kadan Muhammad (s.a.v.) bilan birga ko'chib kelgan musulmon-muhojirlar va madinalik musulmon ansorlar Muhammad (s.a.v.)-ning asosiy tayanchlari edilar.

Shanba o'rniiga musulmonlar uchun jamoa bo'lib namoz o'qiladigan juma kuni belgilanadi. Ka'ba muqaddas haj ziyoratgohi deb e'lon qilinadi. U islam dinining asosiy ziyoratgohiga aylandi. Ibodat qiluvchilar o'sha taraf (Qibla)ga qarab ibodat qiladigan bo'ldilar.



## 12- dars. Arab xalifaligi va uning istilochilik siyosati

### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga Arab xalifaligi, xalifalar va istilochilik urushlari, xalifalikda hokimiyat uchun kurash va uning oqibatlari haqida bilim berish. O'quvchilarda istilochilikka qarshi kurash, Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lganlar ruhiga hurmat hissini shaklantirish.

### *Darsning jihizi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. „Arab xalifaligining tashkil topishi“ xaritasi.
3. Dunyo siyosiy xaritasi.

### **Test topshiriqlari.**

O'tilgan dars bo'yicha o'quvchilar bilimini aniqlash maqsadida tuziladi.

#### **Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- xalifa;
- xalifalik;
- istilochilik urushlari;
- jihad;
- umaviylar;
- abbosiylar;
- soliq turlari;
- xalifalikning parchalanishi.

### **DARS REJASI**

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>             | <b>Vaqt</b> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                         | 2           |
| II.         | O'tilgan mavzu yuzasidan takrorlash.    | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini o'rganish. | 10          |
| IV.         | Aqliy hujum.                            | 8           |
| V.          | Guruhlarda ishlash.                     | 12          |
| VI.         | Dars yakunlarini chiqarish.             | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                            | 2           |

#### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchiłarni darsga jalb etish. Ularga dunyoda ro'y bergan eng muhim yangiliklar haqida ma'lumot berish.

#### **II. O'tilgan mavzu yuzasidan takrorlash.**

Bu ish o'quvchilarga quyidagi test topshiriqlarini berish orqali bajariladi:

##### **1. Johiliya davri nima?**

A. Arabistonda islomgacha bo'lgan davr.

B. Arabistonda qonunsizlik, axloqsizlik, tartibsizlik hukm surgan davr.

D. Ko'p xudolilik davr.

E. Muqaddas urushlar davr.

##### **2. Islom dini nima?**

A. Arabistonda vujudga kelgan din.

B. Muhammad (s.a.v.) yaratgan din.

- D. Alloh yagona, degan e'tiqod bilan unga bo'ysunmoqlikdir.  
 E. Yangi jahon dini.

**3. Islom dini Arabistonda qay tariqa yoyildi?**

- A. Vahiy orqali.  
 B. Muhammad (s.a.v.) targ'iboti orqali.  
 D. Xalifalar targ'iboti orqali.  
 E. Urushlar orqali.

**4. Muhammad (s.a.v.) kim?**

- A. Islom dinining yaratuvchisi.  
 B. Qur'oni yaratgan alloma.  
 D. Payg'ambar.  
 E. Islom dini payg'ambari.

**5. Qanday omillar islom dinining vujudga kelishiga sabab bo'lgan?**

- A. Barcha arab qabilalarini yagona davlatga birlashtirish zarurati.  
 B. Yakka xudolik dinining ko'p xudolik dinidan afzalligi.  
 D. Jamiyatdagi qonunsizlik, axloqsizlik, tartibsizlikka chek qo'yish zarurati.  
 E. Muhammad (s.a.v.)ning xohish-istagi.  
 F. A va D.

**6. Islom dinining besh asosi to'g'ri ketma-ketlikda yozilgan qatorni aniqlang.**

- A. Namoz. Kalimai shahodat. Ro'za. Haj. Zakot.  
 B. Kalimai shahodat. Zakot. Ro'za. Namoz. Haj.  
 D. Kalimai shahodat. Namoz. Haj. Zakot. Ro'za.  
 E. Kalimai shahodat. Namoz. Ro'za. Zakot. Haj.

**7. Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarlik faoliyati yillari.**

- A. 570 – 630- yillar.  
 B. 622 – 632- yillar.  
 D. 610 – 632- yillar.  
 E. 620 – 633- yillar.  
 F. 610 – 622- yillar.

**8. Arab qabilalari qachon yagona davlatga birlashtirildi?**

- A. 630- yilda.  
 B. 632- yilda.  
 D. 622- yilda.

E. 634- yilda.

F. 661- yilda.

### **9. Umma nima?**

A. Musulmonlar jamoasi.

B. Madina shahrida tuzilgan musulmonlar jamoasi.

D. Makka shahrida tuzilgan musulmonlar jamoasi.

E. Vahiy kela boshlagan birinchi kun.

### **10. Laylat ul-qadr nima?**

A. Qur'on yozib tugatilgan kun.

B. Qur'on suralari Muhammad(s.a.v.)ga yuborilishi tugagan kun.

D. Qur'on suralari Muhammad (s.a.v.)ga vahiy qilina boshlangan birinchi kun.

E. Arablar yagona davlatga birlashtirilgan kun.

*Test topshiriqlarini to'g'ri bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi.*

*Javoblar aniqlangach, o'qituvchi o'tilgan dars mavzusi bo'yicha o'quvchilar o'rgangan bilimlarni xulosalaydi.*

### **III. Yangi mavzu mazmunini o'rghanish.**

*Bu vazifa o'quvchilarining darslik matni ustida mustaqil ishlashlari orqali amalga oshiriladi.*

*O'quvchilarga matndan savollarga topgan javoblarini o'z so'zlari bilan (darslikdan ko'chirmasdan) yozishlari lozimligi uqtiriladi.*

*O'qituvchi mavzu mazmuni yuzasidan quyidagi savollarni doskaga yozib qo'yadi:*

1. Arab xalifaligi qay tariqa vujudga kelgan?

2. Xalifa kim? Dastlabki to'rt xalifani qayd eting.

3. Nega istilochilik urushlari olib borilgan? Bu urushlar qanday oqlangan?

4. Umaviylar sulolasi qay tariqa hokimiyatni egallagan?

5. Abbosiylar sulolasi hukmronligi qay tariqa o'rnatilgan?

6. Xalifalikning barham topish sabablari.

*O'quvchilar savollarga quyidagicha javob yozsalar o'qituvchi yangi darsdan kuzatgan maqsadga erishgan bo'ladi. Asosiy maqsad esa yuqorida ta'kidlanganidek, o'quvchilarining savollarga matndan mustaqil javob topishidir.*

*1- savolning taxminiy javobi.*

Muhammad (s.a.v.) 630- yilda barcha arab qabilalarini yagona davlatga birlashtirgan edi. Lekin bu davlat Arab xalifaligi deb atalmagan.

632- yilda Muhammad (s.a.v.) vafot etgach, hokimiyat Abu Bakr Siddiq qo'liga o'tdi. Shu tariqa u Arab xalifaligi deb atalgan davlatga asos soldi. Davlat boshlig'i xalifa deb atala boshlangan.

#### *2- savolning taxminiy javobi.*

Xalifa – arabcha so‘z. O‘zbek tilida u „o‘rinbosar“ degan ma’noni anglatadi. Abu Bakr Siddiq xalifa, ya’ni Muhammad (s.a.v.) ning o‘rinbosari deb atalgan. Xalifa ayni paytda barcha hokimiyatni o‘z qo‘lida to‘plagan hukmdordir.

#### *3- savolning taxminiy javobi.*

Katta-katta o‘lkalar va boyliklarga ega bo‘lish uchun arablar o‘zlarining istilochilik urushlariga diniy tus bergenlar. Uni jihad deb ataganlar. Alloh yo‘lida islom dinini yoyish va uni himoya qilish uchun kurash jihad deb atalgan.

#### *4- savolga taxminiy javob.*

Toj-taxt uchun kurash tarixda hamisha davom etganligini biz 6-sinf „Tarix“ darsligidan bilamiz. Arab xalifaligi ham bundan mustasno bo‘lmadi. 661- yilda xalifa Ali ibn Abu Tolib o‘ldirilgach, xalifalikning Suriyadagi noibi Muoviya shu yilda o‘zini xalifa deb e’lon qildi. Shu tariqa xalifalik tarixida umaviylar deb ataluvchi sulola hukmronligi boshlandi.

#### *5- savolga taxminiy javob.*

Xalifalikda toj-taxt uchun kurash shundan keyin ham to‘xtamagan. VIII asrda bu kurash yanada kuchaygan. Umaviylar davridaadolatsizlikning kuchayishi aholi katta qismida umaviylarga qarshi norozilikni kuchaytirgan. Bundan hokimiyat uchun kurashayotgan Abul-Abbos Abdulloh va uning tarafdorlari ustalik bilan foydalanganlar. Abul-Abbos Muhammad (s.a.v.)ning amakilaridan biri Abbosning avlodi bo‘lgan.

Abul-Abbos 750- yilda xalifalik taxtini egallagan. Shu tariqa xalifalik tarixida abbosiylar sulolasini hukmronligi boshlangan.

#### *6- savolga taxminiy javob.*

Xalifalik quyidagi sabablarga ko‘ra barham topgan:

Arab xalifaligiga qaram bo‘lgan o‘lka xalqlarining mustaqillik

uchun kurashi. Bu kurash xalifalikni zaiflashtirgan. Buning oqibatida xalifalik saljuq turklarining zarbasiga bardosh bera olmagan.

1055- yilda xalifa hokimiyati amalda barham topdi. Uning qo'lida diniy hokimiyatgina qoldirilgan.

1258- yilda esa mo'g'ullar hujumi natijasida Arab xalifaligi butunlay barham topgan.

*Mustaqil ish uchun ajratilgan vaqt tugagach, topshiriqni bajargan o'quvchilar yozgan javoblarini o'qib beradilar. Qolgan o'quvchilar javoblarni tinglaydilar. Ularga o'rtoqlarining javoblarini to'ldirish imkonи beriladi.*

O'quvchilar tayyorlagan javob sifati shu tariqa aniqlanadi va baholanadi.

#### **IV. Aqliy hujum.**

Tabiiyki, yuqoridagi topshiriqni hamma o'quvchilar ham birdek ijobjiy bajara olmaydi. Shu tufayli Aqliy hujum o'tkaziladi. Aqliy hujum savollariga javobni avvalgi topshiriqni bajarishda faol qatnasha olmagan o'quvchilardan so'rash maqsadga muvo-fiqdir.

1- savol: Xalifa kim? – *Barcha hokimiyatni o'z qo'lida to'plagan hukmdor.*

2- savol: Arab xalifaligiga kim asos soldi? – *Abu Bakr Siddiq.*

3- savol: Jihod nima? – *Din yo'lidagi kurash.*

4- savol: Islomni qabul qilganlarga qanday imtiyozlar berilgan? – *Soliqdan ozod etilgan.*

5- savol: Umaviylar qachon hokimiyatni egallagan? – *661-yilda.*

6- savol: Abbosiylar qachon hokimiyat tepasiga kelgan? – *750-yilda.*

7- savol: Arab xalifalari qachon hokimiyatni amalda yo'qotganlar? – *1055- yilda.*

8- savol: Arab xalifaligi qachon barham topgan? – *1258- yilda.*

9- savol: Nega Arab xalifaligi 1258- yilda butunlay barham topgan? – *Mo'g'ullar istilosi tufayli.*

#### **V. Guruhlarda ishlash.**

O'quvchilar uch guruhgaga bo'linadi. Har bir guruhgaga alohida-alohida topshiriq beriladi.

***1- guruhga topshiriq.***

Arab xalifaligi va Franklar imperiyasi tashkil topishi jarayonini taqqoslang.

***2- guruhga topshiriq.***

Uchta jahon dinining nomi va paydo bo‘lgan davrlarini, muqaddas kitoblarini yozing.

***3- guruhga topshiriq.***

Arabiston yarim orolida bugun qanday davlat mavjudligini, unda islomning qanday muqaddas shaharlari borligini aniqlang, yurtdoshlarimizning haj safarlariga oid ma'lumotlar to‘plang.

**VI. Dars yakunlarini chiqarish.****VII. Uyga vazifa.** Mavzu savollariga javob topish.**13- dars. Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati*****Darsning maqsadi.***

O‘quvchilarga Arab xalifaligida madaniyat rivojlanganligi, uning sabablari, bu madaniyatning G‘arbiy Yevropa madaniyatiga ta’siri haqida bilim berish.

O‘quvchilarning buyuk bobolarimizning jahon fani taraqqiyotiga qo‘shtigan hissalari bilan faxlanish hislarini o‘stirish. Ma’naviy-estetik ruhda tarbiyalash.

***Darsning jihozi.***

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. „O‘rta asrlar tarixi bo‘yicha albom“ kitobi.
3. Doska, bo‘r.

***Tarqatma materiallari.***

O‘tilgan dars bo‘yicha o‘quvchilar bilimini aniqlash maqsadida tuziladi.

***Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:***

- |                              |                     |
|------------------------------|---------------------|
| – arab xalqlari madaniyati;  | – arab tili;        |
| – xalqaro aloqa va fan tili; | – „Bayt ul-hikmat“; |
| – san‘at;                    | – algoritm;         |
| – miqyos an-Nil.             |                     |

## DARS REJASI

| <i>T.r.</i> | <i>Darsning bosqichlari</i>                  | <i>Vaqt</i> |
|-------------|--|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                              | 3           |
| II.         | O'tilgan darsni takrorlash.                  | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusini mazmunini tushuntirish. | 5           |
| IV.         | Guruhlarda ishlash.                          | 20          |
| V.          | Darsni yakunlash.                            | 2           |
| VI.         | Manbalar ustida ishlash.                     | 5           |
| VII.        | Uyga vazifa.                                 | 2           |

**I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda sodir bo'lgan eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

**II. O'tilgan darsni takrorlash.**

Bu vazifa tarqatma material orqali amalga oshiriladi.

1- *kartochka*: Arab xalifaligi qay tariqa tashkil topgan edi?

2- *kartochka*: Arablar bosib olgan mamlakatlarni qayd eting.

3- *kartochka*: „Jihod“ atamasiga izoh bering.

4- *kartochka*: Umaviylar sulolasi qachon va qay tariqa hokimiyatni egalladi?

5- *kartochka*: Umaviylar ichki va tashqi siyosati haqida nimalarni bilib oldingiz?

6- *kartochka*: Abbosiylar sulolasi qachon va qay tariqa hokimiyatni egallagan?

7- *kartochka*: Arab xalifaligini zaiflashtirgan omillar.

8- *kartochka*: Arab xalifaligi qay tariqa barham topgan?

*O'quvchilarning javoblari eshitiladi, aniqliklar kiritiladi. Bajargan ishlari baholanadi.*

**III. Yangi dars mavzusini mazmunini tushuntirish.**

Bunda o'qituvchi mavzu mazmuni bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi. Sababi, asosiy vaqt keyingi topshiriqqa qoldiriladi.

**IV. Guruhlarda ishlash.**

O'quvchilar guruhlarga bo'linadi va ular oldiga quyidagi topshiriqlar qo'yiladi:

*1- guruhga topshiriq.*

Mavzuning birinchi bo‘lagini o‘qish va uning rejasini tuzish.

*2- guruhga topshiriq.*

Mavzuning ikkinchi bo‘lagi yuzasidan qisqacha konspekt tuzish.

(*Iqtidorli o‘quvchilar uchun*).

*3- guruhga topshiriq.*

Matnni o‘qib, quyidagi tayanch so‘zlarga mustaqil matn tuzish:

- ilm-fanga homiylik;
- „Bayt ul-hikmat“;
- arab tili;
- al-Xorazmiy;
- Ahmad al-Farg‘oniy.

*4- guruhga topshiriq.*

Mavzuning 4- va 5- qismlari matnlarini o‘qish va ular asosida tezis tuzish. (*Iqtidorli o‘quvchilar uchun*).

E’tibor bergan bo‘lsangiz, o‘quvchilar oldiga asta-sekin murakkabroq topshiriqlar qo‘yishga o‘tilmoqda. Shunday bo‘lishi ham kerak. Chunonchi, bugungi topshiriqda o‘quvchilar oldiga quyidagi yangi vazifa qo‘yilmoqda:

1. Konspekt tuzish.
2. Tezis tuzish.

O‘qituvchi o‘quvchilarga konspekt va tezis tuzish qoidalarini tushuntirib beradi. O‘quvchilar topshiriqlarni taxminan quyidagicha bajarsalar, maqsadga erishgan bo‘ladilar.

*1- guruh topshirig‘i bo‘yicha.*

1: Arablar istilo qilgan mamlakatlarda yuksak taraqqiy etgan madaniyatning yaratilganligi.

2. Osoyishta hayotning ta‘minlanganligi.

3. Istilo etilgan turli o‘lkalar madaniyatining bir-birini boyitganligi.

4. Arab tilining ahamiyati.

5. „Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati“ tushunchasining mazmuni.

6. Arablarning boshqa xalqlar madaniyati yutuqlarini qunt bilan o‘rganganligi.

7. Hukmdorlarning madaniyat rivojiga homiyligi.

*2- guruh topshirig‘i bo‘yicha.*

Arablar Aristotel, Gippokrat, Ptolomey, Yevklid kabi qadimgi yunon allomalari asarlarini arab tiliga tarjima qilganlar va ularni qunt

bilan o'rganganlar. Yevropa xalqlari ham bu asarlardan arablar orqali bahramand bo'lganlar.

Bag'dod, Qurdoba, Qohira kabi shaharlar ilm-fan markaziga aylangan. Bag'dod shahrida „Donishmandlar uyi“ning ochilganligi buning dalilidir. Bu ishda xalifa Horun ar-Rashid katta rol o'ynagan. „Donishmandlar uyi“da buyuk bobolarimiz al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg'oniyalar ham ijod qilganlar.

### *3- guruh topshirig'i bo'yicha.*

Me'morchilik san'atining alohida o'rinnegallaganligi.

Go'zallikda tengi yo'q saroylar, madrasalar, masjidlar qurilganligi.

Qurdoba (Ispaniya)da bunyod etilgan masjidga 600 dan ortiq marmar ustun ishlatilganligi.

Qohiradagi Hasan masjidining tepasiga qurilgan gumbaz uzunligi 55 metr edi. Qurdoba xalifaligi arab xalqlari madaniyatining Yevropaga kuchli ta'sir ko'rsatishida muhim rol o'ynaganligi.

### **V. Darsni yakunlash.**

Har bir guruh topshiriqni qanday bajarganligini o'qib eshittiradi. Kamchiliklar ko'rsatiladi. Ish baholanadi.

### **VI. Manhalar ustida ishslash.**

Bu vazifa O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning Ahmad al-Farg'onyiy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanada so'zlagan nutqi matni bilan tanishish orqali bajariladi.

### **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu yuzasidan savollarga javob topish. Keyingi mavzu matni bilan tanishib kelish.

## **14- dars. IV – XI asrlarda Hindiston**

### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarni Hindistonning IV – XI asrlar tarixi bilan tanishtirish. Ularni o'zga xalqlar tarixiga hurmat ruhida tarbiyalash.

### *Darsning jihizi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „Ilk o'rta asrlarda Hindiston“ xaritasi.
4. Doska, bo'r.

### *Tarqatma materiallar.*

O'tilgan dars mavzusi bo'yicha o'quvchilar bilimini aniqlash maqsadida tuziladi.

**Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- roja;
- Gupta davlati;
- Xarsha imperiyasi;
- gras;
- patta;
- qishloq jamoasi;
- port.

**DARS REJASI**

| T.r. | Darsning bosqichlari                        | Vaqt |
|------|---|------|
| I.   | Tashkiliy qism.                             | 3    |
| II.  | O'tilgan dars mavzusi yuzasidan takrorlash. | 8    |
| III. | Yangi darsni tushuntirish.                  | 10   |
| IV.  | Guruhlarda ishslash.                        | 12   |
| V.   | Guruhlarda ishslash yakunini chiqarish.     | 5    |
| VI.  | Aqliy hujum.                                | 5    |
| VII. | Uyga vazifa.                                | 2    |

**I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro'y bergan eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

*Darsning mazmuni.*

1. Gupta davlatining tashkil topishi va uning keyingi taqdiri.
2. Xarsha imperiyasi.
3. Ijtimoiy munosabatlar.
4. Qishloq jamoasining jamiyat hayotidagi o'rni.
5. Hindistonda xo'jalikning asosiy turlari.
6. Hindiston madaniyati.

**II. O'tilgan dars mavzusi yuzasidan takrorlash.**

*Bu vazifa tarqatma material yordamida bajariladi. O'quvchilarga quyidagi savollarni o'z ichiga olgan kartochkalar tarqatiladi:*

1- *kartochka*: Nega Arab xalifaligi davrida yaratilgan madaniyat Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati deb ataldi?

2- *kartochka*: Qanday omillar arablar istilo qilgan mamlakatlarda madaniyatning yuksak taraqqiy etishiga sabab bo'lgan?

3- *kartochka*: Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati rivojida arab tili qanday rol o'ynagan?

**4- kartochka:** „Bayt ul-hikmat“ haqida nimalarni bilib oldingiz?

**5- kartochka:** Al-Xorazmiyning jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?

**6- kartochka:** Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyatining Yevropaga ko'rsatgan ta'sirini misollar bilan asoslab bering.

**7- kartochka:** Me'morchilik san'ati taraqqiyoti haqida nimalarni bilib oldingiz?

**8- kartochka:** O'ylab ko'ring: Arab xalifaligi mamlakatlarida madaniyat yuksak taraqqiy etgan bir davrda nega G'arbiy Yevropada bunday hodisa yuz bermagan?

*O'quvchilar javoblari to'ldiriladi. Noaniqliklarga oydinlik kiritiladi. O'quvchilar bergen javoblariga yarasha baholanadi.*

### **III. Yangi darsni tushuntirish.**

Bunda o'qituvchi hikoya-suhbat uslubidan foydalanadi.

### **IV. Guruhlarda ishslash.**

O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi. Ularning har biriga alohida-alohida quyidagi topshiriqlar beriladi:

#### **1- guruhga topshiriq.**

Matndagi barcha sanalarni ajrating. Ular bilan bog'liq tarixiy voqealarni xronologik izchillikda yozib chiqing.

#### **2- guruhga topshiriq.**

Gupta va Xarsha davlatlari tashkil topishi jarayonlarini, ularning keyingi taqdirlarini taqposlang va xulosa chiqaring.

#### **3- guruhga topshiriq.**

Hindiston ijtimoiy hayotiga xos asosiy belgilarni toping. Ularni izohlang va ketma-ketlik tartibida daftarga yozing.

#### **4- guruhga topshiriq.**

Hind allomalarining jahon madaniyati ravnaqiga qo'shgan hissalari haqidagi ma'lumotlarni tartib bilan yozing.

Hindiston allomalari kashfiyotlarini dunyoga tanitishda bebahohissa qo'shgan ulug' bobolarimiz xizmatiga misollar keltiring.

### **V. Guruhlarda ishslash yakunini chiqarish.**

O'quvchilar guruhi bajargan mustaqil ishlari tinglanadi. Bir guruh javobini ikkinchi bir guruh to'ldirishi, aniqliklar kiritishi mumkin. So'ng javoblar sifatiga qarab baholanadi.

### **VI. Aqliy hujum.**

### **Savollar va javoblar.**

1. Gupta davlatini qachon va kim tashkil etgan? – 320- yilda *Chandragupta*.
2. Qanday sababga ko‘ra Gupta davlati parchalanib ketgan? – *Eftallar hujumi oqibatida*.
3. Xarsha imperiyasi qachon tashkil topgan edi? – *VII asr boshlarida*.
4. Xarsha imperiyasining taqdiri nima bo‘lgan? – *Xarsha vafotidan so‘ng parchalanib ketgan*.
5. Hindistonda in’om etilgan yerlar nima deb atalgan? – *Gras deb*.
6. Movarounnahrda in’om etilgan yerlar qanday atalgan? – *Iqto’ deb*.
7. Qanday yerlar patta deyilgan? – *Rojalarning o‘z amaldorlariga ma’lum majburiyatlar evaziga bergen va foydalanish muddati oldindan belgilab qo‘yilgan yerlar*.
8. Qanday yerlar qishloq jamoasi yerlari deyilgan? – *Har bir qishloq egalik qilgan ma’lum miqdordagi ekinzor va yaylov yerlar*.
9. O’nlik sanoq tizimi qayerda yaratilgan? – *Hindistonda*.
10. Hind allomalari tibbiyot sohasida nimani kashf etganlar? – *Odam bosh suyagini jarrohlik yo‘li bilan ochib davolashni*.

*Faol ishtirot etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va baholanadi.*

### **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu savollariga darslikdan javob topish. Bugungi Hindiston haqida bilganlarini yozib kelish.

## **15- dars. V – XI asrlarda Xitoy**

### **Darsning maqsadi.**

O‘quvchilarni V – XI asrlar Xitoy tarixi bilan tanishtirish. Xitoy xalqi madaniyatining jahon madaniyati rivojiga qo‘sghan hissasi haqida ma’lumot berish. Ularda boshqa xalqlar tarixiga hurmat hissini tarbiyalash.

### **Darsning jihozi.**

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „Ilk o‘rtalarda Xitoy“ xaritasi.
4. Doska, bo‘r.

### **Tarqatma materiallar.**

O‘tilgan dars bo‘yicha o‘quvchilar bilimini aniqlash maqsadida tuziladi.

### **Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- Suy imperiyasi; – yer egaligi;
- Tan imperiyasi; – Xitoy madaniyati;
- boshqaruv tizimi; – „Poytaxt axboroti“ gazetasi;
- 875 – 884- yillardagi dehqonlar qo‘zg‘oloni; – kompas.

### **DARS REJASI**

| T.r. | Darsning bosqichlari                        | Vaqt |
|------|---|------|
| I.   | Tashkiliy qism.                             | 2    |
| II.  | O‘tilgan dars mavzusi yuzasidan takrorlash. | 6    |
| III. | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.  | 8    |
| IV.  | Guruhlarda ishlash.                         | 9    |
| V.   | Darsni yakunlash.                           | 3    |
| VI.  | Mustaqil ish.                               | 15   |
| VII. | Uyga vazifa.                                | 2    |

### **I. Tashkiliy qism.**

O‘quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro‘y bergan eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

#### *Darsning mazmuni.*

1. Xitoyda Suy imperiyasi va uning barham topish sabablari.
2. Tan imperiyasining tashkil topishi, uning keyingi taqdiri.
3. Xuan Chao boshchiligidagi dehqonlar qo‘zg‘oloni.
4. Yer egaligi munosabatlari.
5. Xitoy madaniyati.

### **II. O‘tilgan dars mavzusi yuzasidan takrorlash.**

*Bu vazifa tarqatma materiallар yordamida amalga oshiriladi. Shu maqsadda o‘quvchilarga quyidagi savollar va topshiriq yozilgan kartochkalar tarqatiladi:*

1- *kartochka*: Gupta davlati qachon tashkil topgan va unga kim asos solgan?

2- *kartochka*: Gupta davlatining parchalanishiga nima sabab bo‘lgan?

3- *kartochka*: Xarsha imperiyasi qaysi asrda tashkil topgan edi va uni kim tuzgan?

4- *kartochka*: Xarsha imperiyasining zaiflashuviga va parchalanib ketishiga nimalar sabab bo‘lgan?

5- *kartochka*: Hindiston VIII va XI asrlarda qaysi davlatlar hujumiga uchragan edi?

6- *kartochka*: Hindistonda hukmdor tomonidan in'om etilgan yer nima deb atalgan?

7- *kartochka*: Rojalarning davlat xizmatkorlariga ma'lum majburiyatlar evaziga bergen va foydalanish muddati oldindan belgilab qo'yilgan yerlar qanday nom bilan atalgan?

8- *kartochka*: Port nima?

9- *kartochka*: Hind matematik allomalarining jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan hissalari nimalardan iborat edi?

10- *kartochka*: Hindistonda ilm-fanning qaysi sohalari yuksak taraqqiy etgan edi?

11- *kartochka*: Hindlarning tibbiyot ilmidagi kashfiyotini qayd eting.

*O'quvchilar javobi tinglanadi. Boshqa o'quvchilar tomonidan tuzatishlar, aniqliklar kiritiladi. Javoblar baholanadi.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

O'qituvchi bu vazifani hikoya-suhbat uslubida amalga oshiradi. Mavzu mazmunini ochib beruvchi yuqorida berilgan 5 ta savol doskaga yozib qo'yiladi.

### **IV. Guruhlarda ishlash.**

Sinf 4 guruhgaga bo'linadi. Ularning har biriga alohida-alohida topshiriq beriladi.

1- *guruhgaga topshiriq*.

Quyidagi tayanch so'zlar ishtirokida matn tuzing:

V – VI asrlar. Tarqoqlik. Buyuk turk xoqonligi.

Yan Szyan. 589- yil. Mahalliy hukmdor. Ko'chmanchi turkiy qabilalar. Istilochilik urushlari. Dehqonlar qo'zg'oloni. 618- yil.

2- *guruhgaga topshiriq*.

907- yil. 618- yil, Li Yuan. Tan. Olti vazirlik. Markaziy boshqaruv. Viloyat. Okrug. Uyezd. Bo'lis. Qishloq. Besh xonodon.

875- yil. Xuan Chao. 884- yil. Ko'chmanchilar. Bekor ketmadi. Og'ir soliqlar.

3- *guruhgaga topshiriq*.

Davlat. Yer. Mulk. 624- yil. 100 mu. 80 mu. 20 mu. Tut ko'chati. Soliq. 30 kungacha. In'om. 300 mu. 10000 mu. Chek yer.

4- *guruhgaga topshiriq*.

VI – XI asrlar. Matematika. Astronomiya. Geografiya. Tarix. Fan. Akademiya. „Poytaxt axboroti“. Qog‘oz. Kitob. Kompas. Yilnomalar.

*Guruuhlar topshiriqni qanday bajarganligi o‘qitish yo‘li bilan aniqlanadi. Bir guruh topshiriqning qanday bajarilganligini ma‘lum qilgach, qolgan guruuhlar javobni to‘ldirishi, javobga aniqlik kiritishi mumkin.*

### V. Darsni yakunlash.

Darsdan nimalarga erishilganligi ta’kidlanadi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

### VI. Mustaqil ish.

„V – XI asrlarda dunyoda tashkil topgan davlatlar“ jadvalini xronologik izchillikda to‘ldiring.

| <i>Davlatlar nomi.</i> | <i>Tashkil topgan vaqt.</i> | <i>Tashkil etgan tarixiy shaxs.</i> | <i>Tashkil topgan qit‘a.</i> |               | <i>Yashagan davri.</i> |
|------------------------|-----------------------------|-------------------------------------|------------------------------|---------------|------------------------|
|                        |                             |                                     | <i>Yevropa.</i>              | <i>Osiyo.</i> |                        |
|                        |                             |                                     |                              |               |                        |

Jadvalga „O‘zbekiston tarixi“da Siz bilib olgan davlatlarni ham qo‘sning. Bunda „O‘zbekiston tarixi“ darsligidan foydalaning.

*Bu topshiriqni har ikki o‘quvchi bir jamoa bo‘lib bajaradi.*

*Ishni eng yaxshi bajargan uch jamoa alohida rag‘batlantiriladi.*

### VII. Uyga vazifa.

Darslikdagi savollarga javob topib kelish.

## II bo‘lim. Jahon xalqlari o‘rta asrlarning ikkinchi davrida (XI – XV asrlar)

### III bob. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi. Shaharlarning yuksalishi

#### 16- dars. Yevropada o‘rta asrlar shaharlaring vujudga kelishi

##### *Darsning maqsadi.*

O‘quvchilarga o‘rta asrlarda xo‘jalikda yuz bergan o‘zgarishlar, hunarmandchilikning rivojlanishi, shaharlarning vujudga kelishi, ularning jamiyat hayotida tutgan o‘mi, hunarmandchilik sexlari haqida ma‘lumot berish. O‘quvchilarning kasb-hunar egallashga bo‘lgan ishtiyoqlarini shakllantirish.

##### *Darsning jahozi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Doska, bo‘r.

##### *Tarqatma materiallar.*

O‘tilgan dars bo‘yicha o‘quvchilar bilimini aniqlash uchun tuziladi.

##### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- |                            |                            |
|----------------------------|----------------------------|
| – xo‘jalikning yangi turi; | – sex;                     |
| – hunarmand;               | – hunarmandlar ustaxonasi; |
| – hunarmandchilik;         | – sanoat.                  |
| – shahar;                  |                            |

#### DARS REJASI

| <i>T.r.</i> | <i>Darsning bosqichlari</i>                | <i>Vaqt</i> |
|-------------|--|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                            | 2           |
| II.         | O‘tilgan mavzuni takrorlash.               | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish. | 10          |
| IV.         | Guruhlarda ishlash.                        | 10          |
| V.          | Aqliy hujum.                               | 10          |
| VI.         | Darsni yakunlash, xulosa chiqarish.        | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                               | 2           |

## I. Tashkiliy qism.

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro'y bergan eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

### *Darsning mazmuni.*

1. Xo'jalikda yuz bergan o'zgarishlar.
2. Hunarmandchilikning alohida xo'jalik turiga aylanishi.
3. Shaharlarning vujudga kelishi.
4. Hunarmandlar seksi.

## II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

Bu vazifa tarqatma material yordamida bajariladi. O'quvchilarga quyidagi savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi.

1- *kartochka*: Suy sulolasi qachon hokimiyat tepasiga keldi va uning asoschisi kim edi?

2- *kartochka*: Qanday omillar Xitoyda Suy imperiyasining vujudga kelishiga sabab bo'lgan?

3- *kartochka*: Suy imperiyasini zaiflashtirgan va uning barham topishiga olib kelgan to'rt omilni qayd eting.

4- *kartochka*: Xitoyda Tan sulolasi hukmronligi qay tariqa o'rnatilgan. Sulolaning asoschisi kim edi?

5- *kartochka*: Tan sulolasi hukmronligining barham topishiga sabab bo'lgan asosiy uch omilni qayd eting.

6- *kartochka*: 624- yilda qabul qilingan Yer to'g'risidagi qonun qanday ahamiyatga ega bo'lgan?

7- *kartochka*: 624- yilgi qonunga ko'ra har bir oilaga qancha yer meros huquqi bilan berilgan?

8- *kartochka*: Yuqori martabali zodagonlarga imperator tomonidan in'om etiladigan yer maydonining hajmi qancha edi?

9- *kartochka*: Xitoyda ilm-fanning eng taraqqiy etgan sohalarini qayd eting.

10- *kartochka*: Dunyoda birinchi bor nashr etilgan gazetaning nomini qayd eting.

11- *kartochka*: Dunyoda birinchi yozuv qog'ozni qayerda paydo bo'lgan, birinchi kitob qayerda nashr etilgan?

12- *kartochka*: Xitoyda dunyoda birinchi bor kompas va porox qaysi asrlarda ixtiro qilingan?

13- *kartochka*: Dunyodagi birinchi Fanlar akademiyasi qachon va qayerda tashkil etilgan?

*Har bir javob tinglanadi va baholanadi.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish (yuqorida keltirilgan 4 reja asosida).**

Bu vazifani bajarishda o‘qituvchi hikoya-suhbat uslubidan foydalanadi.

#### **IV. Guruhlarda ishlash.**

Bu vazifani bajarish uchun o‘quvchilar 4 guruhgaga bo‘linadi. Har bir guruhgaga alohida-alohida topshiriq beriladi. Topshiriqqa javob matn asosida tayyorlanadi.

#### **1- guruhgaga topshiriq.**

A) XI asrdan boshlab Yevropada shaharlarning jamiyat taraqqiyotida muhim omilga aylana borishini ta’minlagan sabablarni tartib bilan yozing.

B) Dehqonchilik sohasida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi? Ularni tartib bilan yozing.

#### **2- guruhgaga topshiriq.**

A) „Hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi“ iborasining mazmuniga izoh bering.

B) Shaharlar qay tariqa vujudga kelgan?

#### **3- guruhgaga topshiriq.**

A) Shaharlar qay tariqa jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylana bordi?

B) O‘rta asrlar shahar va qishloqlarini bir-biri bilan taqqoslang. Ularning farqini tartib bilan yozing.

#### **4- guruhgaga topshiriq.**

Hunarmandlar ustaxonasi. Sanoat. Hunarmandlar sexi, uning ahamiyati haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiling.

*Har bir guruhning javobi tinglanadi. Guruhlarga bir-birining javobini to‘ldirishga imkon beriladi.*

*O‘qituvchi javoblarni xulosalaydi va guruh ishlari sifatiga qarab baholanadi.*

#### **V. Aqliy hujum.**

Darsning bu bosqichi o‘quvchilarning olgan bilimlari ular xotirasida qanchalik saqlanib qolganligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

#### **Savollar va javoblar.**

1. Qadimgi dunyo va o‘rta asrlar shaharlari o‘rtasidagi asosiy farq nima-da? – *Ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rnii bir-biridan farq qilishida.*

2. O'rta asrlar shaharlaring jamiyat taraqqiyotida muhim omilga aylana borishi nimaning oqibati edi? – *Dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishi ro'y berganligining.*
3. Hunarmandchilikning xo'jalikda alohida soha bo'lib ajralib chiqishiga nima sabab bo'Igan? – *Dehqonchilikning yuksak sur'atlarda rivojlanishi.*
4. Dehqonchilikda qanday yangilik yuz bergan? – *Uch dalali almashlab ekish.*
5. Qishloq xo'jaligining yanada taraqqiy etishi nimalarning yuzaga kelishini zaruratga aylantirib qo'ygan? – *Qishloq xo'jalik texnikasining.*
6. Chorvachilikda qo'ychilikning rivojlanishiga nima sabab bo'Igan? – *Jun gazlamasidan kiyim-kechak tayyorlash.*
7. Hunarmandchilikning rivojlanishiga olib kelgan ikki omilni qayd eting. – *Qishloq xo'jaligi va jun gazlamasi to'qish texnikasini takomillashtirish zarurati.*
8. „Dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqdi“ degan iboraning ma'nosi. – *Hunarmandchilikni o'ziga asosiy kash qilib olgan kishilar guruhining vujudga kelganligi.*
9. Savdo-sotiqning rivojlanishiga sabab bo'Igan omilni qayd eting. – *Qishloq xo'jaligida o'z iste'molidan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarganligi.*
10. Nega V – X asrlarda shaharlar hunarmandchilik va savdo markaziga aylanmagan edi? – *Natural xo'jalik hukm surganligi uchun.*
11. O'rta asrlar shaharlari qay tariqa vujudga keldi? – *Hunarmandlarning o'zlariga manzilgohlar qurishi natijasida.*
12. Shaharlarning vujudga kelishi qishloq uchun qanday ahamiyatga ega bo'ldi? – *Qishloq bozor bilan bog'landi.*
13. O'rta asrlar hunarmandchiligi nima? – *Qo'l mehnatiga asoslangan mayda sanoat ishlab chiqarishi.*
14. Sanoat nima? – *Xo'jalikning xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi sohasi.*
15. Hunarmandlar sexi nima edi? – *Bir xil kashdag'i hunarmandlar uyushmasi.*
16. Nega hunarmandlar sexga birlashganlar? – *Raqobat va feodallar talonchiligidagi qarshi tura olish uchun.*
17. Hunarmandlar faoliyati nima bilan tartibga solingan? – *Nizom bilan.*

*O'quvchilar savollarga mana shu mazmunda javob bera olsalar, dars mavzusini mazmunini o'zlashtirib olgan hisoblanadi.*

## **VI. Darsni yakunlash, xulosa chiqarish.**

### **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu savollariga javob topish. Xalqaro hayotga oid muhim yangiliklarni bilib kelish.

## **17- dars. Tovar xo‘jaligi va savdo-sotiq**

### **Darsning maqsadi.**

O‘quvchilarga tovar xo‘jaligi, uning vujudga kelishi shart-sharoitlari, savdo-sotiqning rivojlanishi hamda u vujudga keltirgan yangi hodisalar haqida ma’lumot berish. O‘quvchilarni xo‘jalik yuritish va savdo-sotiqni o‘rganish ruhida tarbiyalash. Tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishga yo‘llanma berish.

### **Darsning jahozi.**

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. „O‘rta asrlar tarixi“ albomi.
3. Dunyo siyosiy xaritasi.
4. Doska, bo‘r.

### **Test topshiriqlari.**

Undan o‘tilgan dars bo‘yicha o‘quvchilar bilimini aniqlash maqsadida foydalilaniladi.

### **Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- |             |                           |
|-------------|---------------------------|
| – yarmarka; | – tovar;                  |
| – sarrof;   | – tovar xo‘jaligi;        |
| – bank;     | – savdo qaroqchiligi;     |
| – birja;    | – shahar – respublikalar; |
| – broker;   | – ganza.                  |

## **DARS REJASI**

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>                | <b>Vaqt</b> |
|-------------|--|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                            | 2           |
| II.         | O‘tilgan mavzuni takrorlash.               | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish. | 10          |
| IV.         | Guruhlarda ishlash.                        | 10          |
| V.          | Aqliy hujum.                               | 10          |
| VI.         | Darsni yakunlash, xulosa chiqarish.        | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                               | 2           |

## I. Tashkiliy qism.

O‘quvchilarni darsga tayyorlash. Ularni dunyoda ro‘y bergan eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

### *Yangi dars mavzusi mazmuni.*

1. Tovar xo‘jaligi qay tariqa vujudga kelgan va u qanday ahamiyatga ega bo‘lgan?

2. Savdo-sotiq rivoji qanday to‘sirlarga uchragan?

3. Yevropaning Sharq bilan savdo aloqalari.

4. Yevropada ichki savdo rivoji va uning oqibatlari.

## II. O‘tilgan mavzuni takrorlash.

Bu vazifa quyidagi 10 ta test yordamida bajariladi:

1. *O‘rta asrlar shaharlaring jamiyat taraqqiyotida muhim omilga aylana borishi nimaning oqibati edi?*

A. Shaharda yashovchilar ko‘payishining.

B. Shahar aholisi katta qismining erkin aholidan iborat bo‘lganligi.

D. Dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqqanligi.

E. Dehqonchilikdan chorvachilikning ajralib chiqqanligi.

2. *Hunarmandchilikning xo‘jalikda alohida soha bo‘lib ajralib chiqishiga nima sabab bo‘lgan?*

A. Shaharlarning paydo bo‘lishi.

B. Savdoning rivojlanishi.

D. Dehqonchilikning yuksak sur’atlarda rivojlanishi.

E. Hunarmandlarning ko‘payishi.

3. *Qanday omillar hunarmandchilikning rivojlanishiga sabab bo‘lgan?*

A. Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi.

B. Qishloq xo‘jaligida uch dalali almashlab ekishga o‘tish.

D. Savdo-sotiqning rivojlanishi.

E. Jun gazlamasi to‘qish moslamalarini takomillashtirish zarurati.

F. A va E.

4. „*Dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqdi“ degan iboraning ma’nosи.*

A. Hunarmandlar ko‘paydi.

B. Qishloq aholisi dehqon va hunarmandlarga bo‘lindi.

D. Shahar paydo bo‘ldi.

E. Hunarmandchilikni o‘ziga kasb qilib olgan kishilar guruhi vujudga keldi.

F. Qishloq xo‘jalik texnikasi takomillashdi.

**5. O‘rta asrlar shaharlari qay tariqa vujudga kelgan?**

A. Hunarmandlarning shahar qurilishiga alohida e’tibor berishi natijasida.

B. Hunarmandlarning o‘zlariga manzilgoh qurishlari natijasida.

D. Feodallar shaharda yashashni istab qolganligi oqibatida.

E. Savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida.

**6. Hunarmandchilik nima?**

A. Mayda ishlab chiqarish.

B. Alohida iqtidor talab etuvchi kasb.

D. Jamiyat uchun zarur buyumlar yasash.

E. Qo‘l mehnatiga asoslangan mayda sanoat ishlab chiqarish.

**7. Hunarmandchilik sexi nima?**

A. Ustaxona nizomi.

B. Boshqaruv hay’ati.

D. Bir xil kasbdagi hunarmandlar uyushmasi.

E. Hunarmandlar yashaydigan joy.

**8. Sanoat nima?**

A. Fabrika va zavod ishlab chiqarishi.

B. Xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi xo‘jalik sohasi.

D. Bozorlardagi hunarmandchilik mahsulotlari sotiladigan rastalar.

E. Hunarmandlar to‘laydigan soliq.

**9. Nega V – X asrlarda shaharlar hunarmandchilik va savdo markaziga aylanmagan edi?**

A. Hunarmandlar toifasi shakllanmaganligi uchun.

B. Shaharlar qurish uchun yer maydonlari ajratib berilmaganligi uchun.

D. Feodal tarqoqlik hukm surganligi uchun.

E. Natural xo‘jalik hukm surganligi uchun.

**10. Shaharlar vujudga kelishining asosiy ahamiyati nimadan iborat bo‘ldi?**

A. Hunarmandchilik rivojlandi.

B. Hunarmandlar toifasi shakllandı.

D. Qishloq bozor bilan bog‘landi.

E. Hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi.

*Testlarni oldin bajarib bo‘lgan 10 nafar o‘quvchidan bittadan savolga javob so‘raladi. Keyin javoblar yig‘ib olinadi. Javoblarni*

*tekshirish uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan perfakarta doskaga osib qo'yiladi. O'quvchilar o'z javoblarini perfakartaga solishtirib ko'radilar.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

Yuqorida berilgan 4 ta yangi mavzu mazmunini savol asosida o'qituvchi hikoya-suhbat uslubida tushuntirib beradi.

### **IV. Guruhlarda ishlash.**

Bu vazifa o'quvchilarni guruhlarga bo'lish, ularga tayanch so'z va atamalar yordamida matn tuzdirish topshirig'ini berish orqali bajariladi.

#### ***1- guruhga topshiriq.***

Mahsulot. Hunarmand. Dehqon. Ishlab chiqarish. Savdo. Manfaatdor. Tovar. Tovar xo'jaligi. Tovar xo'jalingining rivojlanishi. Natural xo'jalik. Pasaytirgan.

#### ***2- guruhga topshiriq.***

Savdo-sotiqlik. Foydali. Qiyn. Xatarli. Qaroqchi. Feodal. Boj. O'lja. Gildiya. Savdogarlar. O'rta Yer dengizi. Suriya. Misr. Arab va Eron savdogarları. Ziravor. Venetsiya. Genuya. Savdo yo'llari. Shahar – respublika. Boyib ketdi.

#### ***3- guruhga topshiriq.***

Boltiq va Shimoliy dengiz. Novgorod. London. Bryugge. Markazi edi. Germaniya. XIV asr. Ganza. 70. Lyubek. Yarmarka. XIII asr. Shampan. Sarroflar. Sudxo'r. Bank. Ikki tabaqa. Savdogarlar. Sarmoyadorlar. Birja. 1409- yil. Bryugge. Broker. Mijoz. Narx. Kafolatli.

*Javoblar tinglanadi, to'ldiriladi, aniqliklar kiritiladi hamda baholanadi.*

### **V. Aqliy hujum.**

#### ***Savollar va javoblar.***

1. Tovar nima? – Bozorda sotish uchun ishlab chiqariladigan mahsulot.
2. Tovar xo'jaligi nima? – Bozorda sotish uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi xo'jalik.
3. Tovar xo'jalingining rivojlanishi oxir-oqibatda nimaga olib keldi? – Natural xo'jalik ahamiyatining tobora pasayishiga.
4. Savdo-sotiqlik rivojiga nimalar to'sqinlik qilardi? – Qaroqchilik, har xil boj to'lovlari.

5. Yevropani Sharq bilan bog‘lovchi savdo yo‘llari qaysi shaharlar qo‘lida edi? – *Venetsiya va Genuya*.
6. Ganza nima? – *Germaniya shahar savdogarlariti ittifoqi*.
7. Yarmarka nima? – *Yilda bir marta o‘tkaziladigan bozor*.
8. Sarroflar kimlar edi? – *Pul ishlari bo‘yicha mutaxassislar*.
9. Dunyoda birinchi yarmarka qachon va qayerda o‘tkazilgan? – *XIII asrda, Fransiyaning Shampan grafigida*.
10. Bank nima? – *Katta miqdorda pul saqlanadigan joy*.
11. Birja nima? – *Tovar, pul va ulgurji savdo bozori*.
12. Broker kim? – *Oldi-sotdi shartnomalari tuzishda vositachilik qiluvchi shaxs*.

## **VI. Darsni yakunlash, xulosa chiqarish.**

Darsda nimalarga erishilganligi ta’kidlanadi. Mashg‘ulotda faol ishtiroy etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

## **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob topib kelish.

## **18- dars. Yevropa shaharlari hayoti. Osiyo shaharlari**

### *Darsning maqsadi.*

O‘quvchilarga G‘arbiy Yevropa shaharlaring o‘z mustaqilliklari uchun olib borgan kurashlari, uning natijalari, shahar hayoti, Osiyo shaharlaring o‘ziga xos xususiyatlari haqida bilim berish. O‘quvchilarni mustaqillik ruhida, o‘zlikni anglash ruhida tarbiyalash.

### *Darsning jihozlari.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. „O‘rta asrlar tarixi“ albomi.
3. Dunyo siyosiy xaritasi.

### *Tarqatma material.*

Bu o‘tilgan dars mavzusi bo‘yicha o‘quvchilar bilimini aniqlash maqsadida tayyorlanadi.

### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- shaharlarning mustaqillik uchun kurashi; – Shahar kengashi;
- mer; – ratusha;
- Osiyo shaharlaring alohida mustaqil birlik bo‘limganligi;
- Osyoning yirik shaharlari; – ark;
- shahriston; – rabod.

## DARS REJASI

| <i>T.r.</i> | <i>Darsning bosqichlari</i>                | <i>Vaqt</i> |
|-------------|--|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                            | 2           |
| II.         | O'tilgan mavzuni takrorlash.               | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish. | 10          |
| IV.         | Matn bilan ishlash.                        | 10          |
| V.          | Darsni yakunlash.                          | 3           |
| VI.         | Mustaqil ish.                              | 10          |
| VII.        | Uyga vazifa.                               | 2           |

**I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro'y bergan eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.**

Bu vazifa tarqatma materialdan foydalangan holda bajariladi. Bunda o'quvchilarga quyidagicha tuzilgan kartochkalar tarqatiladi:

1- *kartochka*: Tovar – .....

2- *kartochka*: Tovar xo'jaligi deyilganda .....tushuniladi.

3- *kartochka*: Natural xo'jalik ahamiyatining pasayishi .....oqibati edi.

4- *kartochka*: ..... bu ikki omil savdo-sotiq rivojlanishiga to'siq bo'lgan.

5- *kartochka*: Italiyaning ... shaharlari shahar – ... edi. Ular ... savdo yo'llarini o'z qo'llariga olgan edilar.

6- *kartochka*: Ganza ..... edi. Unga ..... shahri rahbarlik qilgan.

7- *kartochka*: Yarmarka deyilganda..... tushuniladi.

8- *kartochka*: Bank –... joy.

9- *kartochka*: ... bozorlariga birja deyilgan.

10- *kartochka*: Broker – ... shaxs.

*Javoblar izohlanadi va baholanadi.*

**III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

Bu vazifani o'qituvchi hikoya-suhbat uslubidan foydalanib bajaradi.

#### **IV. Matn bilan ishslash.**

*Bu vazifa o'quvchilarining matn ustida mustaqil ishslashlari orqali bajariladi.*

Har bir o'quvchi topshiriqni mustaqil ravishda o'zi bajaradi. Javoblarini daftarlariiga yozadilar. O'quvchilarining darslik matnidagi barcha ma'lumotlarni yoki uning bir qismini ko'chirib yozish holatining oldini olish uchun ular javobni o'z so'zлari bilan yozishlari shartligi haqida ogohlantiriladi. Bundan tashqari, javob yozishda „birinchidan“, „ikkinchidan“ iboralarini qo'llash zarurligi uqtiriladi. Bu usul bolalarga matnni ongli ravishda o'zlashtirib olishga yordam beradi. Tartib-qoidalar tushuntirilgach, o'qituvchi quyidagi topshiriqlarni doskaga yozib qo'yadi:

1. Shaharlarning feodallarga qarshi kurashi sabablari va bu kurashning natijalari.

2. Shaharlarning o'z-o'zini boshqaruvi va shaharliklar turmushi.

3. Osiyo davlatlarida shaharlar qaysi jihatdan Yevropa shaharlaridan farq qilgan?

*Belgilangan muddatda topshiriqni bajarishga ulgurganlar topshiriqni bajargan, deb hisoblanadi.*

*Topshiriqni kim qanday bajarganligini aniqlash maqsadida ayrim o'quvchilarining javoblari eshitiladi.*

*Topshiriqni to'g'ri va vaqtida bajargan 5 nafar o'quvchi g'olib sifatida rag'batlantiriladi.*

#### **V. Darsni yakunlash.**

O'qituvchi bugungi darsda nimaga erishilganligini ta'kidlaydi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

#### **VI. Mustaqil ish.**

Buning maqsadi o'quvchilarini belgilangan vaqt birligi ichida darslik (kitob)dan o'ziga zarur bo'lgan ma'lumotni topa olish ko'nikmasini rivojlantirishdir.

Bu vazifa o'quvchilarini uch guruhga bo'lish va ular oldiga alohida-alohida topshiriq qo'yish orqali bajariladi. Topshiriqlar shu vaqtgacha o'tilgan mavzulardagi eng muhim tarixiy sanalar yuzasidan tuziladi.

O'quvchilar shu sanalarda ro'y bergan voqealarni tartib bilan yozishlari lozim.

***1- guruhga topshiriq.***

VI asr ikkinchi yarmi. 1066. 962. 395. 527 – 565. 618. 610. 1055. 768. 998. 632.

***2- guruhga topshiriq.***

V – XV asrlar. 486. 814. 630. 998. 661. 589. 1122. 527 – 565. 882. 320.

***3- guruhga topshiriq.***

IV – VI asrlar. VII asr. 1258. 800. 936. 1076. 843. 527 – 565. 570 – 632. 622. 829.

Ko‘rdingizki, har bir topshiriqqa 11 tadan sana yozilgan. Topshiriq qanday bajarilganligi guruh sardori tomonidan o‘qib eshittiriladi. Bir guruh javobi boshqa guruh tomonidan to‘ldirilishi, aniqlik kiritilishi mumkin.

**VII. Uyga vazifa.**

Mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob topish. Bugungi shahar va qishloq hayotini taqqoslab to‘plangan ma’lumotlarni jadvalga joylashtirib kelish.

**IV bob. Xristian cherkovi va salib yurishlari****19- dars. Xristian cherkovining jamiyatda tutgan o‘rni*****Darsning maqsadi.***

O‘quvchilarga xristian dinining bo‘linishi sabablari haqida bilim berish. Bugungi katolik va pravoslav cherkovlari haqida qisqacha ma’lumot berish. O‘quvchilarni cherkovning davlat siyosatiga aralashuviga qarshi ruhda tarbiyalash.

***Darsning jahozi.***

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. „O‘rta asrlar tarixi“ albomi.
3. Doska, bo‘r.

***Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:***

Cherkov. Anafema. Xristian dinidagi bo‘linish. Katolik cherkovi. Pravoslav cherkovi. Konstantinopol patriarchi. Rim Papasi qudrati. Yeretiklar. Inkvizitsiya.

## DARS REJASI

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>   | <b>Vaqt</b> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.   | 3           |
| II.         | Yangi dars mavzusini mazmunini tushuntirish.                                | 10          |
| III.        | Matn ustida ishslash.   | 8           |
| IV.         | Dars yakunini chiqarish.  | 5           |
| V.          | Guruhlarda ishslash.  | 10          |
| VI.         | VI – VII sinflarda bilib olingen dinlar haqidagi bilimlarni umumlashtirish. | 5           |
| VII.        | Darsni yakunlash.   | 2           |
| VIII.       | Uyga vazifa.  | 2           |

### **I. Tashkiliy qism.**

O‘quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda sodir bo‘lgan eng muhim siyosiy yangiliklardan xabardor qilish.

### **II. Yangi dars mavzusini mazmunini tushuntirish.**

O‘qituvchi quyidagi reja asosida yangi dars mavzusini mazmunini tushuntiradi. Savollar doskaga yozib qo‘yiladi.

1. Rim cherkovining qudratli tashkilotga aylanish sabablari.
2. Sharqiy Rim imperiyasida cherkovning ahvoli.
3. Xristian dinida bo‘linish sabablari.
4. Xristian dinida bo‘linishning yuz berishi.
5. Rim Papasi qudrati.
6. Yeretiklarga qarshi kurash.

### **III. Matn ustida ishslash.**

Matn ustida ishslash uchun savollar.

1. Nega Rim cherkovi kuchaygan?
2. Konstantinopol cherkovi nega imperatorga qaram bo‘lib qolgan?
3. Ikki cherkov xristianlik ta’limotining qaysi masalalarida kelisha olmagan?
4. Xristian dini nega bo‘linib ketdi?
5. Bo‘linish qay tariqa yuz berdi?
6. Rim Papasining qudrati nimalarda namoyon bo‘ldi?
7. Yeretiklar kimlar edi va ularga qarshi kurashda qanday usullar qo‘llanilgan?

O‘quvchilar yuqoridaqgi savollarga matndan javob topadilar. Ularni

o‘z so‘zlari bilan ketma-ketlik tartibi asosida daftalariga yozadilar. Agar daftarida quyidagi yozuvlar paydo bo‘lsa, maqsadga erishilgan bo‘lardi:

1. 476- yilda G‘arbiy Rim imperiyasi quladi. Uning o‘mida yangi davlatlar vujudga keldi. Lekin ular kuchsiz edi. Qirol hokimiyati esa mustahkam emasdi. Odamlar ertangi kunga xavotirlik bilan qarardi. Shu tufayli ular qirol hokimiyatiga emas, cherkovga ishonardi. Bu holat Rim cherkovining obro‘sini yanada oshirib yuborgan. Shu tufayli u kuchaygan.

2. Sharqiy imperiyada imperator hokimiyati kuchli edi. Shuning uchun u qulamadi. Imperatorning kuchli hokimiyati cherkovni ham o‘ziga itoat etishga majbur qilgan. Shuning uchun bu yerda cherkov imperatorga qaram bo‘lib qolgan.

3. Ikki cherkov xristian ta’limoti masalalarini quyidagicha talqin qilgan:

| <i>T.r.</i> | <i>Rim cherkovi fikrlari</i>  | <i>T.r.</i> | <i>Konstantinopol cherkovi fikrlari</i>            |
|-------------|---|-------------|--|
| 1.          | Muqaddas Ruh-xudo ham Ota xudo-dan, ham O‘g‘il xudodan kelib chiqqan. | 1.          | Muqaddas Ruh-xudo faqat Ota xudodan kelib chiqqan. |
| 2.          | Cherkov va‘zлari lotin tilida o‘qilgan.                               | 2.          | Cherkov va‘zлari yunon tilida o‘qilgan.            |
| 3.          | Rim Papasi Apostol Pyotrning o‘rinbosari.                             | 3.          | Bu qoidani tan olmagan.                            |

4. Bo‘linishga quyidagilar sabab bo‘lgan:

a) Rim cherkovining Konstantinopol cherkovini bo‘ysundirishga uringanligi;

b) Sharqiy Yevropa xalqlarining xristian dinini Konstantinopol cherkovi orqali qabul qilganligi.

d) cherkov daromadlarini taqsimlashdagi kelishmovchilik;

e) ikki cherkovning xristian ta’limoti masalalarida kelisha olmaganligi.

5. 1054- yilda ikki cherkov boshliqlari bir-birini la’natlaganlar. Shu bilan xristian dinida bo‘linish yuz bergen.

G‘arbiy cherkov katolik cherkovi, Konstantinopol cherkovi esa Pravoslaviye cherkovi deb atalgan.

6. 6 – 7- savollarga ham shu tariqa javob yoziladi.

#### **IV. Dars yakunini chiqarish.**

Topshiriq bajarib bo‘lingach, avvalo, ish hajmi matnga solishtirildi. Natijada javob matnning atigi 1/4 qismini tashkil etishi ma’lum bo‘ladi. Bu bilan o‘qituvchi quyidagi ikki maqsadga erishadi:

- a) o'quvchilarning matndan asosiy fikrlarni topa olishiga;  
 b) o'quvchilarning konsept yoza olish ko'nikmalarini rivojlan-tirishga.

*Javoblar baholanadi.*

**V. Guruhlarda ishlash.** (Iqtidorli o'quvchilarga topshiriq).

Ular berilgan quyidagi tayanch so'zlardan matn tuzadilar:

**1- guruhga topshiriq.**

Lev IX. Kirudariy. Anafema. Katolik. Pravoslaviye. 1054. Rim cherkovi. Konstantinopol cherkovi. Slavyan xalqlari. Cherkov daromadi. Muqaddas Ruh-xudo. Lotin tili. Yunon tili. Apostol. Pyotr.

**2- guruhga topshiriq.**

Papa irodasi. Qirollar. Vassal. Cherkovdan chetlatish. Yopilgan. Ism. Ko'milmagan. Tavba. Qonundan tashqari. Ushr. Indulgensiya.

**3- guruhga topshiriq.**

Dindan qaytgan. Adolatsizlik. Yeretik. 20000 kishi. Dabdabali. Boylik. Ushr. Og'ir. Soliq. Harbiy yurish. Inkvizitsiya. Ilm-fan.

*Matn qanday tuzilganligi o'qitib ko'rish yo'li bilan aniqlanadi.*  
*Guruh a'zolari bir-birlarining matnlariga tuzatish kiritishi mumkin.*

**VI. VI – VII sinflarda bilib olingen dinlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash.**

**VII. Darsni yakunlash.**

**VIII. Uyga vazifa.**

Matnda berilgan savollarga javob topish. Hafta ichida ro'y bergan eng muhim xalqaro siyosiy yangiliklar ro'yxatini tuzib kelish.

**20- dars. Salib yurishlarining shart-sharoitlari**

***Darsning maqsadi.***

O'quvchilarga salib yurishi nimaligi, uning nega yuz bergenligi sabablari haqida bilim berish. Bugungi kunda salib va Qizil yarim oy belgilari qanday ma'nolarda qo'llanilayotgani haqida qisqacha ma'lumot berish. O'quvchilarni urushga qarshi, tinchliksevarlik ruhida tarbiyalash.

***Darsning jihizi.***

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. „O'rta asrlar tarixi“ albomi.
3. Doska, bo'r.

### ***Test topshiriqlari.***

Testlar o'quvchilarning o'tgan darsda olgan bilimlarini aniqlash maqsadida tuziladi.

#### ***Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:***

- salib; – salib yurishi; – salibchilar;
- salib yurishlari sabablari; – salibchilar qo'shini;
- mayorat; – xalqaro vaziyat; – salib yurishiga bahona.

#### **DARS REJASI**

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>                | <b>Vaqt</b> |
|-------------|--|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                            | 2           |
| II.         | O'tilgan dars mavzusi bo'yicha takrorlash. | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish. | 11          |
| IV.         | Aqliy hujum.                               | 6           |
| V.          | Guruhlarda ishlash.                        | 13          |
| VI.         | Darsni yakunlash.                          | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                               | 2           |

#### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalg etish. Ularni Rim cherkovi hayotiga doir eng so'nggi yangiliklardan xabardor qilish.

#### **II. O'tilgan dars mavzusi bo'yicha takrorlash.**

Bu vazifa test topshiriqlari yordamida amalga oshiriladi.

#### **1. Rim Papasi qudratining eng kuchaygan davri.**

- A. XIII – XIV asrlar.
- B. XI – XII asrlar.
- D. VI – IX asrlar.
- E. XI – XV asrlar.
- F. V – VII asrlar.

#### **2. Cherkov o'z aqidalariga shubha bildirgan kishilarga qarshi qanday jazolar qo'llagan?**

- A. Anafema.
- B. Cherkovdan chetlatish.
- D. Qamoq, o'lim.
- E. Tavba qildirish.
- F. Javoblarning barchasi to'g'ri.

**3. „Cherkovdan chetlatish“ jazosining mazmuni.**

- A. Ibodatxonalarning yopilishi.
- B. Chaqaloqlarga ism berilmaslik.
- D. Vafot etganlarni ko‘mishga ruxsat bermaslik.
- E. Qonundan tashqari hisoblanish.
- F. Javoblarning barchasi to‘g‘ri.

**4. Biror shaxsni „qonundan tashqari“ deb hisoblanish jazosining mazmuni.**

- A. Talash va o‘ldirish mumkinligi.
- B. Uzoq o‘lkalarga surgun qilib yuborish.
- D. Vafot etganida qabristonga ko‘mdirmaslik.
- E. Yordam va boshpana berish mumkin emasligi.

**5. Indulgensiya nima?**

- A. Cherkov sudi.
- B. Yeretiklarni la’natlash.
- D. Yeretiklarni surgun qilish.
- E. Maxsus afv yorlig‘i.
- F. Rim Papasi farmoni.

**6. „Yeretik“ atamasining ma’nosi.**

- A. Dindan qaytgan.
- B. Xudojo‘y.
- D. Adolatparvar.
- E. Xudo borligini inkor etuvchi.
- F. Cherkovni isloh qiluvchi.

**7. Yeretiklar nimalarga qarshi bo‘lganlar?**

- A. Dabdabali cherkov marosimlariga.
- B. Papa hokimiyatiga.
- D. Fikr erkinligi berilmasligiga.

**8. Inkvizitsiya nima?**

- A. Yeretiklar saqlanadigan joy.
- B. Cherkov aqidalariga cherkov bilan qarash.
- D. Cherkovning maxsus sudi.
- E. Yeretiklar surgun qilinadigan joy.
- F. Javoblarning barchasi to‘g‘ri.

Avval bajarib bo‘lgan 8 ta o‘quvchining javobi eshitiladi va baholanadi. Qolganlarning qanday bajarganligi o‘qituvchi tomonidan darsdan boshqa vaqtida tekshirib chiqiladi.

### **III. Yangi dars mavzusini mazmunini tushuntirish.**

O'qituvchi quyidagi reja asosida bu vazifani amalga oshiradi:

1. Salib yurishlari nima?
2. Salib yurishlarining sabablari.
3. Salibchilar qo'shini qanday to'plangan?
4. Salib yurishi arafasida xalqaro vaziyat.
5. Salib yurishini boshlash uchun topilgan bahona.

*O'qituvchi hikoya-suhbat uslubidan foydalanih, yuqoridagi reja asosida mavzu mazmunini tushuntirib beradi.*

### **IV. Aqliy hujum.**

Darsning bu bosqichi darsda mustahkamlanadi.

#### ***Savollar va javoblar.***

1. Salib nima? – *Xristian cherkovi ramzi.*
2. Salib yurishi nima? – *G'arbiy Yevropa feodallari katolik cherkovining Yaqin Sharqqa uyushtirgan bosqinchilik urushi.*
3. Feodallar salib yurishidan qanday maqsadni ko'zlagan edilar? – *O'zgalar yurtini bosib olish va boyliklarini talashni.*
4. Salib yurishining tashkilotchisi kim edi? – *Katolik cherkovi.*
5. Katolik cherkovining maqsadi nima edi? – *Cherkov ta'sirini yanada kuchaytirish, pravoslav cherkovini o'ziga bo'ysundirish.*
6. Salibchilar qo'shini kimlardan tuzilgan? – *Ritsar va dehqonlardan.*
7. Nega dehqonlar salib yurishida qatnashganlar? – *Feodal qaramlikdan ozod bo'lib, Yaqin Sharqda yer-mulkka ega bo'lish uchun.*
8. Nega Sharqda hech qaysi davlat salib yurishining oldini ola olmagan? – *Arab xalifaligi 1055- yilda amalda barham topgan edi.*  
O'qituvchi: – Yana?  
O'quvchi: – *Vizantiya zaiflashib qolgan edi.*  
O'qituvchi: – Yana?  
O'quvchi: – *Saljuqlar davlati kichik-kichik bo'laklarga bo'linib ketgan edi.*
9. Salibchilar o'z urushlarini nima bilan oqladilar? – *Iso payg'ambar qabri joylashgan joyni musulmonlardan tozalash bahonasi bilan.*
10. Salibchilar urushi tashkilotchilari ishtirokchilarga nimalarни va'da qildilar? – *Jannatmakon hosildor yerlarni.*

### **V. Guruhlarda ishlash.**

O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi. Ular matn ustida ishlab, quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

- 1- *guruhg'a topshiriq.*

Salib yurishlari, uning sabablari, tashkilotchi va ishtirokchilari haqida matn tuzish.

### **2- guruhg'a topshiriq.**

Salib yurishlari ishtirokchilarining maqsadlari, bu yurishga imkon yaratgan qulay xalqaro vaziyat haqida matn tuzish.

### **3- guruhg'a topshiriq.**

G'arbiy Yevropa feodallarining bosqinchilikdan iborat urushiga Rim Papasining diniy tus berishi sababi, nega salib yurishining oldini olib bo'limganligi haqida matn tayyorlash.

### **4- guruhg'a topshiriq.**

Mustaqil ish uchun darslikda berilgan jadvalni to'ldirish.

Javoblar tinglanadi. Guruh baholanadi.

### **VI. Darsni yakunlash.**

Darsda nimaga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

### **VII. Uyga vazifa.**

Matn oxirida berilgan savollarga javob topish. Iso payg'ambar qabri joylashgan Quddus shahri bugun qaysi davlat hududida ekanligini bilib kelish.

## **21- dars. Dastlabki salib yurishlari va oqibatlari**

### **Darsning maqsadi.**

O'quvchilarga salib yurishlarining boshlanishi, dastlabki uch salib yurishining oqibatlari haqida bilim berish. O'quvchilarni urushga, bosqinchilikka qarshi ruhda tarbiyalash.

### **Darsning jihozi.**

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „O'rta asrlar tarixi“ albomi.
4. Doska, bo'r.

### **Tarqatma material.**

Bu o'tilgan dars mavzusi mazmunini o'quvchilarning qanchalik o'zlashtirib olganliklarini aniqlash maqsadida tayyorlanadi.

### **Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- |  |   |
|--|---|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>- salib yurishining boshlanishi;</li> <li>- G'arbiy Yevropa davlatlari ishtiroki;</li> <li>- ikkinchi salib yurishi;</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- dehqonlar halokati;</li> <li>- Quddus qirolligi;</li> <li>- uchinchi salib yurishi.</li> </ul> |
|--|---|

## DARS REJASI

| T.s  | Darsning bosqichlari                       | Vaqt |
|------|--|------|
| I.   | Tashkiliy qism.                            | 2    |
| II.  | O'tilgan dars mavzusi bo'yicha takrorlash. | 8    |
| III. | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish. | 10   |
| IV.  | Matn ustida ishlash.                       | 20   |
| V.   | Darsni yakunlash.                          | 3    |
| VI.  | Uyga vazifa.                               | 2    |

**I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro'y bergan eng muhim siyosiy voqealardan xabardor qilish.

**II. O'tilgan dars mavzusi bo'yicha takrorlash.**

Bu vazifa tarqatma material yordamida bajariladi. Shu maqsadda o'quvchilarga quyidagi savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi:

1- *kartochka*: Nega salib yurishi qatnashchilari kiyimlariga salib belgisini tikib olgan edilar?

2- *kartochka*: Salib yurishi deyilganda nima tushuniladi?

3- *kartochka*: Salib yurishi bo'imasligi uchun nimalar bo'imasligi kerak edi?

4- *kartochka*: Salib yurishlarining asosiy sababini qayd eting.

5- *kartochka*: Dehqonlar nega salib yurishida qatnashdilar?

6- *kartochka*: Ritsarlar nega salib yurishida qatnashdilar?

7- *kartochka*: Nega Rim cherkovi salib yurishiga tashkilotchilik qildi?

8- *kartochka*: Salib yurishi qaysi tabaqa xohish-istagi oqibati edi?

9- *kartochka*: Mayorat nima edi?

10- *kartochka*: Nega hech bir davlat salib yurishini to'xtatib qola olmagan?

11- *kartochka*: Salib yurishini boshlash uchun qanday bahona topildi?

*Javoblar eshitiladi va baholanadi.*

**III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

O'qituvchi bu vazifani doskaga yozib qo'yilgan quyidagi savollar yordamida bajaradi:

1. Salib yurishining boshlanishi va uning dehqonlar uchun oqibati.
2. Ritsarlarning urush harakatiga qo'shilishlari.

3. Quddus qirolligining tuzilishi.
4. Ikkinchı salib yurishi.
5. Uchinchi salib yurishi.

#### **IV. Matn ustida ishlash.**

Bu vazifa matn ustida ishlash uslubidan foydalanib bajariladi.

O'quvchilar matn ustida ishlab, quyidagi savollarga javob topadilar:

1. Salib yurishida qatnashgan dehqonlar nimaga erishdilar?
2. Ritsarlar salib yurishida nimaga erishdilar?
3. Birinchi salib yurishi qanday natija bilan tugadi?
4. Ikkinchı salib yurishining boshlanishiga nima sabab bo'lgan va u qanday natija bilan tugagan?
5. Nega uchinchi salib yurishi uyuşhtirildi, uning natijasi nima bo'ldi?

*Vazifani birinchi bo'lib bajargan o'quvchilardan 5 nafarining javobi eshitiladi va baholanadi.*

#### **V. Darsni yakunlash.**

O'quvchilarning darsdagi faolligi darajasiga baho beriladi. Eng faol o'quvchilar rag'batlantiriladi. Ularning matn ustida ishslash va matn tuzishda yo'l qo'ygan kamchilik hamda xatolari qayd etilib, bartaraf etish yo'llari ko'rsatiladi.

#### **VI. Uyga vazifa.**

Mavzu asosida berilgan savollarga savollarga javob topish.

### **22- dars. Keyingi salib yurishlari va oqibatlari**

#### **Darsning maqsadi.**

O'quvchilarga keyingi salib yurishlari, ularning natijalari, yurish to'xtatilishining sabablari va oqibatlari haqida bilim berish. Urush va bosqinchilikka qarshi kurash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

#### **Darsning jihizi.**

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „To'rtinchi salib yurishi“ xaritasi.
4. Doska, bo'r.
5. Vatman qog'oz, flamaster.

#### **Test topshiriqlari.**

Bu o'tilgan dars bo'yicha o'quvchilar bilimi darajasini aniqlash maqsadida tuziladi.

**Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- to‘rtinchi salib yurishi;
- to‘rtinchi yurishning o‘ziga xos xususiyatlari;
- lotin imperiyasi; – keyingi salib yurishlari;
- salib yurishlari oqibatlari.

**DARS REJASI**

| T.r. | Darsning bosqichlari                        | Vaqt |
|------|---|------|
| I.   | Tashkiliy qism.                             | 2    |
| II.  | O‘tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash. | 12   |
| III. | Yangi darsni tushuntirish.                  | 12   |
| IV.  | Guruhlarda ishlash.                         | 14   |
| V.   | Dars yakunini chiqarish.                    | 3    |
| VI.  | Uyga vazifa.                                | 2    |

**I. Tashkiliy qism.**

O‘quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyodagi eng so‘nggi siyosiy voqealardan xabardor qilish.

**II. O‘tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Bu vazifa test topshiriqlari yordamida bajariladi. Avvaldan tayyorlangan 15 ta test 5 tadan 3 guruhga bo‘lib beriladi. Binobarin, har bir guruh 5 tadan test savoliga javob topadi.

**1. Salib yurishi qachon boshlangan?**

- A. 1196- yil.
- B. 1096- yil.
- C. 1296- yil.
- E. 1206- yil.
- F. 1204- yil.

**2. Salibchilarning dehqonlardan tuzilgan qo‘shini taqdiri nima bo‘ldi?**

- A. Kichik Osiyoda joylashib oldilar.
- B. Bolqonga joylashib oldilar.
- D. Saljuqlar tomonidan tor-mor etildi.
- E. Quddusni egalladilar.
- F. Vatanlariga qaytib keldilar.

**3. Salibchi-ritsarlar Quddus shahrini qachon egalladilar?**

- A. 1097- yil.

- B. 1098- yil.
- D. 1198- yil.
- E. 1099- yil.
- F. 1100- yil.

**4. *Salibchi-ritsarlar yurishi nima bilan tugadi?***

- A. Quddusning vayron etilishi bilan.
- B. Quddus musulmonlardan tozalandi.
- D. Quddusning Vizantiyaga qo'shilishi bilan.
- E. Quddus qirolligi tashkil etildi.
- F. A va D.

**5. *Ikkinchı salib yurishi boshlanishiga nima sabab bo'ldi?***

- A. Quddus qirolligining Papa hokimiyatini rad etganligi.
- B. Feodallarning yanada ko'proq boylikka ega bo'lishiga intilishi.
- D. Turk bekliklarining Quddus qirolligini iskanjaga olishi.
- E. Ritsarlarning qirol hokimiyatini tan olmay qo'yganligi.
- F. A va E.

**6. *Ikkinchı salib yurishida qaysi davlat hukmdorlari qatnashdi?***

- A. Fransiya, Angliya.
- B. Angliya, Germaniya.
- D. Germaniya, Chexiya.
- E. Fransiya, Chexiya.
- F. Fransiya, Germaniya.

**7. *Ikkinchı salib yurishi nima bilan tugadi?***

- A. Salibchilarning turk bekliklarini to'la bo'ysundirishi bilan.
- B. Yurish tamomila barbod bo'ldi.
- D. Quddus qirolligi kuchaydi.
- E. Salibchilar Quddusdan quvib chiqarildi.
- F. A va D.

**8. *Salibchilar qachon Quddusdan quvib chiqarilgan?***

- A. 1187- yil.
- B. 1147- yil.
- D. 1171- yil.
- E. 1193- yil.
- F. 1189- yil.

**9. *Nega uchinchi salib yurishi uyushtirilgan?***

- A. Vizantiya Quddus qirolligini qo'llab-quvvatlamay qo'ygani uchun.
- B. Musulmon davlatlari Quddusni qurshovga olganligi uchun.

- D. Quddusni musulmonlardan qaytarib olish uchun.  
 E. Vizantiyani istilo qilish uchun.  
 F. Quddus qirolining istilochilik urushlariga yordam berish uchun.

**10. *Uchinchi salib yurishi boshlangan yil.***

- A. 1189- yil.  
 B. 1187- yil.  
 C. 1289- yil.  
 D. 1190- yil.  
 E. 1200- yil.

**11. *Uchinchi salib yurishida ishtirok etgan davlatlar.***

- A. Fransiya, Germaniya, Vizantiya.  
 B. Germaniya, Italiya, Angliya.  
 C. Italiya, Fransiya, Germaniya.  
 D. Angliya, Polsha, Germaniya.  
 E. Fransiya, Germaniya, Angliya.

**12. *Uchinchi salib yurishi nima bilan tugadi?***

- A. Quddusning qayta ishg'ol etilishi bilan.  
 B. Quddus qirolligining tiklanishi bilan.  
 C. Salibchilarning Misr sultonini o'rtaida shartnoma tuzishi bilan.  
 D. Misrning ishg'ol etilishi bilan.  
 E. Konstantinopolning bosib olinishi bilan.

**13. *Uchinchi salib yurishida salibchilar qaysi qirollikni tuzdilar?***

- A. Lotin.  
 B. Nikey.  
 C. Kipr.  
 D. Krit.  
 E. Anadolu.

**14. *Misr va salibchi davlatlar shartnomasida tomonlar nimaga kelishganlar?***

- A. Quddus qirolligini tugatishga.  
 B. Quddusning Misrga o'lpon to'lab turishiga.  
 C. Misrning salibchilarga o'lpon to'lab turishiga.  
 D. Xristianlarning Quddus shahriga bemalol ziyoratga kelib-ketishlariga.  
 E. Quddusning Misrga qo'shib olinishiga.  
**15. *Misr va salibchi davlatlar shartnomasi qachon imzolandi?***  
 A. 1210- yil.

- B. 1187- yil.
- D. 1189- yil.
- E. 1192- yil.
- F. 1202- yil.

*Har bir guruhning javobi eshitiladi. O'quvchilar baholanadi.*

### **III. Yangi darsni tushuntirish.**

Yangi dars mavzusi mazmuni quyidagi reja asosida tushuntirilad:

1. To'rtinchi salib yurishi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. To'rtinchi salib yurishining yakunlari.
3. Keyingi (5 – 8-) salib yurishlarining natijalari.
4. Salib yurishlarining to'xtashi. Salib yurishlarining oqibatlari.

### **IV. Guruhlarda ishlash.**

O'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi va ularning har biriga alohida topshiriq beriladi.

#### **1- guruhga topshiriq.**

Salib yurishlari tashkilotchilari, ishtirokchilari va yurish bilan bog'liq muhim sanalarni aks ettiruvchi jadval tuzish va uni to'ladirish.

#### **2- guruhga topshiriq.**

1-, 2-, 3- salib yurishlari va ularning natijalarini aks ettiruvchi jadval tuzish va uni to'ldirish.

#### **3- guruhga topshiriq.**

4- va keyingi salib yurishlari natijalari, salib yurishlarining oqibatlarini aks ettiruvchi jadval tuzish.

#### **4- guruhga topshiriq.**

4- guruh darslik mavzusi oxirida berilgan „Mustaqil ish“ topshirig'ini bajaradi.

Topshiriq bajarib bo'lingach, o'quvchilar tayyorlagan jadvallar doskaga ilinadi. Topshiriqni bajarish sifati o'qituvchi tomonidan izohlanadi.

### **V. Dars yakunini chiqarish.**

Salib yurishlari bo'yicha yakuniy xulosa chiqariladi. O'quvchilar nimalarni bilib olganligi, nimalarni esda tutishlari zarurligi uqtiriladi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

### **VI. Uyga vazifa.**

Darslik mavzusi mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javob topish. Bugungi Quddus va Istanbul (Konstantinopol) shaharlari haqida ozgina bo'lsa-da, ma'lumot to'plab kelish.

## QO'SHIMCHA MA'LUMOT

*Vizantiya tarixshunosining yozganlaridan.*

Bosh ibodatxona (Avliyo Sofiya)ning talon-toroj qilinganligini g'azablanmay eshitib bo'lmaydi. Askarlar benihoya go'zal va nodir buyumlarni parchalab, taqsimlab olishdi. Ibodatxonadan muqaddas idishlar, tengi yo'q, kamyob san'at buyumlarini, kumush va oltinni tashib ketish lozim bo'lganda, ular egarlangan xachir va otlarni ibodatxonaning dahliziga olib kirdilar.

Yalinib-yolvorish bilan bu vahshiy xalqning ko'nglini yumshatish, unda rahm-shafqat uyg'otish amrimahol edi. Har bir kimsa o'z jonini saqlash payida bo'lishi kerak edi: ko'chalarda yig'i-sig'i va dod-faryod, chorsularda ho'ngrash, ibodatxonalarda shikoyatomuz ingrashlar eshitilardi. G'arb qo'shnirlari shu tariqa hech kimga zarracha bo'lsa ham shafqat qilmay qonunga xilof ish tutdilar. Hammani pul va buyumlaridan, uy va kiyim-boshlaridan mahrum etdilar va hech kimning hech nimasini qoldirmay taladilar.

Dushmanlar vaqtlarini sharm-hayosiz o'yin-kulgi bilan o'tkazardi. Ular har kuni ichkilikbozlik qilar, bo'kib ovqat yerdii. Kibr-havoga mahliyo bo'lgan bu befarosat odamlarning kim qaysi shahar va mamlakatga ega bo'ladi, deb chek tashlaganini ko'rib hayron qolmay iloj yo'q edi.

## **V bob. G'arbiy Yevropada markazlashgan davlatlarning tashkil topishi**

### **23- dars. Fransiyada markaziy hokimiyatning vujudga kelishi**

#### ***Darsning maqsadi.***

O'quvchilarga Fransiyani yagona davlatga birlashtirish shart-sharoitlari qay tariqa yetila borganligi, birlashtirish ishini boshlagan qirollar faoliyati haqida bilim berish. Bugungi Fransiya to'g'risida qisqacha ma'lumot berish. O'quvchilarni kuchli davlat qurish ruhi-da tarbiyalash.

#### ***Darsning jahozi.***

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „XII – XIII asr oxirlarida Fransiya“ xaritasi.

4. Vatman qog'oz, flamaster.

5. Doska, bo'r.

### **Tarqatma material.**

O'quvchilarning o'tilgan dars bo'yicha bilimlarini aniqlash maqsadida tayyorlanadi.

### **Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- feodal tarqoqlik oqibatlari; - birlashtirish shart-sharoitlari;
- birlashtirish dushmanlari; - qirol hokimiyati tayanchlari.

### **DARS REJASI**

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>                 | <b>Vaqt</b> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                             | 2           |
| II.         | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash. | 8           |
| III.        | Yangi mavzuni tushuntirish.                 | 8           |
| IV.         | Aqliy hujum.                                | 12          |
| V.          | Guruhlarda ishlash.                         | 10          |
| VI.         | Darsni yakunlash.                           | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                                | 2           |

### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni xalqaro siyosiy hayotning eng muhim voqealaridan xabardor qilish. Uyga berilgan mustaqil topshiriq, ya'ni Quddus shahri haqidagi ma'lumotlarni xalqaro hayot voqealari bilan bog'lash.

### **II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Bu vazifa o'quvchilarga quyidagi savollar yozilgan kartochkalarni tarqatish orqali bajariladi:

1- *kartochka*: To'rtinchi salib yurishi qachon boshlandi?

2- *kartochka*: To'rtinchi salib yurishining o'ziga xos ikki xusu-siyatini qayd eting.

3- *kartochka*: To'rtinchi salib yurishi qanday natijalarga olib kelgan?

4- *kartochka*: Keyingi salib yurishlari qanday natija bilan tugadi?

5- *kartochka*: 1291- yil salibchilar uchun qanday yil bo'lib tarixga kirdi?

6- *kartochka*: Bu iboralar sizga nima ma'noni anglatadi?

- XIII asr oxirida Yevropada qishloq xo'jaligi yuksaldi;

- feodal daromadi ko‘paydi;
  - og‘ir va xatarli urushlar kerak bo‘lmay qoldi.
- 7- kartochka:** Bu iboralar sizga nimalarni anglatadi?
- qolganlarning ko‘zini ochdi;
  - Papa va feodallar da‘vatiga ishonmay qo‘ydi;
  - hosilsizlikdan kam qiynaladigan bo‘ldilar;
  - to‘kin hayot izlashdan shaharga qochib ketish afzal edi;
  - shaharlarning o‘sishi ularga ish topish imkonini berdi.
- 8- kartochka:** Bu iboralar sizga nimani anglatadi?
- Yevropa davlatlari o‘rtasidagi nizolar;
  - talabni oshirib yubordi;
  - qiroq qo‘s Shinida xizmat qilish afzal bo‘lib qoldi.
- 9- kartochka:** Bu iboralar sizga nimani anglatadi?
- Yevropada markazlashgan davlatning qaror topa borishi;
  - cherkovning oldingi mavqeini pasaytira boshladи.
- 10- kartochka:** Salib yurishlari oqibatlari ro‘yxatini tuzing.
- Ro‘yxatda quyidagi olti holat o‘z aksini topgan bo‘lsa, o‘quvchi matndan to‘g‘ri xulosa chiqargan bo‘ladi.*
1. Salib yurishidan kuzatilgan asosiy maqsadga erishilmadi.
  2. O‘rta Yer dengizi orqali olib boriladigan savdoda yetakchilik Italiya shaharlariga o‘tdi.
  3. Yevropaliklar dehqonchilik ekinlarining yangi turlarini yetishtirishni o‘rganib oldilar.
  4. Salibchilar Sharq madaniy hayoti G‘arbiy Yevropa madaniy hayotidan ustun ekanligiga amin bo‘ldilar.
  5. Sharqdan shaxmat o‘yini kirib keldi.
  6. G‘arbiy yevropaliklar Sharqda turli dinlarning o‘zaro murosada yashayotganligiga guvoh bo‘ldilar.
- O‘quvchilar javobi umumlashtiriladi. Topshiriqni to‘g‘ri bajarganlar rag‘batlantiriladi.*

### **III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

O‘qituvchi hikoya-suhbat uslubidan foydalanib, quyidagi reja asosida dars mavzusi mazmunini tushuntiradi:

1. IX asrda Fransiya hayotida yuz bergen hodisa.
2. Fransiyaning birlashuviga asos bo‘lgan shart-sharoitlar.
3. Birlashtirish tarafdozlari va dushmanlari.
4. Mamlakatni birlashtirish uchun kurashning boshlanishi.

#### **IV. Aqliy hujum.**

*Yangi dars mavzusi mazmunini o'quvchilar qanchalik o'zlashtirib olganliklarini aniqlash hamda darsning keyingi bosqichiga asos solish maqsadida „Aqliy hujum“ o'tkaziladi.*

#### **Savollar va javoblar.**

1. IX asrda Fransiyada qanday hodisa yuz bergen edi? – *Feodal tarqoqlik.*
2. „Qirol tenglarning birinchisi, xolos“ iborasi nimani anglatadi? – *Gersog va graflarning amalda qirol hokimiyatidan mustaqil bo'lganligini.*
3. „Ishlab chiqaruvchi kuchlar o'sdi“ iborasi qanday ma'noni anglatadi? – *Dehqonlar va hunarmandlarning ko'plab mahsulot yetishtirganligini.*
4. Savdo-sotiqning rivojlanishi nimaga olib kelgan? – *Mamlakat turli qismlari o'rtaida mehnat taqsimotining vujudga kelishiga.*
5. Mehnat taqsimoti nima? – *Har bir viloyatning ishlab chiqarishning u yoki bu sohasiga ixtisoslashuvi.*
6. Mehnat taqsimoti mamlakat hayotida qanday rol o'ynagan? – *Viloyatlarning o'zicha yashash holatiga barham bergen. Ularni birligi bilan bog'lab tashlagan.*
7. Nega feodal barshchina va obrokni pul to'loviga o'tkaza boshlagan? – *Nodir hunarmandchilik va Sharqdan keltiriladigan mashhur tovarlarni sotib olish uchun, pulga ehtiyojining oshganligi uchun.*
8. Obrokni pul bilan to'lash dehqonga nima bergen? – *O'z chek yerida yanada ko'proq mahsulot yetishtirish imkonini bergen.*
9. Dehqonning ko'proq mahsulot yetishtirishi oxir-oqibatda nimaga olib kelgan? – *Ortiqcha pulga ega bo'lishga. Natijada u bora-bora o'z ozodligini pulga sotib olish imkoniga ega bo'lgan.*
10. „O'z erkini sotib oldi“ iborasining mazmuni? – *Krepostnoyning qaramlikdan ozod bo'lib, erkin ishlab chiqaruvchiga aylanishi.*
11. Fransiya taraqqiyoti yo'llidagi asosiy to'siq nima edi? – *Feodallar o'rtaсидаги о'заро уруш.*
12. Mamlakat ichidagi o'zaro urushlarning manbai? – *Feodal tarqoqlik.*
13. Mamlakat taraqqiyoti yo'llidagi to'siqlarning tugatilishi nimaga bog'liq edi? – *Kuchli qirol hokimiyatining qaror topishiga.*
14. Kuchli qirol hokimiyatining qaror topishi nimaga bog'liq edi? – *Mamlakatni yagona davlatga birlashtirishga.*

15. Mamlakatni birlashtirishning asosiy dushmanlari kim edi? – *Yirik feodallar.*
16. Nega yirik feodallar mamlakatni birlashtirishga qarshi bo'lganlar? – *Birlashish ularni mavqelaridan mahrum bo'lishiga olib kelishi uchun.*
17. Aholining qaysi qatlami mamlakatni birlashtirishda qirol tayanchiga aylangan? – *Hunarmandlar, savdogarlar va ritstarlar.*
18. Shahar va qirol munosabatlari qanday edi? – *Shaharlar qirolni qo'llab-quvvatlagan. Qirol shaharlarga o'z-o'zini boshqarish huquqini bergen. Buning evaziga shaharlar qirolga pul va qo'shin yuborgan.*

*E'tibor bergen bo'lsangiz, „Aqliy hujum“ ga 12 daqiqa berilmoqda. Chunki mavzu mazmuni shuni talab etadi. O'quvchilar savollarga albatta shunday javob qaytarsalar, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Lekin ular baribir o'quvchi. Hamma narsani esda saqlab qolmaydilar. Shu tufayli o'qituvchining o'quvchilar javobiga aniqlik kiritishi va to'ldirishi maqsadga muvoofiq.*

#### **V. Guruhlarda ishlash.**

O'quvchilar uch guruhgaga bo'linadi. Ularga tayanch tushunchalardan matn tuzish vazifasi topshiriladi.

##### **1- guruhgaga topshiriq.**

IX asr. Feodal tarqoqlik. 14 ta mulk. Gersog va graflar. Tenglarning birinchisi.

##### **2- guruhgaga topshiriq.**

Ishlab chiqaruvchi kuchlar. Savdo-sotiq. Mehnat taqsimoti. Feodal majburiyat. Pul bilan almashtirish. Ortiqcha pul. Erkinlikni sotib olish. Erkin ishlab chiqaruvchi.

##### **3- guruhgaga topshiriq.**

O'zaro urushlar. Asosiy to'siq. Kuchli qirol hokimiysi. Yagona davlat. Birlashtirish dushmanlari. Qirol tayanchlari. Shaharlar va qirol.

*Matn sifatiga baho beriladi. Taqqoslanadi. To'ldiriladi.*

#### **VI. Darsni yakunlash.**

Darsda nimalarga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar, guruhlar rag'batlantiriladi.

#### **VII. Uyga vazifa.**

Darslikdagi savollarga javob topish.

## 24- dars. Fransiyada toifaviy monarxiyaning qaror topishi

### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga birlashtirish ishiga hissa qo'shgan qirollar, toifalar, General shtatlar va Fransiyada toifaviy monarxiyaning vujudga kelishi haqida bilim berish. O'quvchilarни demokratiya va huquqiy davlat qurish ruhida tarbiyalash.

### *Darsning jahozi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „IX – XII asrlarda Fransiya“ xaritasi.
4. „XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida Fransiya“ xaritasi.
5. Doska, bo'r.

### *Test topshiriqlari.*

O'quvchilarning o'tgan dars mavzusi mazmuni bo'yicha olgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida tuziladi.

### *Yangi dars mavzusi mazmunining asosiy tushunchalari:*

- |                                      |                          |
|--------------------------------------|--------------------------|
| – Angliyaning Fransiyadagi mulklari; | – Normandiya gersogligi; |
| – Filipp IV tadbirleri;              | – markazlashgan davlat;  |
| – aholi toifalar;                    | – General shtatlar;      |
| – toifaviy monarxiya.                |                          |

### DARS REJASI

| T.r. | Darsning bosqichlari                        | Vaqt |
|------|---|------|
| I.   | Tashkiliy qism.                             | 2    |
| II.  | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash. | 8    |
| III. | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.  | 10   |
| IV.  | Matn ustida ishlash.                        | 14   |
| V.   | „To'rtinchisi ortiqcha“ o'yini.             | 6    |
| VI.  | Dars yakunini chiqarish.                    | 3    |
| VII. | Uyga vazifa.                                | 2    |

### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarни darsga jalb etish. Ularga dunyoda ro'y bergan eng muhim siyosiy voqealar haqida ma'lumot berish.

### **II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Bu vazifa quyidagi test topshiriqlari yordamida bajariladi:

**1. IX asrda Fransiyada qanday hodisa yuz bergen?**

- A. Angliya bosib olgan.
- B. Arab xalifaligi bosib olgan.
- C. Feodal tarqoqlik yuz bergen.
- E. Kuchli qirol hokimiyati qaror topgan.
- F. 14 ta feodal mulkka bo'linib ketgan.

**2. „Qirol tenglarning birinchisidir, xolos“ iborasi nimani anglatadi?**

- A. Qirol hokimiyatining qudratililigini.
- B. Davlatning markazlashganligini.
- D. Qirolning katta yer-mulk egasi ekanligini.
- E. Qirol hokimiyatining zaifligini.
- F. A va B.

**3. Mehnat taqsimoti nima?**

- A. Mamlakat viloyatlarining ishlab chiqarishning u yoki bu sohasiga ixtisoslashuvi.
- B. Mehnat unumtdorligi.
- D. Shaharning qishloqdan ajralib chiqishi.
- E. Shaharlarning hunarmandchilikka moslashuvi.
- F. V va D.

**4. Mehnat taqsimotining ahamiyati nimadan iborat bo'lgan?**

- A. Savdo-sotiqni rivojlantirgan.
- B. Har bir viloyatning o'z holicha yashashiga barham bergen.
- D. Mamlakatni birlashtirish uchun sharoit yaratgan.
- E. Feodal tarqoqlikni tugatgan.
- F. Natural xo'jalikka barham bergen.

**5. Fransiyani birlashtirish yo'lidagi asosiy ichki to'siq.**

- A. Qirollarning sustkashligi.
- B. Feodallarning qirol tayanchi ekanligi.
- D. Feodal mulklar o'rtasidagi o'zaro urushlar.
- E. Feodallarning dehqonlarga zulm qilishi.
- F. A va E.

**6. Obrokni pul to'loviga almash tirishning ahamiyati.**

- A. Qaram dehqonlarni bozor bilan bog'lab qo'ygan.
- B. Qaram dehqonga o'z chek yerida yanada ko'proq mahsulot yetishtirishga imkon yaratgan.
- D. Qaram dehqon o'z erkini pul to'lab sotib olish imkoniga ega bo'lgan.

E. Dehqonni erkin ishlab chiqaruvchiga aylantirgan.

F. Javoblarning barchasi to‘g‘ri.

**7. Fransiyada osoyishtalik hukm surishi nimaga bog‘liq edi?**

A. Qudratli qiroqla.

B. Kuchli qirol hokimiyatining mavjudligiga.

D. Savdo-sotiqning rivojlanishiga.

E. Chet davlatlar bilan yaxshi munosabat o‘rnatalishiga.

F. Qirol va yirik feodallar o‘rtasida ittifoqning bo‘lishiga.

**8. Fransiyani birlashtirishda qirol kimlarga tayangan?**

A. Yirik feodallarga.

B. Ritsarlarga.

D. Cherkovga.

E. Shaharlarga.

F. B va E.

**9. Fransiyani birlashtirishning asosiy dushmani kimlar edi?**

A. Yirik feodallar.

B. Ruhoniylar.

D. Shaharlar.

E. Ritsarlar.

F. A va B.

To‘g‘ri javoblar aniqlanadi va baholanadi.

**III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

Bu vazifa quyidagi reja asosida bajariladi:

1. Fransiyani birlashtirishning boshlanishi.

2. Fransiyada toifaviy tuzum.

3. General shtatlarning chaqirilishi.

4. Toifaviy monarxiyaning qaror topishi.

*O‘qituvchi mavzu mazmunini yoritishda hikoya-suhbat uslubidan foydalanadi. Atamalar mazmuniga izoh beradi.*

**IV. Matn ustida ishlash.**

Buning maqsadi o‘quvchilar mavzu mazmunini yaxshi o‘zlashtirib olishlarini ta‘minlashdir.

Bu vazifa o‘quvchilar oldiga quyidagi savollarni qo‘yish va ularga matndan javob toptirish orqali bajariladi.

Vazifaning sifatli bajarilishiha erishish uchun avval o‘quvchilar matnni ichlarida to‘liq o‘qib chiqishlari zarur. Savollar avvaldan doskaga yozib qo‘yilgan bo‘ladi.

### **Savollar.**

1. Fransiya qirollari Filipp II va Filipp IV lar mamlakatni bishlashtirish ishiga qanday hissa qo'shganlar?
2. Aholining uch toifasini, ularning vazifalarini aniqlang.
3. General shtatlar nima? U nega chaqirilgan va uch palatali bo'lgan?
4. „Markazlashgan davlat“ atamasiga izoh bering.
5. „Toifaviy monarxiya“ atamasiga izoh bering.

E'tibor bering, o'quvchilarning matn ustida ishlashlari uchun berilgan tayanch savollar o'qituvchining yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish bo'yicha tuzgan savollaridan farq qiladi. Aynan shunday bo'lishi kerak. Nega? Birinchidan, bu o'quvchi uchun og'irlik qilmaydi. Ikkinchidan, o'quvchilarni darslik matnidan eng muhim jihatlarnigina topishga xizmat qiladi.

Ishni avval tugatgan dastlabki 5 o'quvchining javobi (bittadan savolga) eshitiladi. Boshqa o'quvchilar to'ldirishi mumkin. Qolgan o'quvchilarning ishlari yig'ib olinadi. O'qituvchi kelgusi darsgacha ularni tekshirib, baholab keladi.

### **V. „To'rtinchisi ortiqcha“ o'yini.**

Bu vazifa topshiriqlari doskaga yoziladi. O'quvchilar uni qisqa vaqt ichida bajarishlari lozim.

1. Fransiya. Angliya. Normandiya. Daniya.
2. Filipp II. Filipp IV. Vilgelm. Fridrix XI.
3. Filipp II. Islohot. Okrug. Normandiya.
4. Gubernator. Soliq. Qo'shin. Urush e'lon qilish.
5. Filipp IV. Tanga pul. Kuchli harbiy flot. Markazlashgan davlat.
6. Ruhoniylar. Dvoryan. Ritsar. Hunarmand.
7. Savdogarlar. Hunarmandlar. Ruhoniylar. Dehqonlar.
8. Filipp IV. Rim Papasi. 1302- yil. 1309- yil.
9. Uch toifa. Monarxiya. Toifaviy monarxiya. Mutlaq monarxiya.

*Qaysi topshiriqni qaysi o'quvchi birinchi bajarsa, darrov qo'l ko'tarib o'qituvchiga bildiradi. Bu o'yin topqirlik vazifasini ham bajaradi.*

### **VI. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimaga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

### **VII. Uyga vazifa.**

Matn oxiridagi savollarga javob topish. Matn so'nggida berilgan „Mustaqil ish“ topshirig‘ini bajarib kelish.

## 25- dars. Fransiyani birlashtirishni tugallash yo‘lida

### *Darsning maqsadi.*

O‘quvchilarga Fransiyani birlashtirish yo‘lidagi asosiy tashqi to‘sinq, yuz yillik urush, uning oqibatlari haqida bilim berish. Ularni mustaqillikni mustahkamlash, ozodlik uchun kurash ruhida tarbiyalash.

### *Dars jihozи.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „Yuz yillik urush“ xaritasi.
4. Doska, bo‘r.

### *Tarqatma material.*

O‘quvchilarning o‘tgan dars mavzusi mazmunini qanchalik o‘zlashtirib olganliklarini aniqlash maqsadida tuziladi.

### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- tashqi to‘sinq; – Angliya; – Fransiya munosabati;
- yuz yillik urush; – Jakeriya qo‘zg‘oloni; – sulk shartnomasi.

### DARS REJASI

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>         | <b>Vaqt</b> |
|-------------|-------------------------------------|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                     | 2           |
| II.         | O‘tilgan dars mavzusini takrorlash. | 10          |
| III.        | Yangi dars mavzusini tushuntirish.  | 10          |
| IV.         | Guruhlarda ishslash.                | 12          |
| V.          | Krossvord tuzdirish.                | 6           |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.            | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                        | 2           |

### **I. Tashkiliy qism.**

O‘quvchilarни darsga jalb etish. Ularni dunyoning eng so‘nggi muhim siyosiy voqealaridan xabardor qilish.

### **II. O‘tilgan dars mavzusini takrorlash.**

1. Avvalo, uyga topshiriq qilib berilgan mustaqil ishning qanday bajarilganligi aniqlanadi.

2. O'qituvchi avvalgi darsda o'quvchilarning yig'ib olingen mustaqil ishlari natijalarini ma'lum qiladi.

### **3) Quyidagi kartochkalarini tarqatadi:**

1- *kartochka*: Fransiyani markazlashgan davlatga birlashtirish yo'lidagi asosiy ichki dushman kuchni qayd eting.

2- *kartochka*: Nega feodallar markazlashgan davlatga qarshi bo'lganlar?

3- *kartochka*: Qirol markazlashgan davlat tuzish uchun kurashda kimlarga tayandi?

4- *kartochka*: Qirol nega General shtatlar chaqirgan?

5- *kartochka*: Fransiya aholisining uch toifasini qayd eting.

6- *kartochka*: Markazlashgan davlat nima?

7- *kartochka*: „Toifaviy monarxiya“ atamasiga izoh bering.

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

O'qituvchi darsning bu bosqichini quyidagi reja asosida bajaradi:

1. Fransiya – Angliya munosabatlari.

2. Yuz yillik urushning sabablari.

3. Fransiyada og'ir ichki vaziyatning vujudga kelishi.

4. Jakeriya qo'zg'oloni va uning oqibati.

5. Angliya bilan sulh shartnomasining imzolanishi.

### **IV. Guruhlarda ishslash.**

O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi. Ularning har biriga alohida-alohida topshiriq beriladi.

#### **1- *guruhgaga topshiriq*.**

Angliya—Fransiya o'rtaida boshlangan yuz yillik urushning sabablarini aniqlang va ularni ketma-ketlik izchilligi tartibida yozing.

#### **2- *guruhgaga topshiriq*.**

Urush qay tariqa boshlangani, nega Fransiyada og'ir ichki vaziyat vujudga kelganligining sabablarini aniqlang va ularning jadvalini tuzing.

#### **3- *guruhgaga topshiriq*.**

Jakeriya qo'zg'oloni, uning sabab va oqibatlarini aks ettiruvchi jadval tuzish.

#### **4- *guruhgaga topshiriq*.**

Angliya bilan imzolangan sulh shartnomasining mazmunini, sulh imzolangan 1360- yilda yurtimizda qanday tarixiy voqealarni yuz ber-

ganligini, Karl V ning Fransiyani mustahkamlash borasida amalga oshirgan ishlarini, Fransiyada yuz bergan siyosiy inqiroz sabablarini aniqlash.

*Javoblar tinglanadi va baholanadi.*

#### **V. Krossvord tuzdirish.**

Bu vazifa har bir guruhg'a bittadan krossvord tuzish topshirig'ini berish orqali bajariladi.

Bu topshiriq ishning sifatiga ko'ra baholanadi.

#### **VI. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimalarga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

#### **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu oxiridagi savollarga javob topish.

### **26- dars. Fransiyani birlashtirishning tugallanishi**

#### *Darsning maqsadi.*

Fransiyani birlashtirishni tugallash yo'lidagi og'ir kurash, Fransiya xalqining jasorati, xalq qahramoni Janna d'Ark, yuz yillik urushning tugashi, oqibatlari, mutlaq monarxiyaning qaror topishi haqida bilim berish. O'quvchilarni Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatish ruhida tarbiyalash.

#### *Darsning jihozlari.*

- 1., „Jahon tarixi“ darsligi.
- 2., „Yuz yillik urush (1337 – 1453)“ xaritasi.
- 3., „XV asrning ikkinchi yarmida Fransiya“ xaritasi.
- 4., „O'rta asrlar tarixi“ albomi.
5. Doska, bo'r.

#### *Test topshiriqlari.*

O'quvchilarning o'tgan dars mavzusi mazmunini qanchalik o'zlashtirib olganliklarini aniqlash maqsadida test topshiriqlari tuziladi.

#### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- Angliya bilan yangi urush;
- Karl VII xizmatlari;
- yuz yillik urushning eng muhim oqibati;
- mutlaq monarxiya;
- Fransiya birlashuvining ahamiyati.

## DARS REJASI

| T.r. | Darsning bosqichlari                        | Vaqt |
|------|---|------|
| I.   | Tashkiliy qism.                             | 2    |
| II.  | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash. | 8    |
| III. | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.  | 12   |
| IV.  | Guruhlarda ishlash.                         | 19   |
| V.   | Darsning yakunini chiqarish.                | 2    |
| VI.  | Uyga vazifa.                                | 2    |

**I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni eng so'nggi muhim xalqaro voqealardan xabardor qilish.

**II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Darsning bu bosqichi quyidagi test topshiriqlari orqali bajariladi:

**1. Nega Angliya – Fransiya munosabatlari keskinlashgan?**

- A. Angliyaning Yevropada yetakchilikka intilganligi uchun.
- B. Angliyaning Fransiya separatchilarini qo'llab-quvvatlagani uchun.
- C. Angliyaning Fransiya birlashuvini istamaganligi uchun.
- D. Angliyaning Fransiyadagi mulklaridan ajralishni istamaganligi uchun.

F. Xalqaro masalalarda Fransianing Angliyaga yon bosishni istamaganligi uchun.

**2. Angliya – Fransiya o'rtasida kelib chiqqan yuz yillik urushning boshlanishiga nima sabab bo'lgan?**

- A. Fransiya separatchilarining Angliyadan yordam so'rashi.
- B. Angliya qiroli Eduard III ning Fransiya taxtiga da'vogar bo'lib chiqishi.
- C. Filipp IV ning Eduard III ning Angliyadagi hokimiyatini tan olmaganligi.

E. Angliyaning Fransiya ichki ishlariga aralashishidan voz kechmaganligi.

- F. A va D.

**3. Yuz yillik urush boshlanganida Fransianing qaysi viloyati Angliyaga ittifoqchilik qildi?**

- A. Burgundiya.
- B. Flandriya.

D. Akvitaniya.

E. Sen-Jermen.

F. Tuluza.

**4. Qanday omillar Angliya qo'shinining g'alabasini ta'minladi?**

A. Separatchilar yordami.

B. Angliya qo'shinining har jihatdan ustunligi.

D. Fransiya qo'shinining urushga tayyor emasligi.

E. Fransiya qo'shinining umumiy safda turib jang qila olmasligi.

F. B va E.

**5. Puate jangida Angliya nimaga erishdi?**

A. G'alabaga erishdi.

B. Fransiya qiroli asir olindi.

D. G'arbiy va Shimoliy Fransiyaning katta qismini bosib oldi.

E. Fransiya flotini cho'ktirib yubordi.

F. Parij shahrini egalladi.

**6. Jakeriya qo'zg'olonining sabablari.**

A. Barcha mehnatga yaroqli dehqonlarning qo'shin safiga chaqirilganligi.

B. Dehqonlarning sudxo'rlar sirtmog'iga tushib qolganligi.

D. Urushning dehqonlarni xonavayron qilganligi.

E. Qirolning soliqlar miqdorini oshirganligi.

F. B va D.

**7. Jakeriya qo'zg'oloni qachon bo'lib o'tgan?**

A. 1365- yil.

B. 1361- yil.

D. 1358- yil.

E. 1337- yil.

F. 1356- yil.

**8. Jakeriya qo'zg'olonining ahamiyati.**

A. Angliyaga qarshi xalq qo'zg'oloniya aylandi.

B. Fransiyaning og'ir ahvolini yanada og'irlashtirdi.

D. Dehqonlarni to'lov evaziga shaxsiy qaramlikdan ozod etishni tezlashtirdi.

E. Feodallar majburiyatlarni ko'paytirmaydigan bo'ldilar.

F. B va E.

**9. 1360- yildagi Angliya – Fransiya sulhining Fransiya uchun oqibatlari.**

- A. Hududining 1/3 qismi Angliya qo'liga o'tdi.
- B. Akvitaniya viloyatidan voz kechdi.
- D. Eduard III ning Fransiya taxtiga da'vosi qonuniy deb tan olindi.
- E. Davlat mustaqilligini butunlay yo'qotdi.
- F. Angliya vassaliga aylandi.

#### **10. Siyosiy inqiroz nima?**

- A. Davlatning barham topishi.
- B. Hukmron tabaqalar o'rtasidagi kurash.
- D. Toj-taxt uchun kurashning kuchayishi.
- E. Davlatning bo'linib ketishi.
- F. Qirol hokimiyatining o'z ahamiyatini yo'qotishi.

*Topshiriqni boshqalardan avval bajarib bo'lgan 10 o'quvchining javobi eshitiladi. Keyin barcha o'quvchilar javoblarini doskaga avvaldan yozib qo'yilgan javoblarga solishtirib chiqadilar. Eng ko'p to'g'ri javob topgan o'quvchilar baholanadi.*

#### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

O'qituvchi bu vazifani quyidagi reja asosida bajaradi:

1. 1415- yilda Angliya va Fransiya o'rtasida boshlangan yangi urush va uning oqibatlari.
2. Janna d'Ark qahramonligi va uning qismati.
3. Yuz yillik urushning tugashi.
4. Fransiyada mutlaq monarxiyaning qaror topishi.
5. Fransiyani birlashtirishning ahamiyati.

#### **IV. Guruhlarda ishlash.** (Qisqa konspekt tuzish va jadvallarni to'ldirish).

O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi va ularning har biriga alohida topshiriq beriladi:

##### **1- guruhga topshiriq.**

1415- yildagi yangi urush, uning oqibati, 1420- yilgi shartnoma, uning Fransiya uchun oqibati haqidagi ma'lumotlarga asoslanib „Fransiya va Angliya o'rtasida yangi urush va uning oqibatlari“ mavzusida qisqa konspekt tuzish.

##### **2- guruhga topshiriq.**

„Janna d'Ark“ matni asosida „Janna d'Ark — Fransiya milliy qahramoni“, „Yuz yillik urushning tugashi“, „Mamlakatni birlashtirishning tarixiy ahamiyati“ matnlari asosida „Mamlakatni birlashtirishning tarixiy ahamiyati“ mavzusida qisqa konspekt tuzish.

### **3-, 4-, 5-, 6- guruhlarga topshiriq.**

(Bu guruhlar ko'nikma va malakalari yaxshi shakllandan o'quvchilardan tuziladi). Ular „Fransiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi“ mavzusida tuzilgan quyidagi yakuniy jadvalni to'ldiradi. Har bir guruh 5 tadan topshiriq bajaradi. Bunda 24 – 27- § lardan foydalanadilar. Jadval doskaga osib qo'yildi.

Har bir guruh bajargan ish ko'rib chiqiladi va ish sifati baholanadi.

| <i>IX asrda<br/>Fransiyada yuz<br/>bergan<br/>hodisa.</i>   | <i>Fransiya<br/>nechta<br/>feodal<br/>mulkka<br/>bo'linib<br/>ketgan<br/>edi?</i> | <i>«Qirol<br/>tenglar-<br/>ning<br/>birinchisi,<br/>xolos»<br/>iborasi-<br/>ning<br/>mazmuni.</i> | <i>Feodal<br/>tarqoqlik<br/>nima-<br/>ning<br/>oqibati<br/>edi?</i>                 | <i>Nega<br/>feodal-<br/>lar markaz-<br/>lashgan<br/>hoki-<br/>niyat dush-<br/>mani<br/>edilar?</i> | <i>Birlash-<br/>tirishga<br/>hissa<br/>qo'shgan<br/>qirollar.</i>   | <i>Qirollar<br/>morda-<br/>katni<br/>birlash-<br/>tirishda<br/>kimarga<br/>tayan-<br/>gan?</i> |
|---|---|---|---|--|---|--|
| 1   | 2   | 3   | 4   | 5  | 6   | 7  |
|   |   |   |   |  |   |  |
| <i>Qaysi<br/>qirol<br/>davrida<br/>markaz-<br/>lashgan<br/>hoki-<br/>niyat<br/>qaror<br/>topdi?</i> | <i>Aholi-<br/>ning uch<br/>toifasi.</i>   | <i>General<br/>shtastlar<br/>nima va<br/>u necha<br/>palatali<br/>edi?</i>                        | <i>Toifaviy<br/>monar-<br/>xiya<br/>nima va<br/>u qachon<br/>vujudga<br/>keldi?</i> | <i>Yuz yillik<br/>urush-<br/>ning<br/>sabablari.</i>   | <i>Yuz yillik<br/>urush<br/>qachon<br/>boshlandi<br/>va uni<br/>boshlashga<br/>qanday<br/>bahona<br/>topildi?</i> | <i>1360 - yilgi<br/>sulh<br/>shartnomasi<br/>ning<br/>oqibati.</i>                             |
| 8   | 9   | 10  | 11  | 12   | 13  | 14   |
|   |   |   |   |  |   |  |
| <i>1420 - yilgi<br/>sulh<br/>shartnomasi<br/>ning<br/>oqibati.</i>                                  | <i>Janna<br/>d'Ark –<br/>Fransiya<br/>milliy<br/>qahra-<br/>moni.</i>             | <i>Fran-<br/>siyani<br/>ozod<br/>etishni<br/>tugallagan<br/>qirol.</i>                            | <i>1453 -<br/>yilning<br/>Fransiya<br/>tarixidagi<br/>o'rni.</i>                    | <i>Fran-<br/>siyani<br/>birlash-<br/>tirish<br/>qachon<br/>nihoya-<br/>siga<br/>yetkazildi?</i>    | <i>Fran-<br/>siyani<br/>birlash-<br/>tirish-<br/>ning<br/>tarixiy<br/>aha-<br/>miyati.</i>                        | <i>Mutlaq<br/>monar-<br/>xiya<br/>nima?</i>  |
| 15  | 16  | 17  | 18  | 19   | 20  | 21   |
|   |   |   |   |  |   |  |

## V. Darsning yakunini chiqarish.

Darsda nimalarga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar rag'batlaniriladi. Bundan buyon qisqa konsept tuzishda va jadval to'ldirishda yana nimalarga e'tibor berish lozimligi uqtiriladi.

## VI. Uyga vazifa.

Mavzu oxiridagi savollarga javob topish. Darsning matnida berilgan mustaqil ishni bajarib kelish.

### 27- dars. Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi

#### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga Angliyaning markazlashgan davlatga aylanishi tarixi haqida bilim berish. Bugungi Angliya davlati to'g'risida qisqacha ma'lumot berish. O'quvchilarni mustaqillik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

#### *Darsning jihizi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Doska, bo'r.

#### *Tarqatma material.*

Bu o'quvchilarning o'tgan darsda olgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida tuziladi.

#### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- Normandlar istilosi; – aholi ro'yxati;
- kuchli qirol hokimiyyati; – „Buyuk erkinlik xartiyasi“;
- Angliya parlamenti.

### DARS REJASI

| <i>T.r.</i> | <i>Darsning bosqichlari</i>                 | <i>Vaqt</i> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                             | 2           |
| II.         | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash. | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.  | 10          |
| IV.         | Aqliy hujum.                                | 9           |
| V.          | Guruhlarda ishlash.                         | 12          |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.                    | 2           |
| VII.        | Uyga vazifa.                                | 2           |

## I. Tashkiliy qism.

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro'y bergan eng muhim siyosiy voqealardan xabardor qilish.

## II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.

*Bu vazifa tarqatma materiallarga yozilgan quyidagi savol va topshiriqlar yordamida bajariladi:*

1- *kartochka*: 1420- yilgi Angliya – Fransiya shartnomasining Fransiya uchun 3 oqibatini qayd eting.

2- *kartochka*: Partizan urushi qanday urush?

3- *kartochka*: Janna d'Ark qaysi xizmati evaziga „Orlean qizi“ degan nom olgan edi?

4- *kartochka*: Fransiya qiroli nega Janna d'Arkni asirlikdan qutqarish chorasini ko'rmagan?

5- *kartochka*: Janna d'Arknинг qismati nima bilan tugagan?

6- *kartochka*: Yuz yillik urush qachon tugagan?

7- *kartochka*: Yuz yillik urushda Fransiya erishgan g'alabaning Fransiya uchun eng muhim tarixiy ahamiyati nimadan iborat bo'lgan?

8- *kartochka*: Mutlaq monarxiya nima?

9- *kartochka*: Mutlaq monarxiya bilan toifaviy monarxiya o'rtaqidagi farqni qayd eting.

10- *kartochka*: Mamlakatning birlashtirilishi Fransiyaga nima berdi?

*So'ng o'qituvchi uyga berilgan „Mamlakatni birlashtirishning oqibatlari“ jadvali qanday to'ldirilganligini 1 – 2 o'quvchiga o'qitib aniqlaydi.*

*Javoblarga izoh beriladi va baholanadi.*

**III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.** Bu vazifa quyidagi reja asosida bajariladi. O'qituvchi hikoya-suhbat uslubidan foydalanadi.

1. Angliyada Normand hukmronligi qay tariqa o'rnatilgan edi?

2. Angliyada qay tariqa kuchli qirollik hokimiyati qaror topgan?

3. „Buyuk erkinlik xartiyasi“ va uning mazmuni.

4. Angliyada parlamentning tashkil etilishi.

5. Qirol va parlament munosabatlari.

## IV. Aqliy hujum.

Darsning bu bosqichi yangi dars mavzusi mazmunini o'quvchilar qanchalik o'zlashtirib olganligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

### *Savollar va javoblar.*

1. Normandiya gersogligi qachon Angliyani bosib olgan? – *1066- yilda.*
2. Nega Normandiya yer-mulk egalari qirol Vilgelm I ga sodiqlik haqida qasamyod qilganlar? – *Angliyada ega bo'lib olgan katta yer-mulklarini qo'lidan chiqarmaslik uchun.*
3. Nega Angliyada 1086- yilda aholini ro'yxatga olish o'tkazilgan? – *Angliyada qancha yer maydoni borligini aniq bilish uchun.*
4. Vilgelm I qanday qilib Angliyada kuchli qirollik hokimiyatini vujudga keltira olgan? – *Yirik shaharlar qo'llab-quvvatlashiga erishganligi uchun. Bunga qanday erishgan? – Shaharlarni feodallar tazyiqidan himoya qilish yo'li bilan. Qirolni yana kimlar qo'llab-quvvatlaganlar? – Ritsarlar, cherkov, aholining erkin tabaqalari.*
5. Qirol hokimiyatining kuchayishi qanday ahamiyatga ega bo'lgan? – *Fransiyada markazlashgan hokimiyat tashkil topa borgan.*
6. „Buyuk erkinlik xartiyasi“ nima? – *Mamlakat erkin tabaqalari huquqlari, shaxsi va yer-mulkleri daxsizligini qonunlashtirib bergan hujjat.*
7. „Buyuk erkinlik xartiyasi“ qabul qilinishiga sabab bo'lgan asosiy omil? – *Qirolning obro'si tushib ketganligi.*
8. Qanday omillar qirolning obro'sini tushirib yuborgan? – a) *Fransiyaga qarshi urushdagi muvaffaqiyatsizlik; b) Rim Papasiga qarshi kurashdagi muvaffaqiyatsizlik; d) soliqlarning oshirilishi natijasida o'rta va mayda mulkdorlar madadidan mahrum bo'lganlik.*
9. Qirol hokimiyati obro'si tushishdan kimlar naf ko'rgan? – *Aholining barcha erkin tabaqasi. Ular qirolni „Buyuk erkinlik xartiyasi“ deb atalgan hujjatga imzo chekishga majbur etganlar.*
10. Xartiyaga ko'ra yirik yer-mulk egalari nimaga erishganlar? – *O'z yer-mulklarini meros qilib qoldirishga.*
11. „Tenglar sudi“ qanday ahamiyatga ega bo'ldi? – *Uning qarorisiz hech bir erkin fuqaro qamoqqa olinmagan. Mol-mulki musodara qilinmagan va mamlakatdan haydar chiqarilmagan.*
12. Shaharlar qanday huquqqa ega bo'ldi? – *Savdo-sotiq erkinligi va o'z-o'zini boshqarish huquqiga.*
13. Erkin dehqonlar va ritsarlar nimaga erishdilar? – *Ular ixtiyoridagi yerlar o'zlariga kafolatlab berildi.*
14. Qirol hokimiyati qay tariqa cheklab qo'yildi? – *Buyuk qirollik kengashini ta'sis etish bilan.*
15. Buyuk qirollik kengashiga qanday vakolatlar berildi? – *Uning roziligidiz yangi soliq joriy etilmas, mavjud soliqlarning miqdori oshirilmas edi.*
16. Xartiya kimlarning manfaatini chetlab o'tdi? – *Qaram dehqonlarning.*

17. Xartiyaning tarixiy ahamiyati nimadan iborat bo'ldi? – *U mamlakat bo'linib ketishining oldini oldi.*
18. Angliyada parlament qachon tashkil etildi va u nechta palatali edi? – *1265-yilda, 2 palatali.*

#### **IV. Guruhlarda ishlash.**

Darsning bu bosqichi o'quvchilarni 5 guruhga bo'lish, har biriga alohida topshiriq berish yo'li bilan bajariladi.

##### **1- guruhga topshiriq.**

„Normandlar istilosи oqibatlari“ matni bo'yicha konspekt tuzish.

##### **2- guruhga topshiriq.**

„Kuchli qiroл hokimiyati“ matnining konspektini tuzish.

##### **3- guruhga topshiriq.**

„Buyuk erkinlik xartiyasi“ matnining konspektini tuzish.

##### **4- guruhga topshiriq.**

„Angliya parlamenti“ matnining konspektini tuzish.

##### **5- guruhga topshiriq.**

Darslikdagi mustaqil ish – „Angliya va Fransiya parlamentlarini taqqoslash jadvali“ni to'ldirish.

*Har bir guruhning ishi tinglanadi va baholanadi.*

#### **VI. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimaga erishilganligi uqtiriladi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

#### **VII. Uyga vazifa.**

Darslik matni savollariga javob topish. Bugungi parlamentlar haqida qisqacha tasavvurga ega bo'lib kelish.

### **28- dars. Angliyaning XIV – XV asrlardagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti**

#### ***Darsning maqsadi.***

O'quvchilarga Angliyaning XIV – XV asrlar tarixiga oid ma'lumotlar berish. Ularni ozodlik uchun kurash, xalqparvarlik ruhida tarbiyalash.

#### ***Darsning jihizi.***

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Doska, bo'r.

### **Test topshiriqlari.**

Bu o'tilgan dars mavzusi mazmunini o'quvchilar qanchalik o'zlashtirib olganligini aniqlash maqsadida tuziladi.

#### **Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- barshchinaning siqib chiqarilishi; – ijtimoiy ziddiyatlar;
- jon solig'i; – Uot Tayler qo'zg'oloni;
- qo'zg'oloning ahamiyati; – tyudorlar sulolasi.

### **DARS REJASI**

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>                 | <b>Vaqt</b> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                             | 2           |
| II.         | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash. | 10          |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.  | 12          |
| IV.         | Guruhlarda ishlash.                         | 16          |
| V.          | Dars yakunini chiqarish.                    | 3           |
| VI.         | Uyga vazifa.                                | 2           |

#### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro'y bergan eng muhim siyosiy voqealardan xabardor qilish.

#### **II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Bu vazifa quyidagi test topshiriqlari orqali bajariladi.

##### **1. 1066-yilda Angliya qiroli taxtini egallagan Vilgelm kim edi?**

- A. Angliyaning Normandiya viloyati gersogi.
- B. Fransianing Normandiya gersogligi gersogi.
- C. Shotlandiya gersogi.
- E. Niderlandiya gersogi.
- F. Daniya gersogi.

##### **2. Vilgelm I qanday qilib kuchli qirollik hokimiyatini vujudga keltira oldi?**

- A. Ritsarlar ishonchiga erishish orqali.
- B. Mamlakat erkin aholisining qo'llashiga erishish orqali.
- D. Daniyaning uzuksiz hujumini tugatish orqali.
- E. Feodallarning o'zaro urushlariga chek qo'yish orqali.
- F. Javoblarning barchasi to'g'ri.

**3. „Buyuk erkinlik xartiyasi“ nima?**

- A. Angliya parlamenti.
- B. Qirol farmoni.
- D. Angliya qonunlari to‘plami.

E. Mamlakat erkin tabaqalari huquqlari, shaxsi va yer-mulkulari daxlsizligini qonunlashtirib bergan hujjat.

- F. Kuchli qirol hokimiyati.

**4. „Tenglar sudi“ga qanday huquq berilgan?**

A. Erkin fuqarolarni uning qarorisiz mamlakatdan haydab chiqarmaslik.

- B. Qirol farmoni ijrosini to‘xtatib qo‘ya olish.

D. Mamlakatning birorta erkin fuqarosini uning qarorisiz qamoqqa olmaslik.

- E. Fuqarolar mol-mulkini uning qarorisiz musodara qilmaslik.

- F. A, B va E.

**5. „Buyuk erkinlik xartiyasi“ shaharlarga qanday huquq berган?**

- A. Savdo-sotiq erkinligi.
- B. O‘z-o‘zini boshqarish.
- D. Soliqlar to‘lanishini kechiktirish.
- E. O‘z qonunlariga ega bo‘lish.

- F. A va B.

**6. „Buyuk erkinlik xartiyasi“ ritsarlar va erkin dehqonlar hayotida qanday ahamiyatga ega bo‘ldi?**

- A. Soliq to‘lashdan ozod bo‘lgan.
- B. Ular foydalanib kelayotgan yerlar ularga kafolatlab berilgan.
- D. Qo‘sinda doimiy xizmat qilish.
- E. Tenglar sudida himoyalanish.

- F. A va B.

**7. „Buyuk erkinlik xartiyasi“ Angliya tarixida qanday rol o‘ynagan?**

- A. Fuqarolarning totuv yashashini ta‘minlagan.
- B. Hammaning qonun oldida tengligini ta‘minlagan.
- D. Kishining kishiga qaramligini tugatgan.
- E. Qirol hokimiyatini cheklab qo‘ygan.
- F. Mamlakat bo‘linib ketishining oldini olgan.

**8. Parlament nima?**

- A. Davlatning qonun chiqaruvchi hokimiyati.
- B. Qirol farmonlarini tasdiqlovchi tashkilot.
- C. Toifaviy monarxiya.
- D. Mutlaq monarxiya.
- E. B va E.

**9. Angliyada parlament qachon joriy etilgan?**

- A. 1265- yil.
- B. 1295- yil.
- C. 1215- yil.
- D. 1216- yil.
- E. 1225- yil.

**10. Angliya parlamenti XIV asrda qanday huquqqa erishdi?**

- A. Qonun chiqarish.
- B. Soliqlarni tasdiqlash.
- C. Davlat amaldorlari jinoyatlari bo'yicha Oliy sud vazifasini bajarish.
- D. Qirol farmonlarini bekor qilish.
- E. A va E.

*Testni 1-, 2-, 3- bo'lib bajargan o'quvchilar javoblari eshitiladi va baholanadi. Qolganlar doskaga avvaldan yozib qo'yilgan perfakarta asosida javoblarini tekshirib chiqadilar.*

**III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

*O'qituvchi bu vazifani quyidagi reja asosida bajaradi. Hikoya-suhbat uslubidan foydalanadi.*

1. XIV asrda Angliyaning iqtisodiy taraqqiyoti natijasida yuz bergan o'zgarishlar.
2. Angliyada ijtimoiy ziddiyatning o'sishi.
3. Uot Tayler qo'zg'oloni.
4. Qo'zg'olonchilarining talablari.
5. Qo'zg'olonning yengilishi. Qo'zg'olonning ahamiyati.
6. Angliyada 30 yillik urush va uning yakuni.

**IV. Guruhlarda ishlash.**

Darsning bu bosqichi o'quvchilarning matn ustida ishlab, ulardagi eng muhim ma'lumotlarni ajratib olish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadini ko'zda tutadi. O'quvchilar 5 guruhga bo'linadi. Ular topshiriqni bajarishdan avval mavzu matnnini ichlarida o'qib chiqishlari lozim.

***1- guruhga topshiriq.***

„Iqtisodiy taraqqiyot“ mavzusidagi matndan eng muhim ma'lumotlarni ajrating. Ularning ro'yxatini tuzing.

***2- guruhga topshiriq.***

„Ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi“ mavzusidagi matndan eng muhim ma'lumotlarni ajrating. Ularning ro'yxatini tuzing.

***3- guruhga topshiriq.***

„Qo'zg'oloning boshlanishi“ mavzusidagi matndan eng muhim ma'lumotlarni ajrating. Ularning ro'yxatini tuzing.

***4- guruhga topshiriq.***

„Qo'zg'oloning ahamiyati“, „Tyudorlarning hokimiyat tepasiga kelishi“ mavzularidagi matnlardan eng muhim ma'lumotlarni ajrating. Ularning ro'yxatini tuzing.

***1- mavzu matnidagi asosiy ma'lumotlar.***

- XIV asrdan boshlab Angliyada katta yer egalari o'z yerlarini ijara bera boshlaganlar.

- Ijara haqi pul bilan olingan.

- Natijada barshchina butunlay siqib chiqarilgan.

- Bu katta ijobiy hodisa edi.

***2- mavzu matnidagi asosiy ma'lumotlar.***

- Ijara haqining oshib borishi dehqonlarni og'ir ahvolga solib qo'ygan.

- Vabodan aholining 1/3 qismi qirilib ketdi. Natijada ishchi kuchiga bo'lgan talab kuchaydi.

- Dehqonlar belgilangan joyga borib ishlashga majbur etilgan.

- 1377- yilda jon solig'i joriy etildi.

***3- mavzu matnidagi asosiy ma'lumotlar.***

- 1381- yilda dehqonlar qo'zg'oloni yuz berdi.
- Bu qo'zg'oloni Angliya tarixiga Uot Tayler qo'zg'oloni nomi bilan kirgan.

- 13- iyun kuni London shahri egallangan.

- 4 banddan iborat talab qo'yilgan.

- 15- iyun kuni Uot Tayler o'ldirildi.

- Qo'zg'oloni shafqatsizlik bilan bostirildi.

***4-, 5- mavzular matnidagi asosiy ma'lumotlar.***

- Barshchina to'la bekor qilindi.

- Dehqonlarga qarshi qonunlar yumshatildi.

– XV asr davomida deyarli barcha dehqonlar to‘lov evaziga erkin bo‘lib oldilar.

– Ijara haqi aniq belgilab qo‘yildi.

– 1455 – 1485- yillarda 30 yillik urush bo‘lib o‘tdi.

– 1485- yilda tyudorlar sulolasini hukmronligi o‘rnatildi.

*Javoblar hajmini matn hajmi bilan solishtirib ko‘ring. Farq juda katta. Bu matndagi asosiy ma‘lumotlarni topish deb ataladi. Topshiriq yengil emas, albatta. Biroq bu ko‘nikmani erinmay o‘quvchilarda shakllantirish zarur.*

### V. Dars yakunini chiqarish.

Darsda nimalarga erishilganligi ta’kidlanadi. Topshiriqni yaxshi bajarganlar rag‘batlantiriladi.

### VI. Uyga vazifa.

Mavzu oxirida berilgan savollarga javob topish.

## 29- dars. G‘arbiy Yevropa xalqlari madaniyati

### *Darsning maqsadi.*

O‘quvchilarga G‘arbiy Yevropada XI – XV asrlar ilm-fan, ma’rifat rivoji haqida bilim berish. O‘quvchilarda har bir xalq madaniyatiga hurmat bilan qarash, ularning ilg‘or jihatlarini qabul qilishga intilish hislarini shakllantirish, estetik didini o‘sirish.

### *Darsning jahozi.*

1. „Jahon tarxi“ darsligi.

2. „O‘rta asrlar tarixi“ albomi.

3. Madaniyat yodgorliklari aks ettirilgan plakatlar.

4. Doska, bo‘r.

### *Test savollari.*

Testlar o‘tilgan dars bo‘yicha o‘quvchilar bilimi darajasini aniqlash uchun tuziladi.

### *Yangi dars mavzusini mazmunining tayanch tushunchalari:*

– dunyo haqidagi tasavvurlar; – ilm-ma’rifat;

– Yevropa universitetlari; – ilmiy bilimlar;

– kitob bosishning ixtiro qilinishi.

## DARS REJASI

| <i>T.r.</i> | <i>Darsning bosqichlari</i>   | <i>Vaqt</i> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.   | 2           |
| II.         | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.                                   | 10          |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.                                    | 8           |
| IV.         | Guruhlarda ishlash.   | 14          |
| V.          | „Tarixiy shaxslarni guruhlarga ajratish va ular faoliyatini baholash“ o'yini. | 7           |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.  | 2           |
| VII.        | Uyga vazifa.  | 2           |

### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalg etish. Ularni dunyo madaniy hayotida ro'y berган eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

### **II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Darsning bu bosqichi quyidagi test topshiriqlari orqali bajariladi:

#### *1. Saljuqlar Anadolu sultonligi qachon tashkil topgan?*

- A. 1096- yil.
- B. 1077- yil.
- C. 1097- yil.
- E. 1206- yil.
- F. 1204- yil.

#### *2. Saljuqlarning Anadoludan boshqa sultonliklarini tugatgan davlatni qayd eting.*

- A. Vizantiya.
- B. Angliya.
- D. Fransiya.
- E. Salbchilar.
- F. Xorazmshohlar.

#### *3. Anadolu sultonligi qachongacha yashagan?*

- A. 1402- yil.
- B. 1270- yil.
- D. 1306- yil.
- E. 1308- yil.
- F. 1408- yil.

#### *4. Anadolu sultonligi qay tariqa parchalanib ketgan?*

- A. Vizantiya hujumi natijasida.
- B. Mo‘g‘ullar hujumi natijasida.
- D. Usmon beyligi istilosи natijasida.
- E. O‘zaro ichki urushlar natijasida.
- F. Amir Temur hujumi natijasida.

**5. *Usmonli turklar davlatiga kim asos solgan?***

- A. Usmonbey.
- B. Sulaymon I.
- D. Malikshoh II.
- E. Boyazid.
- F. Mahmud I.

**6. *Anqara jangi qachon bo‘lib o‘tgan?***

- A. 1404- yil.
- B. 1420- yil.
- D. 1402- yil.
- E. 1403- yil.
- F. 1404- yil.

**7. *Anqara jangi kimning g‘alabasi bilan tugagan?***

- A. Boyazidning.
- B. Amir Temurning.
- D. Mo‘g‘ullarning.
- E. Vizantianing.

**8. *Anqara jangining tarixiy ahamiyati nimada?***

- A. Turkiya imperiyasining parchalanishida.
- B. Yevropaning halokatdan saqlab qoltinganida.
- D. Vizantianing qulaganida.
- E. Amir Temur davlatining qudrati yanada oshganligida.
- F. Turkiyaning istilochilik urushlari olib borish qobiliyatini yo‘qotganligida.

**9. *Vizantiya imperiyasi qachon qulagan?***

- A. 1402- yil.
- B. 1403- yil.
- D. 1473- yil.
- E. 1453- yil.
- F. 1435- yil.

*Topshiriqni eng avval bajargan 10 o‘quvchidan javoblar birin-ketin so‘raladi. Qolganlar javoblarini perfakartaga taqqoslab ko‘radilar.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

O'qituvchi darsning bu bosqichini quyidagi reja asosida amalga oshiradi:

1. Dunyo haqidagi tasavvurlar kengayishiga ta'sir ko'rsatgan omillar.
2. Ilm-ma'rifatning rivojlanishi.
3. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi.
4. Kitob bosishning ixtiro etilishi va uning ahamiyati.

### **IV. Guruhlarda ishlash.**

Darsning bu qismi maqsadi — o'quvchilarda alohida-alohida matnning rejasini tuza olish ko'nikmasini rivojlantirish.

O'quvchilar 3 guruhgaga bo'linadi.

#### **1- guruhgaga topshiriq.**

1-, 2- mavzular matni rejasini tuzish.

#### **2- guruhgaga topshiriq.**

3- mavzu matniga reja tuzish.

#### **3- guruhgaga topshiriq.**

4- mavzu matniga reja tuzish.

*Topshiriq bajarilgach u taxminan quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:*

#### **1-guruh topshirig'i bo'yicha:**

1. Dunyo haqidagi tasavvurlar kengayishi sabablari.

2. Marko Polo xizmati.

3. Ilmli kishilarga ehtiyoj oshishining sabablari.

4. Cherkovga qarashli bo'limgan maktablar.

5. Universitetlarning ochilishi.

6. Yevropaning yirik universitetlari.

#### **2- guruh topshirig'i bo'yicha:**

1. Ilmiy bilimlar nima?

2. Ilmiy bilimlarning kengayishi sabablari.

3. Astronomiya va alximiya.

4. Rodjer Bekon.

#### **3- guruh topshirig'i bo'yicha:**

1. Kitob bosish ixtiro etilishiga nimalar sabab bo'ldi?

2. Iogann Gutenberg ixtirosi.

3. Kitob bosish ixtiro qilinishining ahamiyati.

*Matn rejasini tuzish topshiriq'ini qaysi guruh qanday tuzganligi o'qitib ko'rish yo'li bilan aniqlanadi. Topshiriqni yaxshi bajargan guruh rag'batlantiriladi.*

## V. „Tarixiy shaxslarni guruhlarga ajratish va ular faoliyatini baholash“ o‘yini.

1- *topshiriq*. Tarixiy shaxslardan qaysilari amalda imperiya hukmdori, qaysi birlari esa qirollik yoki knyazlik hukmdori ekanligini aniqlang.

Xlodvig. Buyuk Karl. Otton I. Fridrix I Barbarossa. Yustinian. Dmitriy Donskoy. Botuxon. Mamay. Boyazid Yildirim. Amir Temur. Filipp IV. Vilgelm I. Ioann. Lyudovik XI.

2- *topshiriq*. Keltirilgan sanalarning shu hukmdorlar faoliyati bilan aloqadorligini topish va uning tafsilotini yozish.

1. Xlodvig – 486- yil.
2. Buyuk Karl – 800- yil.
3. Otton I – 992- yil.
4. Dmitriy Donskoy – 1380- yil.
5. Botuxon – 1240- yil.
6. Boyazid Yildirim – 1389- yil.
7. Amir Temur – 1402- yil.
8. Vilgelm I – 1066- yil.
9. Filipp IV – 1302- yil.
10. Ioann – 1215- yil.
11. Lyudovik XI – 1461 – 1483- yillar.

Topshiriqning qanday bajarilganligi o‘qitish yo‘li bilan aniqlanadi. Yaxshi bajarganlar rag‘batlantiriladi va baholanadi.

## VI. Dars yakunini chiqarish.

Darsda nimaga erishilganligi ta’kidlanadi. Faol o‘quvchilar baholanadi.

## VII. Uyga vazifa.

Mavzu oxiridagi savollarga javob topish. Yevropaning eng mashhur bugungi universitetlari haqida so‘rab-surishtirib, ma’lumot to‘plab kelish.

## 30- dars. G‘arbiy Yevropada san’at va adabiyot. Gumanizm.

### *Darsning maqsadi.*

O‘quvchilarga XI – XV asrlarda G‘arbiy Yevropa xalqlari adabiyoti va san’ati hamda gumanizm haqida bilim berish. O‘quvchilarda madaniy-estetik didni o‘stirish, ularni gumanistik ruhda tarbiyalash.

### *Darsning jichozi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. „O‘rta asrlar tarixi“ albomi.

3. Dunyo siyosiy xaritasi.

4. Doska, bo'r.

### **Tarqatma material.**

O'quvchilarning o'tilgan dars mavzusi mazmuni bo'yicha bilimini aniqlash maqsadida tarqatma material tayyorланади.

#### **Yangi dars mavzusini mazmunining tayanch tushunchalari:**

- Me'morchilik; – roman va gotik uslublari;
- haykaltaroshlik; – kitob miniatyurasi; – adabiyot;
- gumanizm; – intelligensiya; – ilohiyot;
- sxolastika; – tarix ilmi.

### **DARS REJASI**

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>                             | <b>Vaqt</b> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.   | 2           |
| II.         | O'tilgan dars mavzusini mazmunini takrorlash.           | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusini mazmunini tushuntirish.            | 10          |
| IV.         | Guruhlarda ishlash.                                     | 12          |
| V.          | „O'rta asrlar tarixi“ albomi rasmlarini tomosha qilish. | 8           |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.                                | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.  | 2           |

#### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga tayyorlash. Ularni dunyo madaniy hayotida ro'y bergan eng muhim yangiliklardan xabardor qilish.

#### **II. O'tilgan dars mavzusini mazmunini takrorlash.**

Darsning bu bosqichi tarqatma material yozilgan quyidagi savollar yordamida amalga oshiriladi:

1- *kartochka*: Yevropaliklarning dunyo haqidagi tasavvurlari kengayishiga nimalar sabab bo'ldi?

2- *kartochka*: Marko Polo haqida nimalarni bilib oldingiz?

3- *kartochka*: Ilm-ma'rifat rivojlanishiga nimalar sabab bo'ldi?

4- *kartochka*: XI – XV asrlarda G'arbiy Yevropada qanday turdag'i maktablar bor edi?

5- *kartochka*: Universitetlar qay tariqa vujudga keldi?

6- *kartochka*: Qanday omillar ilmiy bilimlar vujudga kelishiga sabab bo'ldi?

**7- kartochka:** Rodjer Bekon haqida nimalarni bilib oldingiz?

**8- kartochka:** Qanday omillar kitob bosishning ixtiro qilinishini zaruratga aylantirib qo'ysi?

**9- kartochka:** Iogann Gutenberg haqida nimalarni bilib oldingiz?

**10- kartochka:** Kitob bosishning ixtiro qilinishi qanday ahamiyatga ega bo'ldi?

*O'quvchilar javobi umumlashtiriladi va baholanadi.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

Darsning bu bosqichi quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

1. Me'morchilik va unda yuz bergan o'zgarishlar.

2. Haykaltaroshlik va undagi o'zgarishlar.

3. Kitob miniaturasi.

4. Adabiyot.

5. Gumanizm.

### **IV. Guruhlarda ishlash.**

Darsning bu bosqichida o'quvchilarning matn asosida reja tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish ko'zda tutiladi. O'quvchilar guruhlarga bo'linadi.

#### **1- guruhga topshiriq.**

Darslikning „Me'morchilik“ mavzusi matni rejasini tuzing.

#### **2- guruhga topshiriq.**

Darslikning „Haykaltaroshlik“ mavzusi matni rejasini tuzing.

#### **3- guruhga topshiriq.**

„Kitob miniaturasi“ va „Adabiyot“ matnlari rejasini tuzing.

#### **4- guruhga topshiriq.**

„Gumanizm“ matnining rejasini tuzing.

Topshiriq quyidagicha ko'rinishga ega bo'lsa, maqsadga erishiladi:

#### **1- guruh topshirig'i bo'yicha:**

1. XI asrda G'arbiy Yevropada katta qurilishlar boshlandi.

2. Gumbazli g'ishtin binolar qurilishining rasm bo'lishi.

3. Roman uslubi.

4. Roman uslubidagi cherkovlar.

5. Gotik uslubi.

#### **2- guruh topshirig'i bo'yicha:**

1. Cherkovning san'at asarlari buyurtmachisi bo'lganligi.

2. Ibodatxonalarining xudo, avliyolar, ruhoniy va qiorollarning relefli va haykallari bilan bezatilishi.

3. Cherkovning ibodatxonalarini bezatishdan ko‘zlagan maqsadi.
4. Onaning bolaga bo‘lgan mehr-muhabbatining ulug‘lanishi.
5. O‘rtalasrlar san’at asarlari mazmunining antik davr san’at asarlari mazmunidan farqi.

**3- guruh topshirig‘i bo‘yicha:**

1. Kitob miniaturasi.
2. Miniaturalarda aks etgan tasvirlar.
3. Jangnomalar.
4. She’riy kulgili hikoyalar.
5. Xalq og‘zaki ijodi.
6. Qo‘schiq, ertak, ballada, poema.

*Javoblar o‘qitish yo‘li bilan tekshiriladi. O‘qituvchi ularni konspekt daftariiga o‘zi yozib kelgan varianti bilan solishtirib ko‘radi. Kamchiliklar ko‘rsatiladi, izohlanadi va o‘quvchilar ishiga baho beriladi.*

**4- guruh topshirig‘i bo‘yicha:**

1. „Gumanizm“ atamasining mazmuni.
2. Aniq fanlar rivoji.
3. Intelligensianing vujudga kelishi.
4. Sxolastika va cherkov aqidalar. Illohiyat. Foma Akvinskiy.
5. Gumanistlar va inson.
6. Dante. „Illohiy komediya“ asari.
7. F.Biondo va uning tarixga oid asarlari.

**V. „O‘rtalasrlar tarixi“ albomi rasmlarini tomosha qilish.**

**VI. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimalarga erishilganligi ta’kidlanadi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

**VII. Uyga vazifa.**

Savollarga javob topish.

## **VI bob. Yevropada feodal tarqoqlikning davom etishi**

### **31- dars. XII – XV asrlarda Germaniya**

***Darsning maqsadi.***

O‘quvchilarga XII – XV asrlardagi Germaniya tarixi haqida bilim, bugungi Germaniya haqida qisqacha ma’lumot berish. Ularni vatanparvarlik, o‘z yurtining ravnaqi yo‘lida xizmat qilish ruhida tarbiyalash.

### **Darsning jihizi.**

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „XII – XIII asrlarda Germaniya va Italiya“ xaritasi.
4. Doska, bo‘r.

### **Tarqatma material.**

Bu o‘tilgan dars mavzusi mazmunini o‘quvchilar qanchalik o‘zlashtirib olganligini aniqlash maqsadida tuziladi.

### **Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- siyosiy taraqqiyotdagi o‘ziga xoslik;
- shtaufenlar sulolasi;
- gabsburglar sulolasi;
- Germaniyada feodal tarqoqlikning saqlanib qolishi.

## DARS REJASI

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>                 | <b>Vaqt</b> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                             | 2           |
| II.         | O‘tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash. | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.  | 10          |
| IV.         | Aqlij hujum.                                | 5           |
| V.          | Guruhlarda ishlash.                         | 15          |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.                    | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                                | 2           |

### **I. Tashkiliy qism.**

O‘quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro‘y bergan eng so‘nggi muhim siyosiy voqealardan xabardor qilish.

### **II. O‘tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Bu vazifa tarqatma material yordamida bajariladi.

Shu maqsadda o‘quvchilarga quyidagi savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi:

1- *kartochka*: Nega Angliyada katta yer egalariga yerlarini ijagara berish afzal bo‘lib qolgan?

2- *kartochka*: Ijara haqining pul bilan to‘lanishi nimaga olib kelgan?

3- *kartochka*: Angliya qirolining majburiy mehnat to‘g‘risidagi farmoni kimlarga tegishli edi?

4- *kartochka*: Angliyada ishchi kuchi yetishmay qolishiga nima sabab bo'lgan?

5- *kartochka*: Jon solig'i nega joriy etilgan?

6- *kartochka*: Uot Tayler qo'zg'oloni qachon boshlangan?

7- *kartochka*: Essekslik qo'zg'olonchilarining 4 ta talabini qayd eting.

8- *kartochka*: Kentlik qo'zg'olonchilarining talablarini qayd eting.

9- *kartochka*: Uot Tayler qo'zg'oloni nima bilan tugagan?

10- *kartochka*: Qo'zg'oloning natijalari nimalardan iborat bo'ldi?

11- *kartochka*: Angliyada 30 yillik urush qachon boshlandi va u nima bilan tugadi?

*Javoblar umumlashtiriladi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

O'qituvchi hikoya-suhbat uslubidan foydalanib, bu vazifani quyidagi reja asosida tushuntiradi:

1. Germaniya siyosiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyati.

2. Shtaufenlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Sulolaning ichki va tashqi siyosati.

3. Imperator hokimiyatining tushkunlikka uchrashi.

4. Gabsburglar sulolasi hukmronligi.

### **IV. Aqliy hujum.**

Uning maqsadi – o'quvchilar o'qituvchi bergen ma'lumotlarni qanchalik esda olib qolganligini aniqlash.

#### **Savollar va javoblar.**

1. Germaniyaning siyosiy taraqqiyoti Angliya va Fransiyadan nimasи bilan farq qilgan? – *Germaniyada markazlashgan hokimiyat qaror topmaganligi bilan.*

2. Nima uchun Germaniyada imperator „Tenglarning eng kattasi“ bo'lib qolgan? – *Ko'plab bosqinchilik urushlarining imperatorni feodal-larga bog'lab qo'yganligi uchun.*

3. Nega Germaniyada shaharlar hukmdor tayanchiga aylanmagan? – *Bosqinchilik urushlarining imperatorlarni shaharlar taqdiriga befarq qilib qo'yganligi uchun.*

4. Shtaufenlar sulolasi hukmronligi qachon o'matilgan? – *1125-yilda.*

5. Shtaufenlar sulolasining eng qudratli imperatori. – *Fridrix I Barbarossa.*

6. Fridrix I va Italiya shaharlari o'rtasidagi kurash nima bilan tugagan? – *Shaharlarning o'z-o'zini boshqarish huquqini tan olish bilan.*
7. Fridrix I Sitsiliya qirolligini qay yo'l bilan Germaniya ta'sirida saqlab qolgan? – *Nikoh yo'li bilan.*
8. Germaniyada qanday qilib hokimiyat amalda yirik feodallar qo'liga o'tib qolgan? – *Imperator Fridrix II Sitsiliyada yashaganligi uchun.*
9. Gabsburglar sulolasiga qachon hokimiyat tepasiga kelgan? – *1273-yilda.*
10. Germaniyada kuchli imperator hokimiyatining bo'lmasisligi nimaga olib keldi? – *Feodal tarqoqlikning saqlanib qolishiga.*

*Javoblar umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.*

## V. Guruhlarda ishlash.

(Har bir kichik mavzu asosida matn rejasini tuzish.)

*Bu vazifani bajarish uchun o'quvchilar 4 guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi. Guruh avval o'ziga tushgan kichik mavzu matnini ichida o'qib chiqadi, so'ng matn mazmunini qamrab oluvchi reja tuzadi.*

### 1- guruhga topshiriq.

„Siyosiy taraqqiyotning o'ziga xosligi“ deb ataluvchi kichik mavzuga reja tuzing.

### 2- guruhga topshiriq.

„Shtaufenlar sulolasiga hukmronligi“ deb ataluvchi kichik mavzuga reja tuzing.

### 3- guruhga topshiriq.

„Imperator hokimiyatining tanazzulga uchrashi“ deb ataluvchi kichik mavzuga reja tuzing.

### 4- guruhga topshiriq.

„XIII – XV asrlarda Germaniyadagi siyosiy ahvol“ deb ataluvchi kichik mavzuga reja tuzing.

*O'quvchilar uchun reja tuzish topshirig'ini bajarish yengil ko'chmasa-da, baribir buni o'rgatishimiz kerak. O'qituvchi reja tuzishda matndagi eng muhim tarixiy dalillar rejada o'z aksini topishi zarurligini uqtiradi.*

Bizningcha bugungi topshiriq bo'yicha tuziladigan rejalar quyidagicha ko'rinishda bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

***1- guruh rejasi.***

1. Germaniya siyosiy taraqqiyotining Fransiya va Angliyadan farqi.
2. Imperator hokimiyatining ahvoli.
3. Imperator va feodallar.
4. Imperator va shaharlar.

***2- guruh rejasi.***

1. Shtaufenlarning hokimiyat tepasiga kelishi.
2. Fridrix I Barbarossaning Italiyani bosib olishi.
3. Italiya shaharlari ittifoqining tuzilishi.
4. Rim Papasi tutgan yo'l.
5. Italiya yurishining yakunlari.

***3- guruh rejasi.***

1. Sitsiliya qiroli Fridrix II ning Germaniya imperatori deb e'lon qilinishi.
2. Hokimiyatning yirik feodallar qo'lida to'planishi.
3. Fridrix II ning feodallarga yon bosishi sababi.
4. Rim Papasi va Fridrix II o'rtaсидаги kurash, uning oqibati.

***4- guruh rejasi.***

1. Feodal tarqoqlikning kuchayishi.
2. Gabsburglar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi.
3. Lyuksemburglar sulolasi.
4. Gabsburglar sulolasi hukmronligining qayta tiklanishi.
5. Gabsburglar sulolasi hokimiyatining zaif bo'lganligi.
6. Germaniyada feodal tarqoqlikning davom eta borganligi.

*O'quvchilar topshiriqni bajarishni tugatgach, o'qib beradilar.  
O'qituvchi o'zi tayyorlagan va plakat qog'ozga yozib qo'ygan to'rt mavzu rejalarini doskaga ilib qo'yadi.*

*O'quvchilarining ishi u bilan taqqoslanadi. Biroq hech bir guruhning ishi kansitilmaydi.*

Guruhlar ishi rag'batlantiriladi.

***VI. Dars yakunini chiqarish.***

Darsda nimalarga erishilganligi ta'kidlanadi. O'quvchilar baholari e'lon qilinadi.

***VII. Uyga vazifa.***

Mavzu oxiridagi savollarga javob topish. Bugungi Germaniya haqida ma'lumot to'plab kelish.

## 32- dars. Rusda feodal tarqoqlik va uning oqibatlari

### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga feodal tarqoqlikning yuz berishi, uning oqibatlari haqida bilim, shuningdek, bugungi Rossiya Federatsiyasi haqida qisqacha ma'lumot berish. O'quvchilarni mamlakatning yaxlitligi, qudratli bo'lishi yo'lida xizmat qilish, turli ayirmachilik va mahalliychilikka qarshi kurash ruhida tarbiyalash.

### *Darsning jahozi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Doska, bo'r.

### *Test topshiriqlari.*

O'quvchilarning o'tilgan dars mavzusi mazmunini qanchalik o'rganib olganliklarini aniqlash maqsadida test topshiriqlari tuziladi.

### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- Kiyev knyazligining bo'linib ketishi;
- tarqoqlik oqibatlari. Novgorod boyarlar respublikasi;
- Rus knyazliklari.

### DARS REJASI

| T.r. | <i>Darsning bosqichlari</i>                 | <i>Vaqt</i> |
|------|---|-------------|
| I.   | Tashkiliy qism.                             | 3           |
| II.  | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash. | 8           |
| III. | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.  | 12          |
| IV.  | Guruhlarda ishlash.                         | 12          |
| V.   | „To'rtinchisi ortiqcha“ o'yini.             | 5           |
| VI.  | Dars yakunini chiqarish.                    | 3           |
| VII. | Uyga vazifa.                                | 2           |

### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularga dunyoda ro'y bergan eng muhim siyosiy voqealar haqida ma'lumot berish.

### **II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Bu vazifa quyidagi test topshiriqlari yordamida bajariladi:

**I. Germanianing feodal tarqoqlik holatida qolganligining sabablari.**

A. Olib borilgan katta istilochilik urushlari imperatorni feodallarga bog'lab qo'yganligi.

B. Shaharlarning imperator ittifoqchisiga aylanmaganligi.

D. Imperatorlarning uquvsizligi.

E. Rim Papasining imperatorlarni qo'llab-quvvatlamaganligi.

F. A va B.

**2. Nega Germaniyada shaharlar imperator ittifoqchisiga aylanmagan?**

A. Germaniyada yirik shaharlar bo'lmanligi uchun.

B. Shaharlarga o'z-o'zini boshqarish huquqi berilmaganligi uchun.

D. Imperator Rim Papasi tayanchi bo'lganligi uchun.

E. Bosqinchilik urushlari imperatorlarni shaharlar taqdiriga befarq qilib qo'yganligi uchun.

F. Shaharlar joylashgan yerlar feodallar mulki bo'lib qolganligi uchun.

**3. Shtaufenlar sulolasini hukmronligi qachon boshlangan?**

A. 1125- yil.

B. 1225- yil.

D. 1152- yil.

E. 1215- yil.

F. 1196- yil.

**4. Shtaufenlar sulolasigacha Germaniyada qaysi sulola hukmronlik qilgan?**

A. Saksoniya.

B. Frankoniya.

D. Tyudorlar.

E. Kapetinglar.

F. Karolinglar.

**5. Fridrix I ga nishbatan huquqshunoslar qanday ibora ishlatalanlar?**

A. Barbarossa.

B. Imperiya qudrati.

D. Yerdagi jonli qonun.

E. Qalqon.

F. Osmon.

**6. Fridrix I Barbarossa Italiya yurishida nimaga erishgan?**

A. Italiyani to'la bo'ysundirishga.

- B. Italiya shaharlari mustaqilligini tugatishga.
- D. Rim Papasi qarorgohini Rimdan ko'chirishga.
- E. Sitsiliya qirolligini o'z ta'sirida saqlab qolishga.
- F. Rim Papasi bilan ittifoq tuzishga.

**7. Fridrix II va Rim Papasi o'rtaсидаги кураш нима билан тугаган?**

- A. Imperatorning mag'lubiyati bilan.
- B. Papaning Germaniya ruhoniylaridan saylanishi bilan.
- D. Papa qarorgohini Berlin shahriga ko'chirish bilan.
- E. Imperatorni salib yurishiga yuborish bilan.
- F. Imperatorning hokimiyatdan chetlatilishi bilan.

**8. Gabsburglar sulolasи hukmronligi qachon o'rnatilgan?**

- A. 1437- yil.
- B. 1347- yil.
- D. 1273- yil.
- E. 1250- yil.
- F. 1337- yil.

**9. Gabsburglar imperatorlari amalda hech qanday real hoki-miyatga ega bo'lmanligi nimaning natijasi edi?**

- A. Hokimiyat amalda yirik feodallar qo'liga to'planganligining.
- B. Feodal tarqoqlik nihoyatda chuqur bo'lganligining.
- D. Germaniyada katolik cherkovi ta'siri nihoyatda kuchli bo'lganligining.
- E. Yirik feodallar madadidan mahrum bo'lganligining.
- F. Imperatorlar uquvsizligining.

**10. Shveysariya qachon mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqqan?**

- A. 1381- yil.
- B. 1281- yil.
- D. 1312- yil.
- E. 1218- yil.
- F. 1481- yil.

*Har bir o'quvchiga o'qituvchi to'g'rimi, noto'g'rimi barcha testga bitta javob belgilab chiqilishini shart qilib qo'yadi. O'zi parta oralab shartning qanday hajarilayotganligini kuzatadi. So'ngra javoblarni perfakartaga solishtirib chiqish buyuriladi. Ular xatolarini qizil rang bilan belgilaydilar. Birorta o'chirish, qayta yozish holati aniqlangan ish hisobga olinmaydi. Shu tariqa o'quvchilar bilimi aniqlanadi va baholanadi.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

O'qituvchi bu vazifani quyidagi reja asosida bajaradi:

1. Rusning bo'linib ketishi.
2. Bo'linishning oqibatlari.
3. Novgorod — boyarlar respublikasi.
4. Kiyev, Vladimir-Suzdal, Galich-Volin knyazliklari.
5. Knyazlar va boyarlar o'tasidagi kurash.

### **IV. Guruhlarda ishlash.**

Dars bosqichining bu safargi maqsadi ham o'quvchilarning kichik mavzular matni yuzasidan reja tuzish ko'nikmasini rivojlantirishdir.

#### **1- guruhg'a topshiriq.**

„Kiyev Rusining bo'linib ketishi va feodal tarqoqlik oqibatlari“ kichik mavzusi matni rejasini tuzish.

#### **2- guruhg'a topshiriq.**

„Novgorod — boyarlar respublikasi“ va „Kiyev knyazligi“ kichik mavzulari matni rejasini tuzish.

#### **3- guruhg'a topshiriq.**

Knyazlar va boyarlar o'tasidagi kurash „Galich-Volin“ va „Vladimir-Suzdal knyazligi“ kichik mavzulari matni rejasini tuzish.

**Rejalarning taxminan quyidagicha tuzilishi maqsadga muvosiqidir:**

#### **1- guruh.**

1. Iqtisodiy aloqalar zaiflashuvi sababi.
2. Kiyev Rus davlatining bo'linib ketishi.
3. Knyazliklar o'tasidagi o'zaro urushlar.
4. Mamlakat mudofaa qobiliyatining zaiflashuvi.

#### **2- guruh.**

1. Novgorod — uch dengiz porti.
2. Boyarlar respublikasining vujudga kelishi.
3. Kiyev knyazi qo'shinining knyazlik hayotidagi o'mni.
4. Kiyev knyazligining bosib olinishi.

#### **3- guruh.**

1. Knyazlik sulolalari.
2. Knyazlar va boyarlar o'tasidagi kurashning sabablari.
3. Knyazlar va boyarlar dumasi.
4. Dvoryanlar toifasining shakllana boshlashi.
5. Galich-Volin va Vladimir-Suzdal knyazliklarida boyarlar mavqeい.

#### **4- guruh.**

Darslikdagi mustaqil ish (jadvalni to‘ldirish)ni bajarish.

*O‘qituvchi rejalarini, topshiriqlarni oldindan doskaga yozib qo‘ygan bo‘ladi.*

*O‘quvchilar guruhi tuzgan reja unga solishtirib ko‘riladi. O‘quvchilar ishida kamchiliklar bo‘lsa-da, rag‘batlantiriladi. Har qanday ijobjiy holat rag‘batlantiriladi. So‘ng 4- guruh topshiriqni qanday bajarganligi aniqlanadi. Jadvalning 5- bo‘limida o‘tgan 2 bobga yakun yasashiga alohida e‘tibor berish zarur. Guruhlar ishi baholanadi.*

#### **V. „To‘rtinchisi ortiqcha“ o‘yini.**

O‘qituvchi o‘yin topshirig‘ini tarqatadi. Har bir topshiriqda bittadan ortiqcha fakt bo‘ladi. O‘quvchi 4 ta fakt ichidan o‘sha ortiqcha faktni topadi.

1. Natural xo‘jalik. Markaziy hokimiyat. Iqtisodiy aloqalar zaifligi. Feodal tarqoqlik.

2. Feodal tarqoqlik. Kuchli knyaz hokimiyati. Feodallarning o‘zaro urushi. Boyarlar.

3. Knyaz. Voris. Veche. Cheklanmagan hokimiyat.

4. Boyarlar. Knyazlar. Cheklanmagan hokimiyat. O‘zaro ittifoq.

5. Veche. Monarxiya. Respublika. Boyarlar Dumasi.

6. Knyaz. Hunarmand. Boyar. Dvoryan.

7. Monamax. 1147- y. Moskva. Kiyev knyazligi.

#### **VI. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimalarga erishilganligi ta’kidlanadi. Faol guruh, faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

#### **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu oxiridagi savollarga javob topish. Bugungi Rossiya Federatsiyasi haqida eshitgan ma‘lumotlarini to‘plib kelish.

### **33- dars. Chet el bosqinchilarining Rusga hujumi**

#### ***Darsning maqsadi.***

O‘quvchilarga mo‘g‘ullar davlatining tashkil topishi, uning istilo-chilik urushlari, Rusning bo‘ysundirilishi, Rus xalqining shved va nemis bosqinchilariga qarshi kurashi haqida bilim berish. O‘quvchilarga Vatanni himoya qilish, qahramonlik ko‘rsatish hissini singdirish.

#### ***Darsning jahozi.***

1. „Jahon tarixi“ darsligi.

2. „Chingizzon istilolari“ (1206 – 1227) xaritasi.
3. „XIII asrda mo‘g‘ullarning Yevropaga bosib kelishi“ xaritasi.
4. Dunyo siyosiy xaritasi.
5. Doska, bo‘r.

### **Tarqatma material.**

O‘quvchilarning o‘tilgan mavzu mazmunini qanchalik bilib olganliklarini aniqlash uchun tarqatma material tayyorlanadi.

#### **Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- mo‘g‘ullar;
- istilochilik urushlari;
- Rusning bo‘ysundirilishi;
- shved va nemis bosqinchilari;
- mo‘g‘ullar davlati;
- Rusga hujum;
- Oltin O‘rda;
- Chud ko‘li ustidagi jang.

### **DARS REJASI**

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>                         | <b>Vaqt</b> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                                     | 2           |
| II.         | O‘tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.         | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.          | 10          |
| IV.         | Guruhlarda ishlash.                                 | 10          |
| V.          | „Sanalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash“ o‘yini. | 10          |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.                            | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.  | 2           |

#### **I. Tashkiliy qism.**

O‘quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro‘y bergan eng muhim siyosiy voqealardan xabardor qilish.

#### **II. O‘tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Bu vazifa kartochkalarga yozilgan quyidagi savol va topshiriqlar yordamida bajariladi:

- 1- *kartochka*: Natural xo‘jalik nima?
- 2- *kartochka*: Rusda feodal tarqoqlik qachon yuz bergan?
- 3- *kartochka*: 15 mustaqil rus knyazliklari ichidagi eng yirik knyazliklarni qayd eting.
- 4- *kartochka*: Rusning feodal tarqoqligi qanday oqibatlarga olib keldi?
- 5- *kartochka*: „Uch dengiz porti“ atamasi qaysi rus shahriga nisbatan ishlataligan?

*6- kartochka:* Novgorodda qachon boyarlar respublikasi o'rnatalgan?

*7- kartochka:* Kiyev knyazligi nega katta qo'shin saqlashga majbur bo'lgan?

*8- kartochka:* Nega knyazlar bilan boyarlar o'rtasida munosabat keskinlashgan?

*9- kartochka:* Dvoryanlar kimlardan chiqqan edi?

*10- kartochka:* Moskva shahriga qachon asos solingan?

*11- kartochka:* G'arbiy Yevropada feodal tarqoqlik qaysi voqeadan boshlangan?

*12- kartochka:* Rusda feodal tarqoqlik nimadan boshlangan?

*13- kartochka:* G'arbiy Yevropada feodal tarqoqlik qachon yuz bergen?

*14- kartochka:* Barcha mamlakatlarda feodal tarqoqlikka sabab bo'lgan umumiy omil nima bo'lgan?

*Javoblar tinglanadi, to'ldiriladi, aniqliklar kiritiladi va o'quvchilar rag'batlantiriladi.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

O'qituvchi bu vazifani quyidagi reja asosida bajaradi:

1. Mo'g'ullarning Rusga yurishi.

2. Rusni bo'ysundirishning qiyin kechmaganligi sabablari.

3. Rusning Oltin O'rдaga tobe etilishi.

4. Shvedlar bosqini.

5. Nemis ritsarlari bosqini.

### **IV. Guruhlarda ishlash.**

O'quvchilar guruhlarga bo'linadi.

Guruhlarda ishlashdan maqsad — o'quvchilarning tayanch tushunchalar asosida matn tuzish ko'nikmalarini o'stirish.

#### **1- guruhgа topshiriq.**

XIII asr boshlari. Buyuk imperiya zabit etgan 1237- yil. Botuxon. Qiyin kechmadi. Feodal tarqoqlik. 140000. O'zaro yordamga kelmagan. 1238- yil. 1240- yil.

#### **2- guruhgа topshiriq.**

Oltin O'rda. Saroy Botu. Oltin O'rдaga tobelik. O'Ipon. Rus. Orqada qola boshladи. Qaysi knyazlikda kimning knyaz bo'lishi. Oltin O'rda xoni. O'Ipon yig'ish huquqi. Buyuk knyazlik yorlig'i. Cherkov. Katta imtiyoz berilgan. Istilo oqibati.

### **3- guruhga topshiriq.**

Novgorod. 1240- yil. Shved bosqinchilar. Nevskiy. 18 yosh. Faxrli nom. Aleksandr Yaroslavich. Nemis ritsarlari. Da'volardan voz kechdi. 1242- yil. Chud ko'li. 5- aprel.

*Javoblar tinglanadi, tuzatishlar kiritiladi, to'ldiriladi va baholanadi.*

### **V. „Sanalar o'rtaсидаги bog'liqliкни aniqlash“ o'yini.**

Bu o'yinni tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilarga bir-biriga bog'liq sanalar yozilgan kartochkalarni tarqatadi.

O'quvchilar shu sanalarda qanday bir-biriga bog'liq bo'lgan tarixiy voqealar yuz bergenligini aniqlaydilar.

**1- topshiriq.** – 1337, 1429, 1431, 1453. (Bu sanalar yuz yillik urushi tarixiga oid).

**2- topshiriq.** – 1066, 1215, 1343, 1485. (Angliya tarixiga oid sanalar).

**3- topshiriq.** – 1285, 1302, 1309. (Fransiya tarixiga oid sanalar).

**4- topshiriq.** – 1360, 1420, 1461, 1483 (Fransiya tarixiga oid sanalar).

**5- topshiriq.** – 1125, 1158, 1212, 1250 (Germaniya tarixiga oid sanalar).

**6- topshiriq.** – 1273, 1437, 1481 (Germaniya tarixiga oid sanalar).

**7- topshiriq.** – 875, 1358, 1381 (Dehqonlar qo'zg'oloni tarixiga oid sanalar).

*Bu topshiriqni bajarish uchun sinf 6 guruhga bo'linadi.*

*Javoblar tinglanadi, tuzatish va qo'shimchalar kiritiladi.*

### **VI. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimaga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar va guruhlar rag'batlantiriladi.

### **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu oxiridagi savollarga javob topib kelish.

## **34- dars. Rusning mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lishi**

### **Darsning maqsadi.**

O'quvchilarga Rusning ozodlik yo'lida olib borgan kurashi, uning mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lishida Sohibqiron Amir Temur o'ynagan rol haqida bilim berish. Ularda buyuk bobolarimizning Rus taqdirida o'ynagan roli bilan faxrlanish hislarini rivojlantirish. Bugungi Rossiya

Federatsiyasi va O'zbekiston munosabatlari to'g'risida ma'lumot berish va do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalash.

### *Darsning jahozi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. „XIII asrda mo'g'ullarning Yevropaga bosib kelishi“ xaritasi.
3. Dunyo siyosiy xaritasi.

### *Test topshiriqlari.*

Test o'quvchilarning o'tgan darsda olgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida tuziladi.

### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- Rusni yagona davlatga birlashtirish zarurati;
- birlashtirish uchun shart-sharoitlarning yetila borishi;
- Moskva knyazligi. Kulikovo jangi;
- Amir Temuring Rus ozodligiga qo'shgan hissasi.

## DARS REJASI

| T.r. | <i>Darsning bosqichlari</i>  | Vaqt |
|------|--|------|
| I.   | Tashkiliy qism.  | 2    |
| II.  | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.  | 8    |
| III. | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.   | 12   |
| IV.  | Guruhlarda ishlash.  | 12   |
| V.   | „Tarixiy shaxs nomi bilan bog'liq voqealarni va ularning sanasini aniqlash“ o'yini | 7    |
| VI.  | Dars yakunini chiqarish.   | 2    |
| VII. | Uyga vazifa.   | 2    |

### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro'y bergan eng muhim siyosiy yangiliklardan xabardor qilish.

### **II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Bu vazifa quyidagi test topshiriqlari yordamida bajariladi:

#### *1. Mo'g'ullar davlati qachon tashkil topgan edi?*

- A. XIII asr boshlarida.
- B. XIV asr boshlarida.
- C. XII asr oxirida.
- E. XIV asr 2- yarmida.

F. XI asr oxirida.

**2. Mo‘g‘ullar Russa qachon hujum boshlagan?**

- A. 1222- yil.
- B. 1223- yil.
- D. 1237- yil.
- E. 1240- yil.
- F. 1247- yil.

**3. Kiyev qachon bo‘ysundirilgan?**

- A. 1340- yil.
- B. 1240- yil.
- D. 1242- yil.
- E. 1241- yil.
- F. 1237- yil.

**4. Nega mo‘g‘ullarga Rusni bo‘ysundirish qiyin kechmagan?**

- A. Qudratli qo‘singa egaligi uchun.
- B. Rusda feodal tarqoqlik hukm surganligi uchun.
- D. Rus bir vaqtning o‘zida 3 bosqinchi davlatga qarshi kurash olib borishga majbur bo‘lib qolganligi uchun.

E. Kiyev Buyuk knyazining qo‘rqoqligi uchun.

F. Rus qo‘sini son jihatdan kam bo‘lganligi uchun.

**5. Rus bo‘ysundirilgach, uning taqdiri nima bo‘ldi?**

- A. Mo‘g‘ullar davlatiga qo‘sib olindi.
- B. Mo‘g‘ullarning ulusiga aylantirildi.
- D. Oltin O‘rdaga qo‘sib olindi.
- E. Buyuk mo‘g‘ul-rus knyazligi tashkil etildi.

**6. Mo‘g‘ullar istilosи qanday oqibatga olib keldi?**

- A. Knyazlarning o‘zaro urushlariga chek qo‘yildi.
- B. Mo‘g‘ul-rus ittifoqi tuzildi.
- D. Buyuk mo‘g‘ul-rus knyazligi vujudga keldi.
- E. Rus taraqqiyotda G‘arbiy Yevropadan orqada qola boshladи.
- F. Feodal tarqoqlik barham topdi.

**7. Rusning Oltin O‘rdaga tobeligi nimalarda o‘z ifodasini topdi?**

- A. Katta miqdorda o‘lpon to‘lab turishida.
- B. Kimning buyuk knyaz yoki knyaz bo‘lishini Oltin O‘rda hal etganida.
- D. Buyuk knyazning to‘plangan o‘lponni Oltin O‘rdaga olib kelib topshirishida.
- E. Qo‘sish saqlash huquqiga ega bo‘lmaganida.

F. A, B, D.

*8. Shved bosqinchilari qachon Rus yerlariga hujum qilgan va unima bilan tugagan?*

- A. 1246- yilda mag'lubiyat bilan.
- B. 1236- yilda mag'lubiyat bilan.
- C. 1240- yilda mag'lubiyat bilan.
- D. 1247- yilda mag'lubiyat bilan.
- E. 1237- yilda mag'lubiyat bilan.

*9. Nemis ritsarlari bilan hal qiluvchi jang qachon va qayerda bo'lib o'tgan?*

- A. 1206- yil Neva daryosi bo'yida.
- B. 1242- yil Chud ko'li ustida.
- C. 1240- yil Neva daryosi bo'yida.
- D. 1237- yil Kalka daryosi bo'yida.
- E. 1237- yil Chud ko'li ustida.

*10. Shved va nemis bosqinchilari ustidan qozonilgan tarixiy alabalar kimning nomi bilan bog'liq?*

- A. Dmitriy Donskoy.
- B. Yaroslav Mudriy.
- C. Aleksandr Nevskiy.
- D. Ivan Kalita.
- E. Vladimir Monamax.

*Har bir o'quvchiga o'qituvchi testga bitta javob belgilab chiqishini shart qilib qo'yadi. O'zi parta oralab, shartning qanday bajarilayotganligini kuzatadi.*

*So'ngra har bir o'qituvchiga javoblarini perfakartaga solishtirib chiqish buyuriladi.*

*Ular xatolarini qizil rang bilan belgilaydilar. Birorta o'chirish, qayta yozish holati aniqlangan ish hisobga olinmaydi. Shu tariqa o'quvchilar bilimi aniqlanadi va baholanadi.*

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

Bu vazifa quyidagi reja asosida bajariladi:

1. Rusning yagona davlatga birlashishi shart-sharoitining yetila borishi.
2. Kulikovo jangi va uning tarixiy ahamiyati.
3. Rusning mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lishida Amir Temurning roli.

4. Rusning mo‘g‘ullar zulmidan ozod bo‘lishi.

#### **IV. Guruhlarda ishlash.**

Bu bosqichning maqsadi — o‘quvchilarni kichik mavzular asosida ularning qisqartirilgan matnlarini tuzishga o‘rgatish. Bu vazifani bajarish uchun o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi. Ularning har biriga alohida topshiriq beriladi. Yana bir guruh tuzilib, unga darslikda berilgan mustaqil ishni bajarish vazifasi yuklatiladi.

##### **1- *guruhgaga topshiriq.***

„Rusning tobe etilishi va uning oqibati“ mavzusida qisqartirilgan matn tuzish.

##### **2- *guruhgaga topshiriq.***

„Kulikovo jangi va uning tarixiy ahamiyati“ mavzusida qisqartirilgan matn tuzish.

##### **3- *guruhgaga topshiriq.***

„Rusning mo‘g‘ullar zulmidan ozod bo‘lish onlarining tezlashuvida Amir Temuring roli“ mavzusida qisqartirilgan matn tuzish.

##### **4- *guruhgaga topshiriq.***

Bu guruh darslikda „G‘arbiy Yevropa davlatlari va Rusning birlashishi jarayoni“ mavzusida berilgan mustaqil ishni bajaradi.

1-, 3- guruhlar topshiriqni quyidagi ko‘rinishda bajarsalar, maqsadga muvofiq bo‘ladi. (Aynan shunday bajarish shart emas, albatta).

##### **1- *guruh.***

„Rusning tobe etilishi va uning oqibati“.

1237- yilda mo‘g‘ullar davlati Rusga hujum qildi. 140 ming kishilik qo‘shinga Botuxon rahbarlik qilgan. Rusda feodal tarqoqlikning hukm surishi mo‘g‘ullar g‘alabasini osonlashtirgan. 1240- yilda Rus bo‘ysundirildi. Rus yerlari Oltin O‘rdaga katta miqdorda o‘lpon to‘laydigan bo‘ldi. Rusda kim Buyuk knyaz bo‘lishi, qaysi knyazlikda kimning knyaz etib tayinlanishini ham Oltin O‘rda xoni hal etgan.

##### **2- *guruh.***

„Kulikovo jangi va uning tarixiy ahamiyati“.

1380- yilning 8- sentabrida Kulikovo jangi bo‘lib o‘tdi. Bu jangda Oltin O‘rda va Rus qo‘shini to‘qnashdi. Rus qo‘shiniga Dmitriy Ivanovich rahbarlik qildi. U Moskva knyazi edi. Jangda Rus qo‘shini birinchi marta g‘alabaga erishdi. Dmitriy Ivanovich bu g‘alaba sharafiga Donskoy deb atala boshlandi. G‘alaba Moskva knyazining obro‘sini orttirdi.

To‘g‘ri, bu g‘alaba Rusga mustaqillik keltirmagan. Lekin Rus birlashsa dushmani yengishi mumkinligini isbotlagan.

### **3- guruh.**

„Rusning mo‘g‘ullar zulmidan ozod bo‘lish onlarining tezlashuvida Amir Temurning roli“.

1395-yilda Amir Temur Oltin O‘rdaga o‘nglanmas zarba bergen. Shundan so‘ng Oltin O‘rda o‘z harbiy qudratini tiklay olmagan. Bu esa Rusning mo‘g‘ullar zulmidan ozod bo‘lish onlarini tezlatgan. Amir Temur bobomizning bu tarixiy xizmati Rossiya tarixchilari M.I.Ivankin, B.Grekov, A.Yakubovskiy va boshqalar tomonidan qayd etib o‘tilgan.

*O‘quvchilar javoblarini bu javoblarga taqqoslab ko‘radilar.*

Kamchiliklar bo‘lsa yoki ko‘ngildagidek bajarilmagan bo‘lsa, o‘quvchilarga tanbeh berilmaydi. Chunki qisqartirilgan matn tayyorlash oson ish emas.

Shundan so‘ng 4- guruhning vazifani qanday bajarganligi aniqlanadi.

O‘quvchilar kamchiliklari ko‘rsatiladi, to‘ldiriladi va rag‘batlantiriladi.

**V. „Tarixiy shaxslar nomi bilan bog‘liq voqealar va ularning sanasini aniqlash“ o‘yini.**

Darsning bu bosqichini bajarish uchun o‘qituvchi quyidagi topshiriqlarni doskaga yozadi yoki oldindan tayyorlab kelib, o‘quvchilarga tarqatadi:

1- *topshiriq*: Janna d’ Ark. Buyuk Karl. Xlodvig. Otton I.

2- *topshiriq*: Vilgelm, Fridrix I Barbarossa, Aleksandr Nevskiy.

3- *topshiriq*: Amir Temur. Botuxon. Dmitriy Donskoy. Mamay.

4- *topshiriq*: M.Ivankin. B.Grekov. A.Yakubovskiy.

*Har bir topshiriqdan kamida bittadan tarixiy shaxs bilan bog‘liq voqealarni bilgan o‘quvchi baholanadi.*

### **VI. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimaga erishilganligi ta‘kidlanadi. Dars xulosasi chiqariladi.

### **VII. Uyga vazifa.**

Darslikdagi savollarga javob topish. Rossiya tarixchi olimlarining fikrlarini uyda ota-onalariga o‘qib berish.

## VII bob. Saljuq va Usmonli turklar

### 35- dars. Saljuq va Usmonli turklar davlatlari

#### *Darsning maqsadi.*

O‘quvchilarga Saljuq va Usmonli turklar davlatlarining tashkil topishi va ularning keyingi taqdirlari haqida bilim berish. Sohibqiron Amir Temurning Yevropa xaloskori ekanligi to‘g‘risida bilim berish. Bu bilan faxrlanish hislarini o‘stirish. Bobolar ishini davom ettirish, boshqa xalqlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash.

#### *Darsning jahozi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. „XIV – XV asrlarda usmonlilar istilolari“ xaritasi.
4. Doska, bo‘r.

#### *Tarqatma material.*

O‘quvchilarning o‘tgan darsda olgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida tuziladi.

#### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- saljuq turklari;
- Saljuqlar imperiyasi;
- Anadolu sultonligi;
- Saljuqlar Anadolu sultonligining barham topishi. Usmonli turklar davlati;
- istilochilik urushlari. Yevropaga tahdid. Anqara jangi. Amir Temur – Yevropa xaloskori.

#### DARS REJASI

| <i>T.r.</i> | <i>Darsning bosqichlari</i>                 | <i>Vaqt</i> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                             | 2           |
| II.         | O‘tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash. | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.  | 10          |
| IV.         | Guruhlarda ishslash.                        | 15          |
| V.          | „Davlatlarni guruhash“ o‘yini.              | 6           |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.                    | 2           |
| VII.        | Uyga vazifa.                                | 2           |

## I. Tashkiliy qism.

O'quvchilarni darsga jalg etish. Ularni dunyoda ro'y bergan eng so'nggi va muhim tarixiy voqealardan xabardor qilish.

## II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.

Darsning bu bosqichi tarqatma materiallar yordamida bajariladi.

1- *kartochka*: 1327- yilda Moskva knyazligi tarixida qanday voqe a yuz bergen?

2- *kartochka*: Kulikovo jangi qachon bo'lib o'tgan?

3- *kartochka*: Mo'g'ullar qo'shiniga kim qo'mondonlik qilgan?

4- *kartochka*: Rus qo'shiniga kim qo'mondonlik qilgan?

5- *kartochka*: Kulikovo jangi qanday natija bilan tugagan?

6- *kartochka* Kulikovo g'alabasi Moskva knyazligi uchun qanday ahamiyatga ega bo'ldi?

7- *kartochka*: 1382- yilda Rus tarixida qanday voqe a yuz berdi?

8- *kartochka*: 1395- yilda qanday tarixiy voqe a yuz berdi?

9- *kartochka*: Amir Temurning Oltin O'rda ustidan qozongan g'alabasi Rus taqdirida qanday ahamiyatga ega bo'ldi?

10- *kartochka*: Rus taqdirida Amir Temurning o'ynagan roliga M. Ivankinning bergen bahosidan parcha keltiring.

11- *kartochka*: Rus taqdirida Amir Temurning o'ynagan roliga B. Grekov va A. Yakubovskiyarning bergen bahosidan parcha keltiring.

12- *kartochka*: Rus qachon Oltin O'rda zulmidan xalos bo'ldi?

*Javoblar tinglangach, umumlashtiriladi, aniqliklar kiritiladi va to'ldiriladi.*

## III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.

Darsning bu bosqichi quyidagi reja asosida bajariladi:

1. Saljuq turklari va ular tuzgan davlat.

2. Saljuqlar Anadolu sultonligi.

3. Usmonli turklar davlatining tashkil topishi. Uning istilochilik urushlari.

4. Anqara jangi va uning tarixiy ahamiyati.

## IV. Guruhlarda ishlash.

*Darsning bu bosqichi o'quvchilarda matn bilan ishlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.*

O'quvchilar 5 guruhgaga bo'linadi. Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi.

### 1- guruhga topshiriq.

Mavzu matnidan quyidagi savollarga javob toping:

1. Saljuqlar tuzgan davlatning nomini, asoschisini, uning qayerda tuzilganligini va qanday atalganligini aniqlang.

2. Saljuqlar davlati nega parchalanib ketgan?

3. Saljuqlarning qaysi davlati eng ko‘p yashagan?

**2- guruhga topshiriq.**

Bu guruh quyidagi larda javob topadi:

1. Xorazmshohlar davlatining Saljuqlar davlati taqdirida o‘yanigan roli.

2. Saljuqlar davlati gullab-yashnagan davr.

3. Saljuqlarning Kichik Osiyoga kelishi.

4. Saljuqlar Anadolu sultonligining barham topishi.

**3- guruhga topshiriq.**

Bu guruh quyidagi savollarga javob topadi:

1. Usmon beyligining vujudga kelishi qanday ro‘y berdi?

2. Usmonli turklar atamasi qanday paydo bo‘ldi?

3. Usmonlilarning istilochilik urushlari.

**4- guruhga topshiriq.**

1. Turklarning G‘arbiy Yevropaga tahdid solishi.

2. Anqara jangi.

3. Anqara jangining tarixiy ahamiyati.

4. Amir Temurning Yevropa xaloskorasi ekanligi haqida Yevropa olimlarining fikrlari.

**5- guruhga topshiriq.**

1. Turkiya davlatining butunlay yo‘q qilinmaganligi.

2. Turkiya qudratining tiklanishi.

3. Vizantiya imperiyasining qulashi.

4. Vizantiya imperiyasi qulashining oqibatlari.

*Javoblar eshitiladi va baholanadi.*

**V. „Davlatlarni guruhash“ o‘yini.**

Bu o‘yin o‘quvchilar bilimini mustahkamlashda, xotirasini tiklashda muhim rol o‘ynaydi.

**Doskaga quyidagi topshiriqlar yozib qo‘yiladi:**

*1- topshiriq.* 1. Buyuk Karl davlati. 2. Vizantiya. 3. Arab xalifaligi.

4. Muqaddas Rim davlati. 5. Saljuq turklari davlati. 6. Usmonli turklar davlati. 7. Chingizxon davlati. 8. Suy sulolasasi.

*2- topshiriq.* 1. Angliya. 2. Franklar davlati. 3. Kiyev Rus davlati.

4. Polsha. 5. Chexiya. 6. Bolgariya. 7. Fransiya. 8. Oltin O‘rda.

## Bu topshiriqlar o'quvchilar oldiga quyidagi savollarni qo'yish orqali bajariladi:

1. Birinchi va ikkinchi topshiriqda keltirilgan davlatlarning maqomiga ko'ra o'xhash va farq tomonlarini aytинг.
2. Bu davlatlar hukmdorlarining maqomiga ko'ra o'xhash va farq tomonlarini aniqlang.
3. Bu davlatlar guruhining geografik joylashuviga ko'ra farqini aniqlang.

**1- savolga** quyidagicha javob berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

*1- topshiriqda* keltirilgan davlatlar imperiya maqomiga ega bo'lган davlatlar.

*2- topshiriqda* keltirilgan davlatlar maqomiga ko'ra qirollik yoki xonlik davlatlaridir..

**2- savolga** javob quyidagicha bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) har ikki guruhda keltirilgan davlatlar hukmdorlarining maqomiga ko'ra o'xhash tomonlari ularning monarxlar ekanligidir;

b) farqi esa ularning atalishida. Ya'ni, imperiyalar hukmdorlari asosan imperator deb atalsa, imperiya bo'lмаган davlatlar hukmdorlari qirol, xon, amir, shoh, sulton nomlari bilan atalgan. To'g'ri, ba'zi imperiya hukmdorlariga nisbatan sulton, shoh, amir atamalari ham qo'llanilgan.

**3- savolga** javob quyidagicha bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

*1- topshiriqqa* kiritilgan imperiyalarning 4 tasi Osiyo qit'asida, 4 tasi esa Yevropa qit'asida vujudga kelgan. To'g'ri, ularning ichida hududlari ikki, hatto uch (Usmonli turklar) qit'ani ham o'z ichiga olganlari bo'lган. Biroq asoslari yo Yevropada yoki Osiyoda.

*2- topshiriqqa* kiritilgan davlatlardan 7 tasining hududi Yevropa qit'asida, bittasiniki esa ham Yevropada, ham Osiyoda (Oltin O'rda xonligi).

*O'quvchilar javoblari tinglanadi, umumlashtiriladi va rag'batlantiriladi.*

## VI. Dars yakunini chiqarish.

Darsda nimalarga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

## VII. Uyga vazifa.

Mavzu oxirida berilgan savollarga javob topish. „Yoshlar“ telekanalining „Davr“ dasturi xabarlari asosida bugungi Turkiya Respublikasi haqida ma'lumot to'plab kelish.

## VIII bob. XI – XV asrlarda Osiyo, Amerika va Afrika xalqlari

### 36- dars. Mo‘g‘ullar davlati va uning istilochilik urushlari

#### *Darsning maqsadi.*

O‘quvchilarga mo‘g‘ul qabilalarining yagona „Yakka mo‘g‘ul ulus“ davlatiga birlashtirilishi, bu davlatning istilochilik urushlari haqida bilim berish. Bugungi Mo‘g‘uliston Respublikasiga oid qisqacha ma'lumot berish. Ularni bosqinchilik urushlariga qarshi kurash, boshqa xalqlarga hurmat ruhida tarbiyalash.

#### *Darsning jahozi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. „Chingizxon istilolari“ xaritasi (1206 – 1227).
3. „XIII asrda mo‘g‘ullarning Yevropaga bostirib kelishi“ xaritasi.
4. Dunyo siyosiy xaritasi.
5. Doska, bo‘r.

#### *Test topshiriqlari.*

O‘quvchilarning o‘tgan dars mavzusi mazmunini qanchalik bilib olganliklarini aniqlash maqsadida tuziladi.

#### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- qabilalar ittifoqi; – „Yakka mo‘g‘ul ulus“i davlati;
- Buyuk xon; – mo‘g‘ullar qo‘shini;
- istilochilik urushlari; – imperiyaning vujudga kelishi;
- istilo oqibatlari; – ichki ziddiyatlar.

#### DARS REJASI

| T.r. | Darsning bosqichlari                        | Vaqt |
|------|---|------|
| I.   | Tashkiliy qism.                             | 2    |
| II.  | O‘tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash. | 8    |
| III. | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.  | 12   |
| IV.  | Matn ustida ishlash.                        | 12   |
| V.   | Tarixiy shaxslar faoliyatiga baho berish.   | 6    |
| VI.  | Dars yakunini chiqarish.                    | 3    |
| VII. | Uyga vazifa.                                | 2    |

## I. Tashkiliy qism.

O'quvchilarni darsga jalb etish. Bugungi Mo'g'uliston Respublikasi haqida qisqacha ma'lumot berish.

## II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.

Darsning bu bosqichi quyidagi test topshiriqlari yordamida amalga oshiriladi:

### 1. Nega XII – XV asrlarda qurilgan binolar, „roman uslubidagi binolar“ deb atalgan?

A. Ularni buniyod etishda qadimgi Rim me'morchiligi namunalaridan foydalanilganligi uchun.

B. Frank me'morchiligi namunalaridan foydalanilganligi uchun.

D. German me'morchiligi namunalaridan foydalanilganligi uchun.

E. Vizantiya me'morchiligi namunalaridan foydalanilganligi uchun.

F. A va B.

### 2. Roman uslubidagi me'morchilikka xos xususiyat nima?

A. Ixchamlik.

B. Haybatlilik.

D. Binolarning salobatliligi.

E. Hashamatlilik.

F. B, D.

### 3. Nega cherkovlar salobatli va haybatli qilib qurilgan?

A. Uzoqdan hammaga ko'rinib turishi uchun.

B. „Cherkov barcha binolardan birinchi turadi“ degan ma'noni anglatib turishi uchun.

D. Odamlarda cherkov qudratiga ishonch uyg'otish uchun.

E. Cherkov qudratini namoyish qilish uchun.

F. Qirollar ham Rim Papasi vassali ekanligini anglatib turishi uchun.

### 4. „Gotik uslubidagi binolar“ iborasidagi „gotik“ atamasi nimani anglatgan?

A. Dag'allikni.

B. Hashamatlilikni.

D. Germanlarning got qabilasi nomini.

E. Ixchamlikni.

F. Germanlar qudratini.

### 5. Gotik uslubi roman uslubidan nimalari bilan farq qilgan?

A. O'tkir uchli baland qubbalari bilan.

B. Qalin devorlarining yo'qligi bilan.

- D. Juda ko'p katta derazalar o'rnatilganligi bilan.  
 E. Tiniq ko'rinishi bilan.  
 F. Javoblarining barchasi to'g'ri.

**6. XI – XV asrlar haykaltaroshligidagi asosiy yangilik nima edi?**

- A. Insonning olijanobligi va samimiyligini ulug'lash.  
 B. Insonning abadiy gunohkorligini eslatib turish.  
 D. Onaning bolaga bo'lgan mehr-muhabbatini ulug'lash.  
 E. Odamlarning fikr boyligi, tuyg'u va kayfiyatlarini ifodalash.  
 F. A, D, E.

**7. O'rta asrlar kitob miniaturasi asosan nimani aks ettirgan?**

- A. Urushlarni.  
 B. Tarixiy shaxslarni.  
 D. Dehqonlarning ishlab turgan paytini.  
 E. Hunarmandlarning ishlab turgan paytini.  
 F. B, E.

**8. XI – XV asrlar adabiyotining yetakchi mavzusi.**

- A. Qirollar hayoti.  
 B. Qirollar va aslzodalar hayoti.  
 D. Urush qahramonlari va sarguzashtlari.  
 E. Hayotdagi kulgili voqealar.  
 F. B, E.

**9. Intelligensiya kim?**

- A. O'qimishli kishilar.  
 B. Ilm-fan bilan maxsus shug'ullanuvchi kishilar.  
 D. Adabiyot va san'at bilan maxsus shug'ullanuvchi kishilar.  
 E. Universitetlarni bitirgan kishilar.  
 F. B va D.

**10. Gumanizm nima?**

- A. Insonni birinchi o'ringa qo'yuvchi g'oyalar tizimi.  
 B. Inson qadr-qimmatini hurmat qilishni targ'ib etuvchi g'oyalar tizimi.  
 D. Inson kamoloti uchun shart-sharoitlarni yaratib berishni talab qiluvchi g'oyalar tizimi.  
 E. Inson hayotini qadrlovchi g'oyalar tizimi.  
 F. Javoblarining barchasi to'g'ri.

*Test topshirig'i javoblari qanday tarzda tekshirib chiqilishi avvalgi mavzularda berilgan. O'qituvchi ularda keltirilgan tartiblarga amal qilishi lozim.*

### **III. Yangi dars mavzusini mazmunini tushuntirish.**

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

1. „Yakka mo‘g‘ul ulus“ davlatining tashkil topishi.
2. Chingizzxon va chingiziyarning istilochilik urushlari.
3. Mo‘g‘ullar istilosini oqibatlari.
4. Davlatdagi ichki ziddiyatlar.

### **IV. Matn ustida ishslash.**

Darsning bu bosqichida o‘qituvchi avvaldan doskaga yozib qo‘yilgan savollarga o‘quvchilar e’tiborini qaratadi. Ularga matndan javob izlashni, bunda „Atamalar mazmunini bilib oling“ bo‘limiga ham murojaat qilish lozimligini uqtiradi.

#### **Savollar.**

1. Temuchin mo‘g‘ullarning qaysi qabilalar ittifoqi xoni edi?
2. 1206- yilda qanday voqeа sodir bo‘ldi?
3. Mo‘g‘ullar davlati tarixda qanday nomlar bilan yuritiladi?
4. Mo‘g‘ullar nega ulkan hududlarni bosib olishga muvaffaq bo‘lganlar?
5. Mo‘g‘ullar bosib olgan o‘lkalarni belgilang.
6. Mo‘g‘ullar istilosini qanday oqibatlar keltirdi?
7. Mo‘g‘ullar imperiyasida ichki ziddiyatlar ro‘y bermasligi mumkin edimi?

Topshiriqni avval bajargan 7 o‘quvchi bittadan savolga javob beradi. Qolganlar javobni diqqat bilan eshitadi. O‘z javoblariga aniqlik kiritishi yoki sinfdoshining javobini to‘ldirishi mumkin.

### **V. Tarixiy shaxslar faoliyatiga baho berish.**

O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga quyidagi savollarni qo‘yadi:

| <i>T.r.</i> | <i>Amir Temur</i> | <i>T.r.</i> | <i>Chingizzxon</i> |
|-------------|-------------------|-------------|--------------------|
| 1.          |                   | 1.          |                    |
| 2.          |                   | 2.          |                    |
| 3.1.        |                   | 3.2.        |                    |
| 4.1.        |                   | 4.2.        |                    |
| 5.1.        |                   | 5.2.        |                    |
| 6.1.        |                   | 6.2.        |                    |

### **Savollar.**

1. Qachon davlat tuzdilar?
2. Qay tariqa davlat tuzdilar?
- 3.1. Amir Temur Rus taqdirida qanday rol o'ynadi?
- 3.2. Chingizzon-chi?
- 4.1. Amir Temur qaysi qit'a xaloskorı sifatida tan olingan?
- 4.2. Chingizzon-chi?
- 5.1. Amir Temur o'z yurtini kimlardan ozod qildi?
- 5.2. Chingizzon-chi?
- 6.1. Amir Temur bunyod etgan tarixiy obidalar.
- 6.2. Chingizzon bunyod etgan tarixiy obidalar.

*Jadval to'ldirilganda, shubhasiz, jadvalning Amir Temurga oid qismida bo'sh joy qolmaydi.*

Jadvalning Chingizzonga oid qismi ham to'ladi, biroq undagi 3-, 4-, 5-, 6- kataklarda faqat „yo'q“ so'zi yoki salbiy fikrlargina o'z aksini topadi.

Masalan, 3- savolni olib ko'raylik. Unga taxminan quyidagicha javob yoziladi: „Chingizzonning o'zi bo'lmasa-da, avlodlari Rusni tobe etgan“.

- 4.2. Katakka faqat birgina „yo'q“ so'zi yoziladi, xolos.
- 5.2. „Hech kimdan“ iborasi yozilishiga shubba yo'q.
- 6.2. Chingizzon bunyod etgan tarixiy obida bo'lмаган.

### **Xulosa.**

Har ikkisi ham buyuk sarkarda, jahongir. Biroq Amir Temur o'z yurtini mo'g'ullar zulmidan ozod etgan shaxs. U ayni paytda xaloskor. Chunonchi, Rusning mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lish onlarini tezlashtirgan. G'arbiy Yevropani esa Boyazid Yildirim istilosidan saqlab qoldi. Buni chet el olimlari, hatto rus olimlarining o'zları ham tan olganlar.

Amir Temur ayni paytda buyuk bunyodkor! Temur va temuriylar davrida madaniyat gullab-yashnaganiga tarix guvoh. Chingizzondan nima qoldi? Hech narsa. Hatto uning qabri qayerda ekanligi ham noma'lum.

### **VI. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimalarga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

## VII. Uyga vazifa.

Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish. Amir Temur haqida Mustaqillik yillarda nashr etilgan kitoblar nomlarini bilib kelish.

### 37- dars. Oltin O'rda xonligi

#### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga Oltin O'rda xonligining tashkil etilishi tarixi, undagi ijtimoiy hayot, keyingi taqdiri haqida bilim berish. Ularni bosqinchilik urushlariga qarshi kurash ruhida tarbiyalash.

#### *Darsning jihizi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Doska, bo'r.

#### *Tarqatma material.*

O'quvchilarning o'tilgan dars mavzusi mazmunini qanchalik darajada bilib olganliklarini aniqlash maqsadida tuziladi.

#### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- Oltin O'rda; – Jo'ji ulusi; – Dashti Qipchoq;
- Berkaxon hukmronligi davri; – ijtimoiy munosabatlar;
- Ayl xo'jaligi; – Oltin O'rda va Amir Temur;
- Oltin O'rданing qulashi.

#### DARS REJASI

| <i>I.r.</i> | <i>Darsning bosqichlari</i>                                       | <i>Vaqt</i> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.   | 2           |
| II.         | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.                       | 8           |
| III.        | Yangi dars mavzusi matni ustida mustaqil ishlash va uni baholash. | 20          |
| IV.         | Guruhlarda ishlash.   | 10          |
| V.          | Dars yakunini chiqarish.  | 3           |
| VI.         | Uyga vazifa.  | 2           |

#### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni dunyoda ro'y bergan eng muhim siyosiy voqealardan xabardor qilish.

#### **II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Darsning bu bosqichi tarqatma material yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun o'quvchilarga quyidagi savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi:

- 1- *kartochka*: Mo'g'ullar davlati qachon tashkil etildi?
- 2- *kartochka*: Mo'g'ullar davlati qanday nom bilan atalgan?
- 3- *kartochka*: Chingizzon davlatni qanday birliklarga bo'lib boshqargan?
- 4- *kartochka*: Chingizzon davrida qaysi yurtlar bosib olindi?
- 5- *kartochka*: Chingizzonning 4 o'g'li nomini qayd eting.
- 6- *kartochka*: Chingizzon qachon o'z imperiyasini 4 ulusga bo'ldi?
- 7- *kartochka*: Xitoy qachon to'la bosib olingan?
- 8- *kartochka*: Mo'g'ullarning istilochilik urushlari qachon nihoyasiga yetdi?
- 9- *kartochka*: Mo'g'ullar istilosini oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

*Javoblar to'ldiriladi, tuzatishlar kiritiladi va umumlashtiriladi.*

### **III. Yangi dars mavzusi matni ustida mustaqil ishlash va uni baholash.**

Darsning bu qismida o'qituvchi doskaga dars mazmunini aks ettiruvchi savollarni yozib qo'yadi. O'quvchilar esa matndan shu savollarga javob topadilar.

#### **Savollar.**

1. Jo'ji ulusi tarkibiga kiruvchi o'lkalarni qayd eting.
2. Oltin O'rda xonligi qay tariqa tashkil etilgan?
3. Oltin O'rdanining to'la mustaqil davlatga aylanishi.
4. Oltin O'rda va Misrning yaqinlashuvi.
5. Oltin O'rda xonligidagi ijtimoiy munosabatlar.
6. Oltin O'rdanining qulashi qay tariqa yuz bergan?

O'quvchilar daftarlariiga topgan javoblarining qisqacha mazmunini yozadilar. Ishni birinchi bo'lib tugallagan 6 nafar o'quvchining tartib bilan bittadan savolga javobi eshitiladi. Javoblar izohlanadi. Zaruriyat bo'lsa to'ldiriladi, aniqliklar kiritiladi.

### **IV. Guruhlarda ishlash.**

Darsning bu bosqichida o'quvchilar 4 guruhga bo'linadilar va har bir guruhga mavzu matni bo'yicha konspekt tuzish vazifasi topshiriladi.

***1- guruhg'a topshiriq.***

„Oltin O'rda xonligining tashkil topishi“ mavzusi matning konspektini tuzing.

***2- guruhg'a topshiriq.***

„Oltin O'rda Berkaxon va O'zbekxon davrida“ mavzusi asosida konspekt tuzing.

***3- guruhg'a topshiriq.***

„Oltin O'rdada ijtimoiy hayot“ mavzusining konspektini tuzing.

***4- guruhg'a topshiriq.***

„Oltin O'rdanining qulashi“ mavzusining konspektini tuzing.

**V. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimaga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifa.**

Mavzu oxirida berilgan savollarga javob topish.

**38- dars. XIII—XV asrlarda Xitoy*****Darsning maqsadi.***

O'quvchilarga Xitoyning zaiflashib borishi oqibatida uni mo'g'ullar bosib olishi, istilo oqibatlari, min sulolasi hukmronligining o'rnatilishi, sulolaning ichki va tashqi siyosati, xitoy xalqi madaniyati haqida bilim, shuningdek, bugungi Xitoy Xalq Respublikasi haqida qisqacha ma'lumot berish. O'quvchilarni boshqa xalqlar tarixiga hurmat, do'stlik ruhida tarbiyalash.

***Darsning jihizi.***

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Doska, bo'r.

***Test topshiriqlar.***

Test o'quvchilarning o'tgan darsda olgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida tuziladi.

***Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:***

- sun sulolasi;
- mo'g'ullar istilosи;
- min sulolasi davri;
- Xitoy madaniyati.
- Xitoyning zaiflashuvi;
- istilo oqibatlari;

## DARS REJASI

| <b>T.s.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>                     | <b>Vaqt</b> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                                 | 3           |
| II.         | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.     | 10          |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.      | 15          |
| IV.         | Javoblar tahlili.                               | 6           |
| V.          | „Tarixiy sanalar, shaxslar va voqealar“ o'yini. | 6           |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.                        | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                                    | 2           |

### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Xitoy Xalq Respublikasi haqida qisqacha ma'lumot berish.

### **II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Darsning bu bosqichi quyidagi test topshiriqlari yordamida bajariladi:

#### **1. Oltin O'rda xonligi qachon tashkil etilgan?**

- A. XIV asrning 40- yillarida.
- B. 1240- yilda.
- D. XIII asrning 40- yillarida.
- E. XIII asrning ikkinchi yarmida.
- F. XIII asrning 80- yillarida.

#### **2. Oltin O'rda xonligining asoschisi.**

- A. Chingizzon.
- B. Jo'ji.
- D. Botuxon.
- E. O'qtoy.
- F. Munke.

#### **3. Oltin O'rda tarkibiga kirgan hududlar.**

- A. Rus, Shimoliy Kavkaz, Janubiy Sibir, Xorazm.
- B. Xorazm, Shimoliy Kavkaz, Janubiy va G'arbiy Sibir.
- D. Dashti Qipchoq, Volga Bulg'oriyasi, Qrim.
- E. Mo'g'uliston, Rus, Movarounnahr, Xorazm, Dashti Qipchoq, Sibir.
- F. B va D.

**4. Berkaxon nega Misr sultonligi bilan yaqinlashgan?**

- A. Boshqa chingiziylar ta'siriga qarshi tura olish uchun.
- B. Tulu xonadoni vakillarini butunlay qirib tashlash uchun.
- D. O'qtoy xonadonidan Buyuk xonlik taxtini tortib olish uchun.
- E. Xuloku Eronini bosib olish uchun.
- F. Ozarbayjonnei bosib olish uchun.

**5. Misr sultoni nega Oltin O'rda bilan yaqinlashgan?**

- A. Xuloku Eroni Misrga ham tahdid sola boshlagani uchun.
- B. Misrda o'z hokimiyatini yanada mustahkamlash uchun.
- D. Oltin O'rdani islomlashtirish uchun.
- E. Iroqni bosib olish uchun.
- F. Suriyani bosib olish uchun.

**6. Berkaxon nega Rusda aholini umumiy ro'yxatga olish tadbirini o'tkazgan?**

- A. Tobe Rus yuboradigan qo'shining soni aniq bo'lishi uchun.
- B. O'lpox to'lovchilar sonini aniq bilish uchun.
- D. Aholisi ko'p knyazliklarni bo'lib yuborish uchun.
- E. Aholisi kam knyazliklarni birlashtirib yuborish uchun.
- F. B va E.

**7. Oltin O'rda aholisining eng nufuzli qatlamlari.**

- A. Ruhoniyalar, harbiyalar.
- B. Beklar, ruhoniyalar, qabila oqsoqollari.
- D. Noyonlar, somonchilar, o'troqlar.
- E. Shahzodalar, beklar, noyonlar.
- F. A va E.

**8. Davlat va harbiy amaldorlar kimlardan shakllantirilgan?**

- A. Botuxon avlodidan.
- B. Botuxon va Berkaxon avlodidan.
- D. Shahzoda va noyonlardan.
- E. Shahzoda va beklardan.
- F. Shahzoda, bek va noyonlardan.

**9. Oltin O'rdaning taqdirida Amir Temur qanday rol o'ynadi?**

- A. Oltin O'rda bilan mustahkam ittifoqda bo'ldi.
- B. Oltin O'rdaga o'nglanmas zarba berdi.
- D. Oltin O'rdani islomlashtirdi.
- E. Oltin O'rdani tarix sahnasidan surib tashladi.
- F. Oltin O'rdani Boyazidga qarshi kurash uchun ushlab turdi.

### **10. Oltin O'rda qachon quladi?**

- A. XIV asr ikkinchi yarmida.
- B. XV asr boshlarida.
- D. XV asr o'rtalarida.
- E. XV asr ikkinchi yarmida.
- F. XVI asr boshlarida.

Topshiriqni bajarib bo'lganlar bittadan testga javob beradi. Qolganlar o'z javoblarini doskaga ilib qo'yiladigan yoki oldindan doskaga yozilib, usti parda bilan berkitib qo'yilgan perfakartaga solishtirib ko'radilar. Ishni to'g'ri bajarganlar baholanadi.

**III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.** (Maqsad – o'quvchilarning matnda eng muhim holatlarni qisqa javobda aks ettira olish ko'nikmasini rivojlantirish).

O'qituvchi matn bilan ishslashga tayanch bo'luvchi topshiriqlarni doskaga yozib qo'yadi. O'quvchilar matndan ularga javob topadi. Javoblar nihoyatda lo'nda holda daftarga qayd etilishini aytadi. Matndagi eng muhim holatlarni qisqa javobda aks ettira olish ham muhim ekanligini ta'kidlaydi. Topshiriqni ikki o'quvchi bir bo'lib bajaradi.

#### **Matn bilan ishslash uchun topshiriqlar.**

1. Mo'g'ullarning Xitoyni istilo qilishini muqarrar qilib qo'ygan omillar va mo'g'ullar istilosining oqibatlari.
2. Min sulolasi hukmronligining qaror topishi. Sulolaning ichki va tashqi siyosati.
3. Xitoy madaniyati yutuqlari.

#### **IV. Javoblar tahlili.**

Javoblar qaysi o'quvchilar juftligi oldin bajarishiga qarab eshitiladi. Javobni to'ldirish zarurati bo'lsa, o'qituvchi savol beradi. Javoblar izohlanadi, to'ldiriladi va zarur holatlar qayta tushuntiriladi.

#### **V. „Tarixiy sanalar, shaxslar va voqealar“ o'yini.**

O'yin topshiriqlari yozilgan kartochkalar 4 guruhga topshiriladi. Har bir guruh bittadan topshiriq bajaradi.

O'quvchilarga tarqatiladi. Kim oldin bajarsa, javobi eshitiladi, izohlanadi va baholanadi.

#### *1- topshiriq.*

Oltin O'rda. Jo'ji. Botuxon. XIII asr. Buyuk xonga bo'ysunar edi.

#### *2- topshiriq.*

1257- yil. Oltin O'rda. Berkaxon. Ozarbayjon. Beybars. Munosabatlar. O'z manfaatlari. Rus. Islom dini.

### *3- topshiriq.*

O'zbekxon. 1312 – 1342. Turkiy xalqlar. Shahzodalar. Noyonlar. Beklar. Ayl xo'jaligi. Tarxon. Sabonchi. O'troqchi.

### *4- topshiriq.*

1380- yil. Amir Temur. To'xtamishxon. 1383- yil. 1388- yil. 1395- yil. 1405- yil. XVI asr boshlari.

*Javoblar qaysi guruh oldin bajarib bo'lishiga qarab tinglanadi. Javoblar izohlanadi, to'ldiriladi. Ish sifatiga qarab o'quvchilar baholanadi.*

## **VI. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimalarga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

## **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu oxirida berilgan savollarga javob topish. Televideniye orqali XXRga oid berilgan birorfa xabar haqida bilib kelish.

## **39- dars. O'rta asrlarda Yaponiya**

### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga Yaponiyaning XII – XV asrlardagi tarixi va madaniyati haqida bilim hamda bugungi Yaponiya to'g'risida qisqacha ma'lumot berish. O'quvchilarni baynalminallik, xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalash.

### *Darsning jahozi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Doska, bo'r.

### *Tarqatma material.*

Tarqatma material o'quvchilarning avvalgi darsda olgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida tuziladi.

### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- Yaponiyada imperator hokimiyyati; – yer egaligi munosabatlari;
- syogun hokimiyyati; – o'zaro ichki kurashlar;
- Yaponiya madaniyati.

## DARS REJASI

| <i>T.r.</i> | <i>Darsning bosqichlari</i>                     | <i>Vaqt</i> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                                 | 2           |
| II.         | O‘tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.     | 10          |
| III.        | Yangi dars mavzusi matni ustida ishlash.        | 15          |
| IV.         | Guruhlar javoblari tinglanadi.                  | 5           |
| V.          | „Tarixiy sanalar, shaxslar va voqealar “o‘yini. | 8           |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.                        | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                                    | 2           |

### **I. Tashkiliy qism.**

O‘quvchilarni darsga jalb etish. Bugungi Yaponiya haqida qisqacha ma’lumot berish.

### **II. O‘tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Darsning bu bosqichi tarqatma material yordamida amalga oshiriladi. Shu maqsadda o‘qituvchi quyidagi savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalarni o‘quvchilarga tarqatadi.

1- *kartochka*: Sun sulolasi davrida Xitoyda qanday hodisa yuz bergen?

2- *kartochka*: Sun sulolasi davrida Xitoy nega zaiflashib qolgan?

3- *kartochka*: Mo‘g‘ullar qachon Xitoyni to‘la bosib oldilar va Xitoyni qaysi sulola nomi bilan boshqardilar?

4- *kartochka*: Mo‘g‘ullar istilosи oqibatlarini tartib bilan qayd eting.

(O‘qituvchi tartibda 14 holat o‘z aksini topishiga e’tibor berishi lozim. Bu o‘quvchilarning topqirligini aniqlash uchun ham kerak).

5- *kartochka*: Xitoyda mo‘g‘ullar zulmiga qarshi qachon qo‘zg‘olon ko‘tarilgan va u qanday nom bilan atalgan?

6- *kartochka*: Xitoyda min sulolasi hukmronligi qachon o‘rnatalgan, unga kim asos solgan?

7- *kartochka*: Min sulolasi ichki siyosati haqida nimalarni bilib oldingiz?

8- *kartochka*: Min sulolasi tashqi siyosatining istilochilik siyosati ekanligini isbotlang.

**9- kartochka:** Min sulolasи hokimiyati nega zaiflashgan va uning oqibati nima bo'lgan?

**10- kartochka:** Xitoy madaniyatida bu davrda erishilgan yutuqlarni qayd eting.

*Javoblar tinglanadi, aniqlik kiritiladi, izohlanadi va xulosalanadi. Eng ko'p javob bergan o'quvchilar baholanadi.*

**III. Yangi dars mavzusi matni ustida mustaqil ishslash.** (Maqsad – o'quvchilarning matndagi eng muhim holatlarini qisqa javobda aks ettira olish ko'nikmalarini takomillashtirish).

Darsning bu qismida o'qituvchi dars mavzusi mazmunini aks ettiruvchi topshiriqlarni doskaga yozib qo'yadi.

O'quvchilar matndan ularga javob topadi. Javoblar daftarga aniq holda qayd etilishini aytadi.

Topshiriqni o'quvchilar 3 guruha bo'linib bajaradilar.

#### **Matn bilan ishslash uchun topshiriqlar.**

##### *1- topshiriq.*

1. Yaponiyada yer egaligi jamiyatining shakllanish jarayoni.

2. Imperator va syogun hokimiyati.

##### *2- topshiriq.*

Yaponiyada imperator va syogunlar o'rtaсидаги kurash va uning oqibatlari.

##### *3- topshiriq.*

Yaponiya madaniyati.

**IV. Guruhlar javoblari tinglanadi.** Noaniq o'rnlarda o'qituvchi qo'shimcha savollar beradi. Guruhlar ishi bir-biriga taqqoslanadi. Bunda o'quvchilarning ma'lumotlarni qanchalik o'z so'zları bilan yozganliklariga e'tibor beriladi. Javoblar xulosalanadi.

#### **V. „Tarixiy sanalar, shaxslar va voqealar“ o'yini.**

O'yin topshiriqlari yozilgan kartochkalar o'quvchilar guruhiga topshiriladi yoki vatman qog'oziga oldindan yozilgan topshiriqlar doskaga ilib qo'yiladi.

1- holatda har bir guruh o'ziga berilgan topshiriqni bajaradi.

2- holatda har bir o'quvchi topshiriqlardan qaysisini bilsa, shunisini bajaradi. Kim oldin bajarsa javob eshitiladi, izohlanadi va baholanadi.

##### *1- topshiriq.*

960- yil. Xitoy. 1215. Chingizzon. 1279- yil. Xubilay.

##### *2- topshiriq.*

1279- yil. Yuan sulolasi. Yaylov. Talonchilik. Og'ir. Soliqlar. Mo'g'ullar. Mulk. Sotilgan va sotib olingan savdogarlar. Soliq. Dehqonlar.

### *3- topshiriq.*

1351- yil. 1368- yil. Chju Yuan-Chjan. Min. 1644- yil. XV asr o'rtalari. Moliyaviy inqiroz. Mudofaa. Majbur.

### *4- topshiriq.*

Yaponiya. 646- yil. Syoen. 1192- yil. Minamoto. Samuray. Ichki o'zaro urushlar.

*Eslatma.* O'quvchilar guruhi topshiriqlarning og'ir-yengilligiga qarab shakllantiriladi.

## **VI. Dars yakunini chiqarish.**

Darsda nimalarga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

## **VII. Uyga vazifa.**

Mavzu oxiridagi savollarga javob topish. Televideniye xabarlaridan Yaponiyaga oid ma'lumotni bilib kelish.

## **40- dars. XI – XV asrlarda Hindiston**

### *Darsning maqsadi.*

O'quvchilarga Hindistonning XI – XV asrlar tarixiga oid bilim berish. Bugungi Hindiston haqida qisqacha ma'lumotga ega qilish. Xitoy, Yaponiya va Hindiston tarixining solishtirma jadvalini tuzdirish. Ularni boshqa xalqlar tarixiga hurmat, do'stlik, baynalminallik ruhida tarbiyalash.

### *Darsning jihizi.*

1. „Jahon tarixi“ darsligi.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Doska, bo'r.
4. „O'rta asrlar tarixi“ albomi.

### *Test topshiriqlari.*

O'quvchilarning o'tgan darsda olgan bilimlari sifatini aniqlash maqsadida test topshiriqlari tuziladi.

### *Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:*

- Dehli sultonligi; – ijtimoiy hayot;
- sultonlikning zaiflashuvi; – Dehli sultonligining taqdiri;
- yevropaliklar kirib kelishining boshlanishi.

## DARS REJASI

| T.r. | Darsning bosqichlari   | Vaqt |
|------|--|------|
| I.   | Tashkiliy qism.  | 3    |
| II.  | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.                    | 8    |
| III. | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.                     | 8    |
| IV.  | Mustaqil ish.  | 14   |
| V.   | Mavzu oxirida berilgan savollarga topilgan javoblarni bahoish. | 5    |
| VI.  | Jadval tuzish qanday bajarilganligiga baho berish.             | 5    |
| VII. | Uyga vazifa.   | 2    |

**I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb etish. Hozirgi Hindiston haqida qisqacha ma'lumot berish.

**II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.**

Darsning bu bosqichi quyidagi test topshiriqlari yordamida amalga oshiriladi:

*1. Yaponiyada qachondan boshlab yer-mulk egaligi jamiyatni vujudga kela boshladi?*

- A. VII asr.
- B. VIII asr.
- C. IX asr.
- D. X asr.
- E. XI asr.

*2. Yaponiyada yer qachon davlat mulki deb e'lon qilingan?*

- A. 846- yilda.
- B. 624- yilda.
- C. 646- yilda.
- D. 746- yilda.
- E. 724- yilda.

*3. Syoen deb nimaga aytilgan?*

- A. Imperator farmoniga.
- B. Xususiy yerlarga.
- C. Davlat yerlariga.
- D. Aslzodalarga davlat oldidagi xizmatlari uchun in'om etilgan yerlarga.
- E. Dehqonlarga berilgan chek yerlarga.

**4. Yaponiyada syogun hokimiysi qachon o‘rnatilgan?**

- A. 1292- yilda.
- B. 1092- yilda.
- D. 1392- yilda.
- E. 1329- yilda.
- F. 1192- yilda.

**5. Syogun kim?**

- A. Bosh vazir.
- B. Valiahd.
- D. Zodagon hukmdor.
- E. Harbiy sarkarda.
- F. D va E.

**6. Minamoto kim edi?**

- A. Imperator.
- B. Samuray.
- D. Syogun.
- E. Yirik harbiy feodal xonadonining vakili.
- F. Oliy bosh qo‘mondon.

**7. Syogunning asosiy tayanchi kimlar edi?**

- A. Erkin shaharliklar.
- B. Harbiy feodal tabaqa.
- D. Samuraylar.
- E. Ritsarlar.
- F. B va E.

**8. Samuray deb kimgarga aytilgan?**

- A. Erkin shaharliklarga.
- B. Erkin dehqonlarga.
- D. Syogun xonadoni a’zolariga.
- E. Harbiy xizmatni kasb qilib olgan harbiylar tabaqasiga.
- F. To‘g‘ri javob yo‘q.

**9. Yaponiyada nimaga nisbatan „Sharq ko‘zgusi“ atamasi ishlatilgan?**

- A. Syogun qo‘siniiga.
- B. Imperator saroyiga.
- D. Syogun saroyiga.
- E. 1180 – 1266- yillardagi Yaponiya tarixiga bag‘ishlangan asarga.
- F. Kioto shahriga.

Javoblar vazifani dastlab bajarib bo'lgan 9 nafar o'quvchidan eshitiladi. Bu paytgacha hamma topshiriqni bajarib bo'lgan yoki bajara olmaganlar ruchkalarini sumkasiga solib qo'ygan bo'lislari shart. Javoblar eshitilgach, ular doskaga yozib qo'yilgan perfakartaga solishtiriladi.

Qolgan o'quvchilar javoblarini tekshirib ko'radir. Javoblar umumlashtiriladi va baholanadi.

### **III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.**

Darsning bu bosqichini o'qituvchi hikoya-suhbat uslubidan foydalaniib, quyidagi reja asosida bajaradi:

1. Dehli sultonligining tashkil topishi.
2. Sultonlikdagi yer egaligi shakkleri.
3. Sultonlikning zaiflashuvi sabablari.
4. Dehli sultonligining keyingi taqdiri.
5. Yevropaliklarning Hindistonga kirib kela boshlashi.

### **IV. Mustaqil ish.**

Bu safar iqtidorli bolalardan alohida guruh tuziladi. Ularga XI – XV asrlarda Xitoy, Yaponiya va Hindiston mavzusida jadval tuzish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash vazifasi topshiriladi. Ular bu kichik tadqiqot ishlarida o'qituvchi doskaga oldindan yozib qo'ygan quyidagi savol va topshiriqlar bo'yicha ma'lumot izlashadi:

1. Xitoy, Hindiston va Yaponiyada hukmronlik qilgan sulolalar.
2. Ularning hukmronlik qilgan yillari.
3. Sulola asoschilari.
4. Bu davlatlar qaysi chet davlatlar hujumiga uchrangan?
5. Chet elliklar hujumi oqibatida qaysilari chet elliklar ta'siriga tushib qolgan?
6. Bu davlatlarda in'om etilgan yerlar nima deb atalgan?
7. Davlat boshliqlari qanday unvon bilan atalgan?
8. Qaysi birlarida ozodlik uchun kurash g'alaba bilan tugagan?
9. Bu davlatlarning qaysi birida imperator amalda real hokimiyatga ega bo'lmasigan?
10. Bu davlatlarda qaysi fanlar ko'proq rivojlangan?

*O'quvchilar ma'lumot to'plab bo'lgach, jadval tuzadilar va ma'lumotlarni jadvalga joylaydilar. Qolgan o'quvchilar darslik mavzusi so'ngida berilgan savollarga javob topadilar.*

### **V. Mavzu oxirida berilgan savollarga topilgan javoblarni baholash.**

Har bir savol javobi tinglanadi va baholanadi.

## **VI. Jadval tuzish qanday bajarilganligiga baho berish.**

Jadval tuzish qanday bajarilganligini guruuh sardori o'qib eshittiradi. O'qituvchi unga aniqlik kiritadi.

Mustaqil ish baholanadi.

## **VII. Uyga vazifa.**

Xitoy, Hindiston va Yaponiyaga oid bittadan ma'lumot bilib kelish.

### **41- dars. O'rta asrlarda Amerika va Afrika xalqlari**

#### **Darsning maqsadi.**

O'quvchilarga Amerika va Afrika xalqlarining o'rta asrlardagi tarixi va madaniyati haqida bilim berish. Bugungi Amerika va Afrika qit'alaridagi umumiy ahvol haqida qisqacha ma'lumot berish. O'quvchilarni boshqa xalqlar tarixiga, madaniyatiga hurmat, do'stlik va birodarlik ruhida tarbiyalash.

#### **Darsning jahozi.**

1. „Jahon tarixi“ dasrliги.
2. Dunyo siyosiy xaritasi.
3. Doska va bo'r.

#### **Tarqatma material.**

O'tilgan mavzu mazmuni bo'yicha o'quvchilar olgan bilim daramasini aniqlash maqsadida tarqatma material tuziladi.

#### **Yangi dars mavzusi mazmunining tayanch tushunchalari:**

- mahalliy aholi; – mayya, atstek va ink xalqlari;
- hayot tarzi; – „Ulug' inson“; – Oliy Inka;
- „Quyosh o'g'illari“; – Afrika xalqlari;
- Amerika va Afrika xalqlari madaniyati.

### **DARS REJASI**

| <b>T.r.</b> | <b>Darsning bosqichlari</b>                 | <b>Vaqt</b> |
|-------------|---|-------------|
| I.          | Tashkiliy qism.                             | 5           |
| II.         | O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash. | 6           |
| III.        | Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.  | 12          |
| IV.         | Aqliy hujum.                                | 7           |
| V.          | Mustaqil ish.                               | 10          |
| VI.         | Dars yakunini chiqarish.                    | 3           |
| VII.        | Uyga vazifa.                                | 2           |

## I. Tashkiliy qism.

O'quvchilarni darsga jalg etish. Bugungi Amerika va Afrika qit'alari, ulardagi davlatlar haqida qisqacha ma'lumot berish.

## II. O'tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.

Darsning bu qismini o'qituvchi tarqatma material yordamida amalga oshiradi. Shu maqsadda o'quvchilarga quyidagi savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi:

1- *kartochka*: Dehli sultonligi qachon va kim tomonidan tashkil etildi?

2- *kartochka*: Dehli sultonligi tashkil etilgan 1206- yilda Mo'g'u-listonda qanday tarixiy voqeal yuz bergan edi?

3- *kartochka*: Qanday yer-mulkka iqto' deb aytilgan?

4- *kartochka*: Xolisa yerlar qanday yerlar edi?

5- *kartochka*: Hindiston mahalliy knyazliklarining Dehli sultonligiga qaramligi nima bilan belgilangan?

6- *kartochka*: Vaqf yerlari qanday yerlar edi?

7- *kartochka*: Dehli sultonligini zaiflashtirgan omillarni qayd eting.

8- *kartochka*: Sultonlikda sayidlar sulolasasi qachon hokimiyatni egalladi?

9- *kartochka*: Lodi sulolasasi qachon hokimiyat tepasiga keldi?

10- *kartochka*: Yevropaliklarning Hindistonga kirib kelishi qaysi voqeadan boshlandi?

*Javoblar tinglanadi, to 'ldiriladi, aniqliklar kiritiladi va baholanadi.*

## III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish.

Darsda hikoya-suhbat uslubi qo'llanadi. O'qituvchi darsning bu bosqichini quyidagi reja asosida bajaradi:

1. Amerikaning tub aholisi, ularning hayoti.

2. Mayya va atsteklar hayoti.

3. Inklar davlati.

4. Amerika xalqlari madaniyati.

5. Afrika xalqlari madaniyati.

## IV. Aqliy hujum.

*Darsning bu bosqichi o'tilgan mavzu mazmunini o'quvchilar qanchalik o'zlashtirib olganliklarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.*

### Savollar va javoblar.

1. Amerikaning tub aholisi qanday nom bilan atalgan? – *Hindular nomi bilan.*

2. Hindular Amerikaga qayerdan borib qolganlar? – *Osiyodan, Bering bo‘g‘ozি orqali.*
  3. O‘rtा asrlarda hindular qanday tuzumda yashardilar? – *Urug‘chilik.*
  4. Mayyalarda shahar – davlatlar qachon vujudga kelgan? – *Milodning bиринчи ming yillигида.*
  5. Shahar – davlat hukmdori qanday nom bilan atalgan? – „*Ulug‘ inson“ nomi bilan.*
  6. Mayya xalqi yozuvi qachon paydo bo‘lgan? – *Milodning boshlarida.*
  7. Qanday omillar mayyalar taqvimining yaratilishiga sahab bo‘lgan? – *Dehqончilik ehtiyojlari.*
  8. Qanday dalillar mayyalar madaniyatda ilg‘or bo‘lganligini tasdiqlaydi? – „*O“ raqamini ishlatish, rasadxonalarning, yozuvning mavjudligi.*
- Yana: *Sayyoralarining Quyosh atrofida aylanish vaqtining hisoblab chiqilganligi hamda Quyosh, Oy tutilishini oldindan bilganliklari.*
9. Atsteklar oliy maktablarida qanday ilmlar o‘rgatilgan? – *Tarix, yozuv, o‘qish, hisob, astronomiya, notiqlik.*
  10. Inklar davlati qachon tashkil topgan? – *XII asrda.*
  11. Inklar davlati hukmdori qanday nom bilan atalgan? – *Oliy Inka.*
  12. Oliy Inka qarindoshlari qanday atalgan? – „*Quyosh o‘g‘illari“.*
  13. Afrikaning eng qadimiyligi davlatini qayd eting. – *Gana.*
  14. Afrikaning yana qanday davlatlarini bilasiz? – *Mali, Songai. Faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlaniriladi.*

## V. Mustaqil ish.

*Darsning bu bosqichida o‘qituvchi „Amerika va Afrika xalqlari hayoti“ mavzusida taqqoslashni ko‘zda tutuvchi mashg‘ulot yuushitiradi. Bu mashg‘ulot iqtidorli o‘quvchilar uchun tashkil etiladi.*

**Bunda o‘quvchilar matnni ichlarida o‘qib, quyidagi jadval savollariga javob topadilar:**

1. Darslikda berilgan xalqlarning nomi.
2. Xalqlarning turmush tarzi.
3. Davlatlarning nomlari.
4. Hukmdorlarning qanday atalganligi.
5. Qaysi fanlarning rivojlanganligi.
6. Tashkil etilgan maktab turlari.
7. Maktablarda o‘qitilgan bilimlar.

8. Kashfiyotlar.
9. San'at sohalari.
10. Dirlari.

Iqtidorli o'quvchilar vazifani bajarib bo'lgunlariga qadar o'qituvchi boshqa o'quvchilarga „Dunyo siyosiy xaritasi“ asosida mashg'ulot uysushtiradi. Amerika va Afrika qit'alaridagi bugungi davlatlar xaritadan ko'rsatiladi, ular haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

| T.r. | O'rta asrlarda Amerika xalqlari | T.r. | O'rta asrlarda Afrika xalqlari |
|------|---------------------------------|------|--------------------------------|
| 1.   |                                 | 1.   |                                |
| 2.   |                                 | 2.   |                                |
| 3.   |                                 | 3.   |                                |
| 4.   |                                 | 4.   |                                |
| 5.   |                                 | 5.   |                                |
| 6.   |                                 | 6.   |                                |
| 7.   |                                 | 7.   |                                |
| 8.   |                                 | 8.   |                                |
| 9.   |                                 | 9.   |                                |
| 10.  |                                 | 10.  |                                |

### Xulosa.

Ish sifati baholanadi. Xulosani to'g'ri chiqara olgan o'quvchilar albatta „yaxshi“ baholar bilan rag'batlantiriladi.

### VI. Darsga yakun yasash.

Darsda nimaga erishilganligi ta'kidlanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

### VII. Uyga vazifa.

Darslik mavzusini oxiridagi savollarga javob topish. O'zbekistonning AQSH va Misr davlati bilan aloqasiga doir televideniyeda berilishi mumkin bo'lgan ma'lumatlardan xabardor bo'lib kelish.

## MUNDARIJA

|   |    |
|---|----|
| So‘zboshi.....  | 3  |
| <b><i>I bo‘lim. Jahon xalqlari o‘rta asrlarning birinchi davrida (V – XI asrlar)</i></b>          |    |
| <i>I bob.</i> V – XI asrlarda Yevropa xalqlari  |    |
| 2- dars. Xalqlarning buyuk ko‘chishi va uning oqibatlari.....                                     | 8  |
| 3- dars. Franklar davlatining tashkil topishi.....  | 10 |
| 4- dars. Franklar imperiyasi.....   | 13 |
| 5- dars. Muqaddas Rim imperiyasi.....   | 17 |
| 6- dars. V – XI asrlarda Angliya.....   | 21 |
| 7- dars. VI – XI asrlarda Vizantiya imperiyasi.....   | 23 |
| 8- dars. Slavyan davlatlarining tashkil topishi.....  | 27 |
| 9- dars. Kiyev Rus davlati.....   | 31 |
| 10- dars. V – XI asrlarda Yevropa xalqlari madaniyati.....  | 34 |
| <b><i>II bob. VI – XI asrlarda Osiyo xalqlari</i></b>   |    |
| 11- dars. Islom dinining vujudga kelishi.....   | 38 |
| 12- dars. Arab xalifaligi va uning istilochilik siyosati.....                                     | 43 |
| 13- dars. Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati.....  | 49 |
| 14- dars. IV – XI asrlarda Hindiston.....   | 52 |
| 15- dars. V – XI asrlarda Xitoy.....  | 55 |
| <b><i>II bo‘lim. Jahon xalqlari o‘rta asrlarning ikkinchi davrida (XI – XV asrlar)</i></b>        |    |
| <b><i>III bob. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi. Shaharlarning yuksalishi.</i></b> |    |
| 16- dars. Yevropada o‘rta asrlar shaharlarining vujudga kelishi.....                              | 59 |
| 17- dars. Tovar xo‘jaligi va savdo-sotiq.....   | 63 |
| 18- dars. Yevropa shaharlari hayoti. Osiyo shaharlari.....  | 67 |
| <b><i>IV bob. Xristian cherkovi va salib yurishlari</i></b>                                       |    |
| 19- dars. Xristian cherkovining jamiyatda tutgan o‘rnii.....                                      | 70 |
| 20- dars. Salib yurishlarining shart-sharoitlari.....   | 73 |
| 21- dars. Dastlabki salib yurishlari va oqibatlari.....   | 77 |
| 22- dars. Keyingi salib yurishlari va oqibatlari.....   | 79 |
| <b><i>V bob. G‘arbiy Yevropada markazlashgan davlatlarning tashkil topishi</i></b>                |    |
| 23- dars. Fransiyada markaziy hokimiyatning vujudga kelishi.....                                  | 84 |
| 24- dars. Fransiyada toifaviy monarxiyaning qaror topishi.....                                    | 89 |
| 25- dars. Fransiyani birlashtirishni tugallash yo‘lida.....                                       | 93 |
| 26- dars. Fransiyani birlashtirishning tugallanishi .....   | 95 |

|   |     |
|---|-----|
| 27- dars. Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi.....             | 100 |
| 28- dars. Angliyaning XIV – XV asrlardagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti.. | 103 |
| 29- dars. G'arbiy Yevropa xalqlari madaniyatı.....                            | 108 |
| 30- dars. G'arbiy Yevropada san'at va adabiyot. Gumanizm.....                 | 112 |

***VI bob. Yevropada feudal tarqoqlikning davom etishi***

|   |     |
|---|-----|
| 31- dars. XII – XV asrlarda Germaniya.....                | 115 |
| 32- dars. Rusda feudal tarqoqlik va uning oqibatlari..... | 120 |
| 33- dars. Chet el bosqinchilarining Rusga hujumi.....     | 124 |
| 34- dars. Rusning mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lishi.....  | 127 |

***VII bob. Saljuq va Usmonli turklar***

|   |     |
|---|-----|
| 35- dars. Saljuq va Usmonli turklar davlatlari..... | 133 |
|---|-----|

***VIII bob. XI – XV asrlarda Osiyo, Amerika va Afrika xalqlari***

|   |     |
|---|-----|
| 36- dars. Mo'g'ullar davlati va uning istilochilik urushlari..... | 137 |
| 37- dars. Oltin O'rda xonligi.....                                | 142 |
| 38- dars. XIII–XV asrlarda Xitoy.....                             | 144 |
| 39- dars. O'rta asrlarda Yaponiya.....                            | 148 |
| 40- dars. XI – XV asrlarda Hindiston.....                         | 151 |
| 41- dars. O'rta asrlarda Amerika va Afrika xalqlari .....         | 155 |

• • •

USMON TOSHPO LATOVICH JO RAYEV

**JAHON TARIXI*****O'rta asrlar davri*****7- SINF****O'QITUVCHI METODIK QO'LLANMASI***Muharrir Abdurahmon Akbar**Dizayner Uyg'un Solihov**Tex. muharrir Yelena Tolochko**Musahih Mahmuda Usmonova**Kompyuterda matn teruvchilar: Noila Saitova, Gulbayra Yeraliyeva*

IB № 09-149

Bosishga ruxsat etildi 08. 06. 2005. Bichimi 60·90%,<sup>16</sup> Tayms garniturası. Sharflı b.t. 10,0. Nashr b.t. 9,84. 15074 nusxada bosildi. Sharfnoma № 37-2005. Buyurtma № 5.

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129, Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30- uy.

„YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE“ OAJda chop etildi. 702801, Yangiyo'l shahri, Samarqand ko'chasi 44- uy.